



Rafikjon ATAXANOV,
"Kokand University" Andijon filiali dotsenti PhD
E-mail: ataxanov1966@gmail.com

AQXAI dotsenti R.Yusupov taqrizi asosida

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA O'TROQ VA CHORVADOR AHOLI O'RTASIDAGI SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XIX asr boshlarida Farg'ona vodiysi yashagan o'troq aholi bilan chorvador etnoslar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari tahlil va tavsif qilingan. Xususan, o'zbek, tojik, uyg'ur, qirg'iz va qoraqalpoq etnoslarining o'zaro etnoxo'jalik aloqalari natijasida integratsiya jarayonlarining jadallashuvi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, vodiylar bozorlarining o'ziga xos xususiyati hamda savdo-sotiq munosabatlarning tovar ayriboshlash usuli va uning xarakterli jihatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Savdo, yarmarka, tovarlar, bozorlar, ayriboshlash, etnos, o'troq aholi, ko'chmanchi aholi.

ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ОСЕДЛЫМ И КОЧЕВЫМ НАСЕЛЕНИЕМ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация

В данной статье анализируются и описываются торговые отношения между оседлым населением Ферганской долины и скотоводческими этносами в конце XIX - начале XX века. В частности, показано ускорение интеграционных процессов в результате взаимных этнохозяйственных связей узбекских, таджикских, уйгурских, кыргызских и каракалпакских этносов. Приводятся сведения об особенностях рынков долины, способе и характере торговых связей в виде обмена товаров.

Ключевые слова: Торговля, ярмарка, товар, рынки, натуральное хозяйство, этнос, оседлое население, кочевники.

TRADE RELATIONS BETWEEN SEDIMENTARY AND NOMADIC POPULATIONS AT THE END OF THE XIX TH - BEGINNING OF THE XX TH CENTURIES (USING THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY)

Аннотация

This article analyzes and describes trade relations between the settled population of the Fergana Valley and pastoral ethnic groups at the end of the XIX th - beginning of the XX th century. In particular, the acceleration of integration processes as a result of mutual ethno-economic ties between Uzbek, Tajik, Uyghur, Kyrgyz and Karakalpak ethnic groups is shown. Information is provided about the characteristics of the valley's markets, the method and nature of trade relations in the form of exchange of goods.

Key words: Trade, fair, goods, markets, subsistence farming, ethnicity, settled population, nomads.

Kirish. Farg'ona vodiysi qadimdan ko'plab etnik jamoalar istiqomat qilib kelgan polietnik hudud hisoblanadi. Ushbu hududda mahalliy o'zbek, tojik, uyg'ur xalqlari bilan birga tarixning turli davrlarida, turli sabablar bilan ko'chib kelgan qirg'iz, qipchoq, qoraqalpoq, qozoq kabi chorvador aholi ham istiqomat qilib keladi. Shuningdek, XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida kam sonli bo'lsa-da, ayrim kichik guruhli rus, tatar, afg'on, fors, yaxudiy kabi millatlar ham uchrab turgan [1]. Alohida ta'kidlash joiz-ki, o'tgan asrlar davomida bir xonlik tarkibida bir necha urug'lar, millatlar va elatlar birgalikda yonma-yon yashab kelganlar. Turli til va lahjalarida so'zlashuvchi mazkur etnoslar vodiya kechgan etnoslararo jarayonlarda faol ishtirok etganlar. Tadqiqotchi A.P.Xoroshxin ta'kidlashicha, XIX asr 60 yillarida Qo'qon xonligining umumiy aholisi 2 mln. atrofida bo'lgan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr oxiri – XIX asr boshlarida Farg'ona vodiysi tarixini aks ettiruvchi manba va adabiyotlar talaygina. Ma'lumotlarga ko'ra, birgina Qo'qon xonligi tarixidan guvohlik beruvchi asarlar qirqdan ortiq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga mahalliy mualliflarning bir nechta qo'lyozma asarlari ham asosiy manba sifatida bugungi kunga qadar saqlanib qolingan. Ahamiyatli jihati shundaki, mahalliy tarixchilar asarlari xonlik davriga oid ayrim masalalarni yoritishda Chor Rossiyasi yoki

sovetlar davri adabiyotlaridan farqli ravishda tarixiy haqiqatni kunlik voqealar tavsiloti orqali yoritib borganlar. Shu bilan birga sovet davri adabiyotlari va mahalliy olimlarimizning tadqiqotlari ham ushbu masalani o'rganishda o'zining salmoqli o'rni ega. Maqola mavzusiga oid tadqiqotlar asosan XIX-XX asrlarga tegishli bo'lib, jumladan V.P.Nalivkin, M.Nalivkina, Middendorf, P.Ivanov, S.S.Gubaeva, L.S.Tolstova, hamda mahalliy etnologlardan K.Sh.Shaniyazov, U.S. Abdullaev [3] kabi tadqiqotchilarning ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asr boshlariga kelib ushbu tarixiy-madaniy hudud aholisining etnik tarkibi polietniklik xususiyatini saqlab qolgan edi. Mahalliy aholi hisoblangan o'zbek va tojiklar asosan vodiyni tekislik qismida, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hisoblangan qirg'izlar janubiy-sharqiy va shimoliy-sharqiy hududlarining tog' va tog'oldi qismlarida istiqomat qilib kelganlar.

Hozirgi O'zbekiston hududida qirg'iz diasporasini shakllanishi o'z tarixiga ega. Tarixiy manbalarni guvohlik berishicha qirg'izlar O'zbekiston sharqiy hududlarini xususan, Farg'ona vodiysi chorva yaylovlarini o'zlashtirilishi XVI asrdan boshlangan. XVII va XVIII asrlarda yuz bergan "Qalmaq"lar bosqini ularning katta guruhini o'z turar joylarini tashlab ketishlariga majbur qilgan [4]. Keyinchalik ham

Ettisuv, Avliyo Ota, Talos, Qashg'ar, Oloy va Qorategindan O'zbekistonning turli hududlariga (asosan tog' va tog' oldi hududlariga) qirg'iz urug'larini ko'chib kelishlari kuzatilgan. Ayni paytda Farg'ona viloyati hududi qishloq tumanlarida qirg'izlar 19.404 kishi (3,6%), Namangan viloyatida 14.630 kishi (3,5%) va Andijon viloyatida 42.228 kishi (6,8%) ni tashkil etadi [5].

XVIII asrda yuz bergan migrasiya jarayonlari, xususan, "Qalmiq"larning shiddatli bosqini yana bir chorvador etnos hisoblangan qoraqalpoqlarni ham chetlab o'tmadi. Jung'orlarning (mo'g'ul xonligi) hujumi bilan bog'liq bo'lgan migrasion jarayonlar oxir-oqibatda qoraqalpoq etnik guruhlarini ham Farg'ona vodiysiga ko'chib kelishiga majbur qildi. Natijada, qoraqalpoqlar Sirdaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab, Qo'qondan to Andijongacha bo'lgan hududlarda o'zlarining qator qishloqlarini barpo etganlar.

Qo'qon xonligi savdo munosabatlari haqida maxsus tadqiqotlar olib borgan olim Z.Madraximov bu davrda vodiy qirg'izlari aholining katta qismini tashkil etganligini hamda ular Norin daryosining o'rta oqimidagi bir necha qishloqlarda, shuningdek, Andijon viloyati (Jung'ol, to'g'uz, to'ra), Marg'ilon (Bo'stontepa, toshqo'rg'on), Namangan (Ketmontepa talas) hamda Avliyoota, Qizil O'rda, O'sh, So'x, To'qmoq, Uchqo'rg'on hududlarida istiqomat qilganligini ta'kidlaydi [1]. Hozirgi kunda esa O'zbekiston qirg'izlarining umumiy soni qariyb 300000 kishini tashkil etib ularning asosiy qismi O'zbekistonning Andijon, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida istiqomat qiladilar.

Tahlil va natijalar. Bu davrga oid statistik materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga qarashli Farg'ona viloyati aholisining 52,7% (828080 nafar) o'troq o'zbeklar; 26,3% (433639 nafar) qirg'izlar; 9,8% (153780) yarimko'chmanchi (yarimo'troq) o'zbeklar; 6,6% (103931nafar) tojiklar; 1,7% (25971nafar) qoraqalpoqlar va 2,9% (34561 nafar) boshqa etnik jamoa vakillari bo'lgan. Farg'ona vodiysining bunday etnik tarkibi etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, xususan, savdo-sotiq aloqalarining rivojlanib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Bir hududda turli xo'jalik yurituvchi etnoslarning o'zaro tig'iz etnomadaniy aloqalari natijasida yaqinlashuv jarayonlari XVIII asrning oxirlari XIX asrning boshlaridayoq boshlangan edi. Asosan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdogarchilik shug'ullanuvchi mahalliy o'zbek, tojik va uyg'ur aholisi o'zaro savdo aloqalarini rivojlantira borib chorvador etnoslarga ishlab chiqargan mahsulotlarini sota boshlaganlar. Garchi vodiyning o'troq aholisi uchun sayyor savdo shakli xos bo'lsa-da, ular ko'chmanchi va yarimko'chmanchi xalqlar bilan ham qizg'in savdo aloqalarini bog'laganlar. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerak-ki, tovar-pul munosabatlari ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hisoblangan qirg'iz va boshqa chorvador xalqlarda yaxshi rivojlanmagan.

Uzoq yillik tarixiy taraqqiyot jarayoni shuni ko'rsatadi-ki, ayirboshlash kishilik jamiyati rivojlanishida ijtimoiy mehnat taqsimoti, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan qabila va jamoalarning bir-biridan ajralishi tufayli sodir bo'ldi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar o'sib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadigan jamoalarda tayyorlangan mahsulotlar ularning o'z ehtiyojlaridan ortib qolishi natijasida boshqa bir jamoalarda o'zlari ishlab chiqara olmaydigan buyumlarga ehtiyoj o'sa boshladi. Shu davrda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotini ayirboshlash vujudga keldi.

Ayirboshlash – jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha ma'lum bir o'lcham (masalan, qiymat miqdori) asosida o'zaro almashish jarayoni hisoblanadi. Mehnat taqsimoti natijasida ayrim guruh kishilar tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab

chiqarish va etkazib berishga ixtisoslashadilar. Har bir tovar turini ishlab chiqaruvchi o'z tovarini sotib, o'ziga kerakli bo'lgan boshqa tovar yoki xizmatlarni sotib oladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyoda jumladan, Farg'ona vodiysida ham o'troq va chorvador xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari XIX asrlarda o'z ahamiyatini saqlab qolgan edi. Zero, ayirboshlash degan iqtisodiy tushuncha hozirgi kunga qadar barcha davlatlarning savdo munosabatlarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan kategoriyadir.

Albatta, mazkur holatni dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq hamda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarning o'ziga xos xo'jalik yuritishi usuli bilan izohlash mumkin. Shu sababli o'troq va chorvador etnoslar o'rtasidagi o'zaro savdo munosabatlari ayirboshlash shaklida amalga oshirilganligi tabiiy holat sifatida qarash mumkin.

Ta'kidlash joiz-ki, vodiyning polietnik xususiyati, aholining ko'pligi, zichligi hamda g'uj (tarqoq emas) joylashuvi bu hududda etnoslararo jarayonlarning xususan, savdo-sotiq munosabatlarini ham qizg'in rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mahalliy savdogarlar tomonidan qirg'iz ovullariga keltirilgan turli mahsulotlar tovar ayirboshlash yo'li bilan qirg'izlarning chorva hayvonlari va ulardan olinadigan chorva mahsulotlariga almashtirilgan. Jumladan, chorva mahsulotlari hisoblangan go'sht, teri, jun hamda qirg'izlarning chorva quylari mol ayirboshlashning muhim ekvivalent birligi sifatida qabul qilingan.

Farg'onalik savdogarlar, markaziy shaharlar hisoblangan Toshkent, Xo'jand, Qo'qon, Andijon va boshqa shu kabi yirik shaharlardan qirg'iz ovullariga asosan, ip-gazlama (mato), uy-ro'zg'or anjomlari, quruq meva hamda tamaki mahsulotlari kabi kundalik ehtiyoj mollari olib kelganlar. Shoyi va nimshoyi hamda qimmatbaho taqinchoqlar alohida qadrlangan va xaridorgir bo'lgan. Xatto ayrim mahsulotlar qirg'iz yoki boshqa chorvador xalqlarga mansub boylarning maxsus buyurtmasi bo'yicha keltirilgan.

O'zaro savdo munosabatlarida Namangan, Marg'ilon va Andijon hududlari savdogarlari etakchilik qilgan. Vaqtlari o'tishi bilan qirg'izlar asta-sekin savdo munosabatlariga kirisha boshlaydilar va endi o'zlari o'troq aholi bozorlariga kelib savdo-sotiq ishlarini amalga oshira boshlaydilar. Yillar davomida davom etib kelayotgan tovar-pul munosabatlari o'zaro etnoxo'jalik va integrasiya jarayonlarini jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi. Endilikda qirg'iz chorvadorlari mahalliy aholi bilan kelishuv asosida ularning chorva hayvonlarini boqib berishi shuningdek, Qo'qonlik savdogarlardan qarz evaziga mahsulotlarini olib turishga erishdilar. Bu tartibdagi munosabatlar natijasida ovullarga tez-tez kelib turadigan savdogarlarni qirg'izlar "o'zlariniki" deb bilganlar [1].

Qirg'iz urug' boshliqlari "Manop"lar deyilib, ular Qo'qonlik savdogarlar va qirg'izlar o'rtasidagi savdo munosabatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Manoplar savdogarlar va chorvador qirg'izlar munosabatlariga vositachilik qilishdan manfaatdor bo'lib, savdogarlar keltirgan asl mollarni ularga arzon narxda bergan va shuningdek, "tortiq" qilish usulidan ham foydalanganlar. Qo'qon xonligi davrining oxirlaridayoq vodiya etishtirilayotgan don mahsulotlari ichida jo'xori etishtirishga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, bozorga olib chiqilayotgan don mahsulotlarining asosiy qismini jo'xori tashkil qilgan. Boshqoli ekinning ushbu turi nafaqat o'troq aholi, balki yarimo'troq (yarimko'chmanchi) aholi tomonidan ham asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida xarid qilinar edi. V.Nalivkinning ma'lumotlariga ko'ra, qirg'izlar kuz va qish oylarida Namangan bozorlaridan ko'plab jo'xori sotib olganliklarini qayd etadi [6].

Andijonga yaqin bo'lgan Aravon qishlog'i o'zbek-qirg'iz savdo munosabatlarida muhim iqtisodiy markaz vazifasini bajaradi. Chunki bu joyda atrofda barcha qirg'iz ovullaridan savdogarlar kelib, qo'y, mol, echki, tuya, ot, jun, oshlanmagan teri va ulardan tayyorlangan ko'plab buyumlar jumladan, to'qimachilik kigiz, gilam, ko'mir, turli tog' jinslari va boshqa turli mahsulotlar olib kelib ayriboshlagan. Mahalliy o'troq aholidan esa ular o'z ehtiyojlari uchun ip-gazlama va oziq-ovqat, shuningdek, xo'jaligida ishlab chiqarilmaydigan mollarni xarid qilganlar.

Tadqiqotchilarning asarlarida, shuningdek arxiv hujjatlari hamda Qo'qon xonligi davri savdo munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlarda ayrim faktik materiallar keltirilgan. Jumladan V.G.Moshkovaning tadqiqotlarida vodiy qirg'izlari tomonidan tayyorlangan "Akchachak" nomli gilam Andijon bozorlarida ancha xaridorgir bo'lganligini qayd etadi. Aytishlaricha, "Akchachak" gilami Andijon bozorlarida ko'plab miqdorda sotilgan [7]. Ma'lumotlarda Qo'qon xoni buyurtmasi bilan qirg'iz chorvadorlaridan saroy va o'rda uchun gilam hamda go'sht mahsulotlari keltirib turilgan.

XIX asr oxiriga kelib qirg'izlar orasida pul-tovar munosabatlari taraqqiy etib bordi. Bu esa shunga olib keldiki, janubiy qirg'izlar savdo-sotiq qilish maqsadida Farg'ona qishloq va shaharlaridagi bozorlarga ko'proq keladigan bo'ldilar. A.F.Middendorf qirg'iz va o'zbeklar orasidagi xo'jalik munosabatlariga to'xtalar ekan, shunday yozadi: "... barcha qora-qirg'izlar Marg'ilon uezdining o'troq o'zbeklar bilan mustahkam aloqada yashaydilar. Boz ustiga, ular Quva, Uchqo'rg'on, Marg'ilon bozorlariga intiladilar" [8].

XIX asrning birinchi yarmida qirg'iz ovullariga yaqin joylashgan bozorlardagi savdo munosabatlarida savdoning mol ayriboshlash usuliga amal qilingan bo'lsa, o'troq aholi yashaydigan qishloqlar yaqinidagi bozorlarda pul ko'proq ahamiyat kasb etgan. Aynan janubiy qirg'izlar Farg'ona vodiysining o'troq aholisi ta'siri ostida tovar-pul munosabatlariga ko'proq tortila borganlar. Natijada, ular o'z mollarining kattagina qismini pulga sota boshlaganlar. Bunda ular dastavval Qo'qon xonligida zarb qilingan kumush tangalar, mis chaqalar, keyinroq esa rus pullaridan foydalanganlar.

Qoraqalpoqlar xo'jaligi ham ushbu davrga kelib tovar-pul munosabatlariga asoslanib rivojlanmoqda edi. Shu bois, endilikda ular bozorlardan ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir qatorda o'zlarida ishlab chiqarilmaydigan yoki nisbatan kam ishlab chiqariladigan mahsulotlarni chunonchi, oyoq kiyimlari, zeb-ziynatlar, metall va ganchdan yasalgan buyumlarni mahalliy o'zbeklardan sotib olganlar. O'z o'rnida qoraqalpoqlar bozorlarda eng avvalo, chorvachilik hamda uy sharoitida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlaridan bo'yra, chiy, namat va

savatlar dehqonchilikda poliz ekinlaridan – qovun va oshqovoq bilan savdo qilar edilar.

Bundan tashqari, Farg'ona bozorlaridan qoraqalpoqlar tomonidan tayyorlangan turli xildagi gilam, olacha va kigizlarni ham sotib olish mumkin edi. Qoraqalpoqlar bozorlarda qozoqlar bilan o'zbeklar o'rtasidagi savdoda tilmochlik qilishardi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi bozorlarida qipchoqlar tomonidan ham uy sharoitida tayyorlangan bir necha xildagi jun va ip-gazlama mahsulotlari, xususan, bo'g'joma, xurjun, qop-arqon va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari, chakmon va shalvar kabi kiyimlar hamda ozroq miqdorda gilam va kigizlar sotilgan [9].

Biroq, shuni ta'kidlash kerakki qoraqalpoqlar ichida savdogarlikni alohida kasbga aylantirganlar juda ozchilikni tashkil qilar edi. Masalan, XIX asr oxirlariga oid statistik materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida yashayotgan 11056 nafar qoraqalpoqlarning atigi 133 nafari yoki faqat 1 foizigina savdo-sotiq bilan shug'ullangan [10]. Mavjud qoraqalpoq savdogarlarning aksariyati mayda savdogarchilik bilan shug'ullanar, faqat nisbatan boy daromadga ega bo'lgan qoraqalpoq vakillari rus paxta tayyorlovchi firmalari bilan vositachilik qilib, yirik kapitalga egalik qilgan. Ayrimlari esa vodiy hududiga uzoq yaylovlardan haydab kelingan qo'ylarni ko'p miqdorda sotishdan katta daromad olganlar [11].

S.S.Gubaevaning ma'lumotlariga ko'ra, 1907 yilda Farg'ona vodiysida hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan 20,95 % aholining aksariyatini shahar aholisi tashkil etgan [12]. Aytish joizki, vodiyni boshqa hududlariga nisbatan shaharlarda aholining zich joylashganligi dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini rivojlanish imkonini cheklagan. Shu sababli shahar aholisining aksariyati katta miqdordagi er joy talab qilmaydigan hunarmandchilik va savdo tarmoqlari bilan shug'ullanganlar.

Xulosa va takliflar. Xullas, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, azaldan ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan qirg'izlar yillar davomida o'zlarining xo'jalik yuritish xususiyatlarini saqlab keldilar. XIX – XX asr boshlarida ularning chorvachilik xo'jaligida an'anaviy jihatlar ustuvor bo'lsa, keyingi davrlarda bu sohada yuz bergan transformatsiya jarayonlari natijasida ularning xo'jaligida ayrim o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu esa, ularni o'troqlashib dehqonchilik mashg'ulotiga o'tishi bilan bog'liq holda yuz berdi. Ushbu o'zaro etnomadaniy aloqalar Farg'ona vodiysi va unga tutash hududlardagi qirg'izlarning barcha guruhlari uchun xos jarayondir.

Albatta, chorvadorlar doimo o'troq aholi tomonidan ishlab chiqilgan dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlariga ehtiyojmand bo'lgan, ayni vaqtda ularning o'zlari ham o'troq aholi yashaydigan vohalarni go'sht, teri va jun singari chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlab turgan.

ADABIYOTLAR

1. Мадрахимов З.. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. Т. 2014.
2. Хорошхин А. П. Заметки о Кокане//Туркестанский сборник. Том 23. 1870.
3. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщин туземного оседлого населения Ферганской долины. –Казань, 1886; Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казан, 1886; Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882; Иванов П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – сер. XIX в.) М., 1958; Губаева С.С. Ферганская долина: этнические процессы на рубеже XIX-XX вв. М., 2012; Толстова Л. С. Каракалпаки Ферганской долины (историко-этнографический очерк) - Нукус 1959; Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. Т., "Фан" 1974; Абдуллаев У.С. Ўзбекистон тарихидаги этнонимлар ва этносиёсий жараёнлар. Андижон., 2021.
4. Иванов П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – сер. XIX в.) М., 1958.
5. Рахматиллаев Х. Фарғона водийси аҳолисининг этнодинамикаси (XIX аср охири - XX охири). – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – Б. 4.
6. Наливкин В. Киргизы Наманганского уезде//Туркестанские ведомости. 1881. - № 20
7. Мошкова В. Г. Ковры народов Средней Азии. - Т., 1970. - С. 23 – 25
8. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. СПб., 1882.

9. Гребенкин А.Д. Узбеки // Русский Туркестан.- Вып II.-М., 1972; Шаниязов К.Ш. Кипчаки в узбекской этнической среде в дооктябрьский период. (Процессы интеграции) // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана.- М., 1980.- 279 с.
10. Первая всеобщая перепись население Российской империи 1897. – СПб., 1897. Таб. XIX. – С. 122–123.
11. Нурмухамедов М. К., Жданко Т. А., Камолов С. К. Каракалпаки (краткий очерк истории с древнейших времён до наших дней) Ташкент. 1971.
12. Губаева С.С. Основные направления этнических процессов в Ферганской долине в конце XIX – начале XX в. (К проблеме поздних этапов этнической истории Средней Азии). – Тарих фан. Докт. дисс. автореферати. – М., 1992



UDK:792 (091)

Sarvar AXMEDOV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktranti
E-mail: sardorahmedov437@gmail.com

QarsMII dotsenti, PhD A.Eralov taqrizi asosida

O'ZBEKISTON ILM-FAN RIVOJIDA FANLAR AKADEMIYASINING O'RNI

Аннотация

Mazkur maqoda XX asrda O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilish tarixi, faoliyati shuningdek, akademiya tarkibida faoliyat olib boradigan institutlarning ilm sohasidagi faoliyatlari bayon etilgan. Fanlar akademiyasining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan xissasi hamda ilm-fan sohasida tashkil etilgan ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar faoliyati ilmiy manablar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fanlar akademiyasi, xalqaro ilm-fan aloqalari, Prezidiumi, fan doktori, fan nomzodi xalqaro simpoziumlar, xalqaro konferensiyalar, fizika-texnika instituti.

РОЛЬ АКАДЕМИИ НАУК В РАЗВИТИИ НАУКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье описывается история создания, деятельность Академии наук Узбекистана в XX веке, а также деятельность в области науки институтов, действующих в составе Академии. Вклад академии наук в развитие науки и деятельность научных конференций, симпозиумов, организованных в области науки, освещаются научными источниками.

Ключевые слова: Академия наук, международные научные связи, президиум, доктор наук, кандидат наук международные симпозиумы, международные конференции, физико-технический институт.

THE ROLE OF THE ACADEMY OF SCIENCES IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN UZBEKISTAN

Annotation

This article describes the history of the establishment and activities of the Academy of Sciences of Uzbekistan in the 20th century, as well as the scientific activities of the institutes operating within the academy. The contribution of the Academy of Sciences to the development of science and the activities of scientific conferences and symposiums organized in the field of science are covered through scientific sources.

Key words: Academy of Sciences, international scientific relations, Presidium, Doctor of Science, Candidate of Science, international symposia, international conferences, Institute of Physics and Technology.

Kirish. Ilm-fan – har qanday davlatni taraqqiyotga yetaklovchi asosiy kuch – drayver hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash o'rindir. O'zbekiston uchun ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Konstitutsiyada davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi bejiz qayd etilmagan. Azaldan o'zbek jamiyatida ilmg'a hurmat va ehtirom ko'rsatish qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy aytganlaridek, "dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay".

Fandagi qilingan yoki qilinayotgan kashfiyotning sirini yaxshiroq tushunish uchun fan tarkibi, fan taraqqiyotining umumiy konuniyatlarini kuzatish katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har qanday fanning shakllanishi ilmiy material – faktlarning toplanishidan boshlanadi. To'plangan bilimlar o'rtasidagi haqiqiy faktlar sharhlanib, ularni tartibga solish mumkin bo'lgan taqdirdagina fan vujudga kela oladi. Buyuk olim I. P. Pavlov aytganidek, fan uchun fakt havodek zarur. Fan bilish jarayonining hamma bosqichlari, shakllari, mantiqiy usullarini o'z ichiga olgan xolda vujudga keladi va rivojlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida, tadqiqot metodologiyasi sifatida birinchi navbatda tarixiylik, xolislik, uzviylik, ketma-ketlik va qiyosiy taqqoslash kabi metodologiyadan foydalanilgan holda, O'zbekiston Fanlar akademiyasi faoliyat tarixiga nazar tashlandi. Ilmiy maqolani tayyorlashda tarixchi olimlar M.

Abrarov, O'. Haydarovlarning asarlaridan va boshqa sovet davri olimlarining tadqiqotlaridan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivining 1-fondida saqlanayotgan manbalardan va boshqa adabiyotlardan foydalanilgan. Shuningdek, "Toshkent haqiqat" gazetasi, "Fan va turmush" jurnali, "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnali, "O'zbekiston kommunisti" gazetasi, "Mehnat va turmush" kabi davriy nashrlardan ilmiy maqolani yoritishda foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrning 30-yillaridan boshlab, O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish, bu muassasalar ishiga rahbarlik qiluvchi yagona markaz barpo qilish masalasi kun tartibiga qo'yildi. 1932-yil oktabrda O'zbekiston ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari Fanlar qo'mitasi tashkil etdi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda Fanlar qo'mitasining roli katta bo'ldi[1].

Tarixiy manbalarga ko'ra, O'zbekiston Fanlar akademiyasining ochilishiga tayyorgarlik ishlari XX asrning 30-yillari boshlariga to'g'ri kelgan. Chunonchi, 1932-yilning 19-dekabridan 28-dekabrigacha Leningradda O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan ko'plab taniqli olimlar ishtirokida, Cobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining ishlab chiqaruvchi kuchlarini o'rganish Kengashi bilan birgalikda O'zbekistonning ishlab chiqaruvchi kuchlarini o'rganish bo'yicha konferensiya bo'lib o'tdi[2]. Anjuman davomida umumiy hisobda 80 ta ma'ruza taqdim qilingan. 40 ta ma'ruza Fanlar akademiyasi a'zolari va ular taklif etgan yetakchi ilmiy xodimlar tomonidan o'qilgan bo'lsa, qolgan 40 ta ma'ruza esa

O'zbekiston hukumati vakillari hamda turli ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari tomonidan taqdim etilgan[3].

1932-yil boshlariga kelib, O'zbekistonda 50 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasasi, jumladan, o'simlikshunoslik muammolari bilan 9 ta, chorvachilik bilan 9 ta, tibbiyot bilan 11 ta, sanoat bilan 4 ta, geofizika bilan 6 ta va madaniy qurilish muammolari bilan shug'ullanuvchi 13 ta ilmiy tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelgan. 1932-yil 11-oktabrda Fanlar akademiyasini tashkil etish yo'lidagi navbatdagi muhim qadam – nazariy bilimlarning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi va ilmiy tadqiqot tafakkurini har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashuvchi respublikaning oliy ilmiy markazi sifatida O'zbekiston ilmiy tadqiqot muassasalarining ushbu keng tarmog'ini boshqarish bo'yicha Respublika qo'mitasi (qisqacha – Fanlar qo'mitasi)ning tashkil etilishi bo'ldi[4].

Tahlil va natijalar. Ikkinchi jahon urush eng avjiga chiqqan payt, 1943-yil 27 sentabrda SSSR Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan "SSSR Fanlar akademiyasining Toshkentdagi O'zbekiston filialini O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi etib qayta tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan hamda SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi va O'zSSR Xalq Komissarlari Kengashiga "O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi"ni tashkil etish bo'yicha barcha tayyorgarlik ishlarini olib borish topshirig'i berilgan. Bu yangilik o'sha davrning respublika ilm-fani uchun e'tiborli va alohida ahamiyatga ega voqea edi.

Ko'p o'tmay, 1943-yil 4 noyabrda ushbu qarorni amalga oshirish bo'yicha asosiy tadbir – Toshkentda O'zbekiston Fanlar akademiyasining ochilish marosimi tashkil etildi. Ushbu yig'ilish ishtirokchilari quyidagilarni ta'kidladi: "Olimlarga, hatto urushning og'ir yillarida ham birlamchi xalq xo'jaligining ahamiyatga ega bo'lgan muammolari ustida samarali ish olib borish uchun sharoitlar yaratilgan", "...o'zbek xalqining madaniyati", "...o'zbek xalqi uchun muhim imkoniyatlarga ega bo'ldi"[5]. Mazkur davrda O'zbekiston Fanlar akademiyasida 19 ta ilmiy tadqiqot instituti va 28 ta ilmiy stansiya faoliyat olib borgan.

1943-yilda akademiyada 10 ta ilmiy muassasa birlashtirilgan, bularda 210 nafar ilmiy xodim, shu jumladan, 28 nafar fan doktori va 48 nafar fan nomzodi faoliyat olib borgan[6]. Botanika va zoologiya, Tuproqshunoslik va geobotanika, Fizika-texnika, Geologiya, Energetika va avtomatika, Kimyo ilmiy muassasalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibiga kiritilgan[7].

1944-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida Matematika va mexanika instituti hamda Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti tashkil etildi. O'sha vaqtda Fanlar akademiyasida 210 nafar tadqiqotchi, shu jumladan, 28 nafar fan doktori va 57 nafar fan nomzodi faoliyat olib borgan[8].

1957-yilda Fanlar akademiyasi tarkibida faoliyat olib borgan ilmiy muassasalar soni 27 taga, 1963-yili esa 36 taga yetdi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sobiq Sovet Ittifoqidagi yirik ilmiy markazlardan biri bo'lgan. Unda 35 ta ilmiy tadqiqot muassasasi, jumladan, 31 ta institut, shuningdek, bir qancha yordamchi tashkilot hamda tajriba markazlari, Qoraqalpog'iston filiali birlashgan[9].

Ilm-fan yo'nalishidagi muhim o'zgarishlardan biri, 1960-yil dekabr oyida O'zbekiston Fanlar akademiyasi yosh olimlarining X ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tganligidadir. Mazkur yil 27-dekabr kuni bo'lib o'tgan yalpi majlisni O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.V.Starodubseva kirish so'zi bilan ochib bergan. 28-dekabr kuni konferensiyaning 20 bo'limidan, shu jumladan, gumanitar fanlarning 6 bo'limidan iborat uchrashuvlar o'tkazildi. Seksialar yig'ilishlarida Respublika Fanlar akademiyasining 320 dan ortiq yosh olim, shu jumladan,

ijtimoiy Fanlar kafedrasining 100 dan ortiq tadqiqotchi va aspiranti so'zga chiqdi[10].

1960-yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tuproqshunoslik instituti muammoli-mavzuli ish rejasini tayyorladi[11]. Tabiiyki, institut mutaxassislari milliy iqtisodiy muhitning muhim mavzularini, jumladan, O'zbekiston tuproqlari, kulrang tuproqlarning genezisi, strukturaning shakllanishi, irrigatsiya eroziyasi, och dashtning sho'rlangan yerlarini o'zlashtirish kabi mavzularni ishlab chiqdi.

Shuningdek, Tuproqshunoslik instituti yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlarini olib bordi. 1960-yilda institutda 42 nafar tadqiqotchidan 18 nafar fan doktori va fan nomzodi bo'lgan, ular tadqiqotchilar umumiy sonining 43 foizini tashkil qilgan. Bundan tashqari, yana 7 nafar tadqiqotchi 1960-yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishga tayyorlandi, bu fan doktorlari va nomzodlarining umumiy foizini 59 foizga oshirdi[12].

1967-yil akademiya tarkibida 30 ta ilmiy tadqiqot instituti faoliyat olib borgan. Bu ilmiy muassasalarda 3 ming nafar olim, shu jumladan, 107 nafar fan doktori va 800 dan ortiq fan nomzodi tadqiqot ishlari bilan shug'ullangan[13].

Bu davrda 1,3 millionga yaqin ilmiy xodim faoliyat olib borgan. Bu 1913-yildagidan 108 baravar ko'pdir. O'zbek ilm-fani ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini o'rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. U matematika va mexanika, kvant elektronikasi va qattiq jism fizikasi, yadro energetikasi, kimyo va biologiyaning bir qancha yo'nalishlari, kosmik tadqiqotlar va Yer haqidagi fanlar, bilimning boshqa ko'pgina sohalarida eng oldingi maralarga chiqib oldi[14].

Ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishida Fanlar akademiyasi muhim o'rin tutgan. Masalan, to'plangan faktik materiallar shuni ko'rsatdiki, 1971-1975 yillar davomida Fanlar akademiyasining olimlari olib borgan 308 ta tadqiqot natijasi xalq xo'jaligiga joriy qilindi va buning evaziga olingan iqtisodiy foyda 1 milliard 40 million so'mni tashkil qildi. Ushbu tadqiqotlar diapozoni naqadar keng ekanini quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin: qishloq xo'jaligiga 44 ta metallurgiya sanoatiga 27, qurilishga 36, geologiyaga 39, kimyo, neftni qayta ishlash, tibbiyot va yengil sanoatga 11, energetikaga 8, transportning turli sohalariga 8, go'sht-sut sanoatiga 4, ilmiy-tadqiqot muassasalariga 76 ta taklif taqdim etildi[15].

1972-yil 25-fevralda O'zbekiston Fanlar akademiyasining yillik umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Fanlar akademiyasining 1971-yildagi ilmiy va ilmiy-tashkiliy faoliyati va 1972-yilga mo'ljallangan muammoli-mavzuviy rejasi to'g'risida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi a'zosi M.Z.Xamudxonov ma'ruza qildi. Uning so'zlariga ko'ra, 1971-yilda Fanlar akademiyasining 31 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi va 7 ta bo'lim tadqiqotchisi fanning turli sohalarida 400 dan ortiq mavzu ustida ish olib bordi[16].

1977-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tasarrufida 28 ta ilmiy institut va tashkilot faoliyat yuritib, ularda 9113 nafar olim ishlagan. Ular orasida 3272 nafar ilmiy xodim, 103 ta akademik va muxbir a'zo, 118 ta fan doktori hamda 1142 ta fan nomzodi bo'lgan. Bu olimlar asosan respublika xalq xo'jaligi, iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishga doir dolzarb masalalarni hal etishga bag'ishlangan tadqiqotlar bilan shug'ullangan[17].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asrning 60-80 yillarda O'zbekiston ilmiy salohiyati yildan-yilga o'sib bordi. Masalan, O'zbekistonda fan doktorlari 1965-yilda 314 nafar, 1970-yilda 479 nafar, 1975-yilda 745 nafar, 1980-yilda 938 nafarni tashkil etgan bo'lsa, fan nomzodlari esa 1965-yilda 3879 nafar, 1970-yilda 6907 nafar, 1975-yilda 10505 nafar, 1980-yilda 12992 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zolari soni esa

1965-yilda 73 nafar, 1970-yilda 102 nafar, 1975-yilda 96 nafar, 1980-yilda 108 nafarni tashkil etgan[18].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, XX asrning 30-yillarida tamal toshi qo'yilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi ilm-fan sohasini rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Akademiya institutlarida tashkil etilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Shuningdek, XX asrning 70-80 yillarda O'zbekistonda hayotning xilma-xil

sohalariga taalluqli murakkab ilmiy muammolar hal qilindi. Bu davrda O'zbekiston Fanlar akademiyasi, respublikadagi o'nlab ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlari turli yo'nalishlarda intensiv tadqiqot ishlari olib bordi. Bu ishlarda 32 ming nafar ilmiy va ilmiy-pedagogika xodimi, shu jumladan, 800 dan ortiq fan doktori va 11 ming fan nomzodi faol ishtirok etdi.

ADABIYOTLAR

1. To'raqulov Y. Fan cho'qqilari sari // Toshkent haqiqati, 1963 yil, 10 noyabr.
2. Bahodirov G'. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yilligiga // Fan va turmush. 2023. №3. –B.4.
3. Fan va turmush, 1977, № 6, bet 3.
4. Bahodirov G'. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yilligiga // Fan va turmush. 2023.№3. –B.5.
5. Bahodirov G'. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yilligiga // Fan va turmush. 2023.№3. –B.6.
6. "O'zbekiston madaniyati", 1967 yil, 17-avgust
7. Sodiqov O. Fanimizning charog'on yo'li. Fan va turmush, 1983, № 11. –B.4.
8. Bahodirov G'. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yilligiga // Fan va turmush. 2023.№3. –B.7.
9. Bahodirov G'. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yilligiga // Fan va turmush. 2023.№3. –B.4.
10. Abrarov M. O'zbekiston SSR fanlar akademiyasining yosh olimlari konferensiyasi. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1972. №. 5. –B.74.
11. O'z. FA. MA 1-fond, 1-ro'yhat, 951-ish, 158-varaq.
12. O'z. FA. MA 1-fond, 1-ro'yhat, 951-ish, 161-varaq.
13. "O'zbekiston madaniyati", 1967 yil, 17-avgust
14. Sodiqov O. Bevosita ishlab chiqaruvchi kuch // O'zbekiston kommunisti.1977. №2. –B.77.
15. Sodiqov O. Bevosita ishlab chiqaruvchi kuch // O'zbekiston kommunisti.1977. №2. –B.79.
16. Mirxasilov C., Konopoe B. O'zbekiston CCR fanlar akademiyasining yillik yig'ilishlari. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1972. №. 5. –B.77.
17. Sodiqov O. Fan cho'qillariga hujum // Mehnat va turmush. 1970, № 4, bet 6.
18. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1983. №. 2. –B.14.



UDK:39:908 (575.295)

Shoxida JUMAYEVA,

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi, PhD

E-mail: shoxida.jumayeva@mail.ru

Renaissance university dotsenti., DSc U.Ergashev taqrizi asosida

SURXON VOHASIDA CHORVACHILIK AN'ANALARI

Аннотация

Maqolada Surxon vohasidagi chorvachilik bilan shug'ullangan aholining an'analari va chorvachilik turlari haqida ilmiy manbalar va dala tadqiqotlari asosida ma'lumotlar taqdim etilgan. Ushbu tadqiqotlar regionning chorvachilik salohiyati, mahsulotlar, shuningdek, chorvachilikning uzluksiz rivojlanishi va zamonaviy shart-sharoitdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Chorvachilik, qo'ychilik, qorako'lchilik, tuyalar, otchilik.

ТРАДИЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация

В статье представлены сведения, основанные на научных источниках и полевых исследованиях, о традициях и видах животноводства народов, занимающихся скотоводством в Сурханском оазисе. Селю данных исследований является выявление животноводческого потенциала региона, продукции, а также перспектив развития животноводства и его значения в современных условиях.

Ключевые слова: Скотоводство, овсєводство, каракулеводство, верблюды, конєводство.

LIVESTOCK TRADITIONS IN THE SURKHAN OASIS

Annotation

The article presents information on the traditions and types of livestock breeding of the Surkhan oasis population based on scientific sources and field research. These studies are aimed at identifying the region's livestock breeding potential, products, as well as the continuous development of livestock breeding and its significance in modern conditions.

Keywords: Livestock, sheep, karakul, camels, horse breeding.

Kirish. O'zbeklar qadimdan chorvachilik bilan shug'ullangan. Ushbu kasb o'zining muhim ahamiyati bilan xalqning kundalik hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. Har bir aholi turli shart-sharoitlarga mos ravishda chorvachilikka ishlov bergan, masalan, o'troq aholi va yarim o'troq aholi orasida har xil chorva xo'jaliklari mavjud bo'lgan. Cho'ponlik kasbi esa xalq orasida katta hurmatga ega bo'lgan, chunki u juda qadrli va o'ziga xos kasb hisoblanadi. Afsonalar va rivoyatlar orqali bu kasbning muhimligi yanada namoyon bo'ladi, masalan, qo'y jannatdan keltirilgan degan rivoyatlar xalq orasida keng tarqalgan. Cho'ponlik kasbi nafaqat mutaxassislik, balki u Xudoning marhamati sifatida qabul qilinib, cho'ponga hurmat bilan munosabatda bo'lishgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Surxon vohasida chorvachilik an'analari bir qator mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Termiz davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori S.Tursunov, T.Pardayev tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi" [1] nomli kitobda ushbu masala bo'yicha bir qator qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, A.Tursunov [2], M.Tog'ayeva [2] kabi mahalliy tadqiqotchilar ham Surxon vohasida chorvachilik rivoji borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Surxon vohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, chorvadorlar tabiatning qonunlariga chuqur e'tiqod bilan qarashganligi aniqlangan. Ular tabiat va undan olingan rizq-nasibani izchil tarzda kuzatib, o'z hayotini unga moslashtirishgan. Cho'ponlar yangi yilni 16-martda, Navro'z bayrami bilan boshlab, bu kundan boshlab yerning isishi, o'simliklarning ko'karishi va molning ro'ziq-nasibasining mo'l bo'lishiga intilishgan. Navro'zning boshlanishi bilan, ayniqsa, Sherobod, Muzrobot, Angor, Jarqo'rg'on, Sho'rchi,

Denov, Bandixon kabi chorva yaylovlarida Navro'z chumchuqi paydo bo'lishi cho'ponlarning xurmatga ega bo'lgan belgilaridan biri sanalgan. «Navro'z chumchuq»ning paydo bo'lishi chorva ishi uchun muhim edi, chunki uning rangidan keyingi yog'ingarchilik holatini bilishgan. Agar chumchuq oq rangda bo'lsa, yog'ingarchilik kam bo'lishi, agar sariq rangda bo'lsa, yomg'irning ko'p bo'lishini taxmin qilishgan. Bu e'tiqodlar orqali cho'ponlar tabiat bilan o'zaro munosabatda bo'lib, mollarning taraddudini o'sha tabiatning alomatlariga asoslangan holda baholashgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Surxon vohasida chorvachilik taraqqiyotiga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Sariq, Xotirobod, Sherobod, Angor va Bobotog' cho'l-adirlari hamda tog' oldi cho'ponlari, qadimiy urf-odatlariga qat'iy amal qilib, chorshanba va shanba kunlari ko'chishni tashkil etgan va bu kunlardan unumli foydalanishgan. Juma kun esa, musulmonlar uchun dam olish kuni sifatida qabul qilingani uchun, xosiyatsiz kun deb hisoblanib, ko'chish amalga oshirilmagan. Bu kun, nafaqat insonlar, balki barcha jonzorlar uchun dam olish kuni deb tushunilgan. Surxon chorvadorlari yaylov va mol-hayvonlarning sog'lom bo'lishi uchun maxsus qurbonliklar qilishgan. Chorva piri Cho'pon otaga sig'inib, qo'y piri Cho'ponota, qoramol piri Zangota, ot piri Qambarota va echki piri Chig'atotaga ham sig'inganlar [3]. Ular har bir hayvonning piriga alohida ehtirom ko'rsatib, ularning haqiga qurbonliklar qilishgan. Bu amallar, xalqning e'tiqodi va tabiat bilan uyg'un yashashga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi.

Surxon vohasida qo'yning ikki turi ko'paytirilib, boqilmoqda. Bular qorako'l (qorako'l terisi yetishtiriladigan

qo'ychilik) va dumbali qo'ylar. Surxondaryoda dumbali qo'ylar boqish keng tarqalib, uning quyidagi turlari mavjud: qozoqi, jaydari, (qozoqi va hisori qo'y chatishmasi), hisori. Hisori qo'ylar asosan Denov va Boysun tumanlarida ko'p boqilmoqda.

Denov, Sherobod va Boysun tumanlaridagi tog' oldi hududlarida asosan eng ko'p yog' va go'sht qiladigan hisori qorako'llar boqilib, yoz oylarida tog' zonalariga haydalgan. Bu qo'ylarning juni qiriq, ya'ni dag'al bo'lgan. Sherobod hududida qo'ylarning boshqa turlari boqilib, bu qo'ylar isliqi qoraqo'y (hisori qoraqo'ylarga qaraganda kichikroq, juni ham mayinroq bo'lgan, qozoqi qo'y ham deb atalgan, g'aljaki (Afg'onistondan o'tgan), chuvalang (arabi, qorako'l), ko'rg'o'za (qozoqi va chuvalangdan urchigan) va sarjiparang (Sarjiboy tomonidan yaratilgan) turlarga bo'linadi [4].

Surxon - Sherobod vohasida ota-bobolarimiz asosan hisor qoraqo'y va isliqi qoraqo'ylarni boqishgan bo'lib, bu qo'ylar tana va dumba tuzilishiga qarab xam turli xilda nomlangan. Masalan, kapkirt dumba, oyna dumba, shalpi duma turlariga bo'lingan. Agar kapkirt dumba turi yaxshi boqilsa dumbasining og'irligi 30-35 kg gacha yetgan. Oyna dumbali turi ko'proq tanasiga yog' bog'lagan. Shalpi dumbali turi ham kapkirt dumbali turicha og'irlikda yog' bergan, biroq chorvadorlar bu turdan qo'chqor tanlashmagan. Sababi, shalpi dumbali hisori va isliqi qoraqo'ylar semirgandan keyin uning yurishini dumbasi anchagina qiyinlashtirgan. Shuning uchun cho'ponlar sovuqlarga beli va bo'yni uzun, boshi va tumshug'i cho'zinchoq, kapkirt dumbali qo'chqorlarni tanlashgan va bir qo'chqorni ikki yildan ortiq qo'ymagan. Bunda ota-bobolarimiz ko'p narsalarni hisobga olishgan. Qo'zilayotgan sovliqni azoblamasligi, naslning buzilib, maydalashib ketmasligi, ko'p go'sht va yog' qilishligi hamda yaylovlarda qiynalmay harakat qilishligi kabi jihatlari e'tiborga olingan. Hisori va isliqi qoraqo'ylar Surxon vohasining turli yerlarida iqlim sharoiti va yaylovlardagi o't - o'lanlarning kuchli yoki kuchsizligiga, yoqimli yoki yoqimsizligiga hamda boqilishiga qarab turlicha vaznda bo'lganlar. Masalan, hisori qo'ylar Denov va Sariosiyo hududlarida, Hisor tog' bag'irlarida 180-200 kilogrammgacha, isliqi qoraqo'ylar esa 90-110 kilogrammgacha go'sht-yog' qilgan. Shuning uchun ham otobobolarimiz hisori va isliqi qora qo'ylarni asosan go'shti va yog'i uchun boqishgan [6].

Qorako'l zotli qo'ylarning kelib chiqishi ayniqsa, ularning mintaqasi bo'yicha, bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bor. Qorako'l qo'ylari Arabistondan kelib chiqqan deb fikr yurituvchi ayrim mualliflar O'zbekiston aholisi qora qorako'l qo'ylarining «arabi», kulranglarini – «sherozi» deb aytishi bilan isbotlamoqchi bo'ladilar. Qorako'l terilari qadim zamonlardan beri Buxoro bozoriga O'rta Osiyoning, shu jumladan Surxon vohasining qorako'lchilik tumanlaridan keltirilgan [2].

Qimmatbaho qorako'l teri beradigan chuvalang arabi qo'ylari gavdasi uncha katta bo'lmay, tez harakatlanadi, qo'chqorlari shoxdor, junlari mayin va uzun bo'lib, asosan juni va qorako'l terisi uchun vohaning cho'l va yarim cho'l zonalarida boqilgan. Bu qo'y turining qo'chqori 45-50 kg, sovliqlari 25-30 kilogrammgacha go'sht yog' qilib, ko'proq ichiga charvi bog'lagan. Chuvalang qo'ylar chirozi, gardi, kulrang, payg'ami, qora va sur ranglarda bo'lib, qorako'l (bag'ana) terisi junning jingalakligi, gulining chiroyligi va jozibadorligi bilan ajralib turgan. Chirozi va sur qo'ylarning juni oliy navga ketgan, qorako'l terisi jahon bozorida yuqori narxda baholangan. Eng yaxshi sur yoki chirozit qorako'l terisi 1 ta katta hisori qo'y bahosida narxlangan. Vohada chibalang qo'ylarning ko'k (payg'ami) va kulrang turlari ko'p tarqalgan. Afg'oniston bilan chegaradan Amudaryo qirg'oqlarida ko'rg'o'za qo'y turi boqilgan. Bu qo'ylar chuvalang va isliqi qoraqo'yning chatishidan kelib chiqqan turi bo'lib, 50-60 kg atrofida go'sht - yog' qilgan. Bobotog'

etaklari va adirlarida g'aljaki deb nomlangan qo'y turi ham boqilgan. Bu qo'y turi Afg'onistondan Surxon vohasiga o'tgan qo'y turi hisoblanadi [7].

Surxon-Sherobod vohasi adirliklarida boqilgan qo'y turlaridan yana biri sarjiparangdir. Bu qo'y turi turkman boyi Sarjiboy nomiga qo'yilgan. Sarjiparang qo'yi 50-60 kg atrofida go'sht-yog' qilgan, juni nihoyatda mayin bo'lib, har bir qo'y 2-3 kggacha jun bergan. Amudaryoning Oq deb atalgan adirlarida Oqgardi deb nomlangan turkman qo'ylari ham boqilgan. Qo'ychilik turlarini ko'paytirish, zotdor nasllarni saqlab qolish va uni rivojlantirish ajdodlarimizdan katta mehnatni, sabr-toqatni va chorvachilik an'analariga hamda qonun-qoidalariga amal qilishlikni talab etgan. Xususan, tanlab olingan zotdor qo'chqorlar tog' zonalarida 1 - 10 oktyabrlarigacha sovliqlarga qo'yilib, to'l olish mart oyiga mo'ljallangan bo'lsa, cho'l zonalarida avgust oyining 1525 larida qo'yilgan va dekabr oyi oxiri va yanvar oyining birinchi yarmida to'l olishgan. Tog' zonalarida qo'chqorlar uyg'onish arafasida otar (suruv)dan ajratilgan yoki beliga kuyak (kigizdan qilingan to'siq) taqib qo'yilgan [4].

Cho'pon va uning cho'lig'i otardagi (har bir otarda 1000-1500 tacha qo'y bo'lsa) barcha qo'ylarning o'xshashligidan qat'iy nazar bir-biridan ajratib ola bilgan, bordi-yu birorta qo'y yoki qo'zi otarda bo'lmasa uni darhol sezgan va shunday qo'y yo'q deb tusi (rang) bilan aytib bergan. Shuningdek, cho'ponlar, umuman ajdodlarimiz qo'y-qo'zilarini yoshiga qarab ham nomlaganlar. Qo'zi esa an'anaviy nomlar bilan, qo'y bo'lgandan keyin esa, uning tishiga qarab aniqlaganlar. Masalan, endi tug'ilgani barra, qo'zichoq deb 2-3 oyli shirvoz qo'zi deb, 4-5 oyli saroyoq qo'zi deb, undan kattarog'i gaba qo'zi deb, bir yashari to'xli, ikki yashari shishak, uch yashari chori, to'rt yashari panji, besh chiqqani va undan kattasi mangi deb nomlangan. Asosan buni tishlariga qarab aniqlaganlar, qo'y shishak bo'lguncha qo'zi tishlari joyida turgan. Shishakka chiqqandan keyin o'rtadagi ikki tish tushib, o'midan katta tishlar o'sib chiqqan, choriga chiqqanda katta tishlari 4 ta bo'lgan va qo'y panji bo'lganda oldidagi barcha tishlari katta tishlarga aylangan [6].

Qorako'l qo'ylari asosan tekisliklardagi yaylovlarda boqilgan. Kuzga yaqin hosil yig'ilgandan keyin podalar yaylovlardan qaytarilib qishloqdagi maxsus ajratilgan qo'tonlarda saqlangan. Ular qishloq atrofidagi dalalarda boqilib, kechalari qo'tonlarda to'plangan. Keyingi bahorda qo'y-qo'zilar yana yaylovlarga chiqarilgan. Undan oldin qo'ylarning birinchi marta junini qirqishgan, keyin uzoq yaylovlarga ko'chilgan. Qo'ylarning dumbali hisori nasllari ayniqsa, Janubiy O'zbekistonda va Tojikistonda ko'proq bo'lgan. Ular ko'proq tog'li yaylovlarda kuzning o'rtalarigacha boqilgan, keyin vodiya haydab keltirilib, kuzgi junni qirqib va qochirib bo'lgach qishloq atrofidagi o'tloqlarda va og'ilxonalarda boqilgan [5].

Qo'ychilik asosan sotishga mo'ljallangan. Dasht tumanlarda qorako'lchilik rivojlangan va bozorlarga chiqarilgan. Qorako'l terilarini ilgari maxsus savdogarlar o'z vakillari orqali terib olganlar, barra go'shti shahar (qishloq) bozorlariga chiqarilgan. Qorako'l go'shtlari juda shirin bo'lganligi uchun ular tirik holda shahardagi qassoblarga keltirib sotilgan. Ularning junini qirqib ba'zan shahardagi o'zbeklarga og'ilxonada boqishgan yoki maxsus cho'ponlarni yollab topshirganlar. Podalarni Ko'hitang va Bobotog' tizmalaridagi yozgi yaylovlarda boqib avgust oyidan shahar bozoriga chiqara boshlaganlar. Katta boylar ham molfurushlik qilganlar.

Qo'y juni ham bozorga chiqarilgan. Undan ayrim xo'jaliklarda kigiz, palas, gilam, qop va xurjun ishlab chiqarilgan va qisman savdo qilingan. Qo'y terisidan po'stin va telpak, shuningdek to'shama, mesh, sanoch va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari yasalgan [1].

Ko'pchilik o'zbeklar echki go'shtini «sovuqlik» deb ham yeganlar. Uning junidan xo'jalikda zarur arqon va ip eshilgan, terisidan poyabzal tikilgan, mesh hamda sanoch ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda angor echkilarini parvarish qilish avj oldi. Bunday echkilarning juni yuqori sifatli bo'lib, ulardan ajoyib gilamlar va tivit ro'mollar to'qilgan. O'troq ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi o'zbeklarda chorvachilik uncha rivojlanmagan, chunki sug'orma yer tanqisligidan xashak yetmagan. Mahalliy dehqonlar oz sonli sigir, echki va qo'yni sut, qatiq va go'sht uchun ko'prok boy-baquvvat oilalarda bo'lgan. Ishchi hayvonlar ham asosan boylarda bo'lib kambag'al dehqonlar ulardan ijaraga olib ishlatganlar. O'troq aholi o'z mollari va qo'y-echkilarini jamoa bo'lib maxsus yollangan cho'ponlarga boqtirgan yoki og'ilxonada saqlab boqqanlar. Kambag'al oilalarda minish, yuk tashish va boshqa xo'jalik ishlarida eshak yoki xachirdan foydalanilgan. Ushbu hayvonlar odamlar uchun nafaqat transport vositasi

sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qoramolchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi inson faoliyatining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, o'zgargan ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashishda muhim rol o'ynagan.

Xulosa va takliflar. Tarixiy manbalar, jumladan, hayvonlar suyaklari, qurol-yarog'lar va qoyalar tasvirlari, odamlarning davrlar davomida qanday yashashini va tabiat bilan o'zaro aloqalarini yaxshilashga yordam bergan. Mollarni asrash va qo'tonlar, og'illar kabi izlar chorvachilikni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga, qo'y va echkilarning katta qum yaylovlarini o'zlashtirish qobiliyati, ularning ko'plab hududlarda moslashish imkoniyatlarini oshirgan. Xulosa qilib aytganda, chorvachilikning rivojlanishi va hayvonlarning odam hayotidagi o'rni, ularning yordamida insonlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotining taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqqan.

ADABIYOTLAR

1. Tursunov S., Pardayev T., Qurbonov A., Tursunov N. O'zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent. 2006. – 312 b.
2. Tursunov S., Pardayev T., Tursunov A., Tog'ayeva M. O'zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi. – Toshkent: Muharrir, 2012. – 219 b.
3. Pardayev T., Payg'amov A., Narzullayeva N. Surxon vohasida moddiy madaniyat tarixi. – Toshkent. 2013. – 187 b.
4. Dala yozuvlari. 2020-yil. Angor, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlari.
5. Жумаева, Ш. Ч. (2020). Развитие и сохранение аутентичности как условие естественного образования человека. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4), 46-49.
6. Chorievna, J. S. (2022). Livestock Reforms in Surkhandarya. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 4, 68-70.
7. Жумаева, Ш. Ч. (2022). Мамлакатимизда чорвачилик соҳасида амалга оширилган дастлабки ислохотлар (сурхондарё мисолида): Жумаева Шоҳида Чориевна, Термиз давлат университети Фуқаролик жамияти кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7).
8. Жумаева, Ш. Ч. (2022). Қишлоқ хўжалиги соҳасида рақобатбардош кадрлар тайёрлаш истикболлари. zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari, 2, 1-4.
9. Jumayeva, S. (2023). Importance of livestock in agriculture, development prospects. World Bulletin of Social Sciences, 19, 167-169.



УДК:902(5)

Дарманжан КУРЯЗОВА,

Старший научный сотрудник Государственного музея истории Узбекистана, доктор исторических наук, доцент

E-mail: darmonturaeva@gmail.com.

На основании рецензии Профессор НУУз А.Холикулова

ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается такая малоизученная проблема, как сохранение культурного наследия археологических памятников с помощью различных методов музеефикации. Подробно освещена научная деятельность ученых разных стран по музеефикации реальных археологических памятников, история проблемы. Автор приводит сравнительный анализ работ, проведенных по музеефикации объектов недвижимости в разных странах мира и в Узбекистане. В исследовательской работе также рассматриваются основные аспекты изучения археологических памятников и определяется его место и роль в современной практике.

Ключевые слова: Археологические объекты, материальное культурное наследие, памятник, музеефикация, сохранение, консервация, реставрация, изучение, разрешение.

ARXEOLOGIK YODGORLIKLARNI SAQLASH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli xil muzeylashtirish usullari yordamida arxeologik madaniy meros yodgorliklarini saqlash kabi kam o'rganilgan muammo ko'rib chiqiladi. Turli mamlakatlar olimlarining haqiqiy arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish bo'yicha ilmiy faoliyati, muammo tarixi batafsil yoritilgan. Muallif dunyoning turli mamlakatlarida va O'zbekistonda ko'chmas mulk obyektlarini muzeylashtirish bo'yicha olib borilgan ishlarning qiyosiy tahlilini keltiradi. Tadqiqot ishi, shuningdek, arxeologik joylarni o'rganishning asosiy jihatlarini ko'rib chiqadi va uning zamonaviy amaliyotdagi o'rnini va rolini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Arxeologik obyektlar, moddiy madaniy meros, yodgorlik, muzeylashtirish, saqlash, saqlash, tiklash, o'rganish, ruxsat berish.

PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL PRESERVATION MONUMENTS

Annotation

In this article, the little-studied problem such as the preservation of cultural heritage of archeological monuments through various methods of museumification is focused on. The scientific activity of scientists from different countries on the museumization of real archeological monuments, the history of the problem is covered in detail. The author provides a comparative analysis of the work done on the museumization of real estate in different countries around the world and in Uzbekistan. The research work also considers the main aspects of the study of archaeological sites and identifies its place and role in modern practice.

Key words: Archeological objects, material cultural heritage, monument, museumification, preservation, conservation, restoration, study, resolution.

Введение. Принцип сохранения материального и культурного наследия в мире, который соответствует масштаб зарубежного опыта, заключается в музеефикации археологических памятников в природных ландшафтах. Среди проблем, связанных с реальными памятниками, основное внимание уделяется их сохранению и музеефикации. Вопросы долгосрочного использования и сохранения памятников в открытом грунте приводят к возникновению очень сложных, взаимосвязанных проблем, имеющих научный, инженерно-технический и правовой характер. Оптимальным способом найти ее современное решение является создание археологических музеев – заповедников [1. - с. 115].

Обзор литературы. Ряд ученых проводят исследования по музеефикации, сохранению и реставрации реальных объектов исторического и культурного наследия. В частности, М. Гарбер, А. Медведь и М. Каулен изучали работу по сохранению, музеефикации и реставрации археологических памятников в России и за рубежом. Я. Гулямов работал над сохранением материальных и культурных памятников в Узбекистане, А. Абдуразаков над сохранением и музеефикацией фресок в Афросиябе. М.Филанович и

А.Тереножкин изучали археологические памятники в городе Ташкенте и его окрестностях, а также проводили исследования по их защите и сохранности от различных природных и антропогенных факторов.

В этих работах, которые были изучены на основе новой методологии и аксиологического подхода, материальные и культурные памятники рассматривались как приоритетная область, представляющая национальную ценность. В ходе исследования также были использованы учебники, учебные пособия и монографии, посвященные охране и реставрации памятников, инновациям и новаторским формам в практике мирового музееведения, музеефикации и охране объектов недвижимости. Сохранение недвижимых (вещественных) памятников культуры путем реставрации, консервации и музеефикации является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день. В зависимости от изложенных выше идей, мы рассмотрим работы, разработанные и реализованные в зарубежных странах. Например, в практике музеефикации в Словакии, Геркулата, расположенной в регионе Русовица, эксперты отмечают, что разработчики добились несомненных успехов в сохранении памятников истории и культуры [2].

Авторы проекта музеефикации включили в экспозицию на месте: часть оборонительных стен; каменные фундаменты жилых зданий I-II веков н.э.; величественный архитектурный объект - форум III-IV веков н.э.; остатки подиума и т.д. Авторы проекта долго работали над тем, чтобы руины цитадели произвели впечатление. Вокруг монумента были построены порталы из стальных конструкций, коридоры шириной 1,5 метра для зрителей. Большая часть города была заново засыпана землей, обработана гербицидами, а его окрестности были огорожены, чтобы он не разрушился под воздействием климата. Традиционные археологические артефакты, найденные здесь, размещены в музее, построенном у входа.

В 1954 году в деревне Микульница на реке Морава в Чехии была обнаружена славянская цитадель VII века нашей эры, занимавшая площадь в 200 гектаров. 5 из 12 христианских зданий были расположены на территории княжеского дворца, а остальные - на окраине. Вокруг храмов были построены туристические информационные коридоры. Крыши зданий были покрыты легкими конструкциями, а затем музеефицированы. Экспонаты, найденные здесь, выставлены в витринах. Территория цитадели окружена бетонными стенами [4].

Анализ соответствующей литературы. Во время археологических раскопок на окраине города Кент в Англии были обнаружены остатки римских вилл. После серии научных исследований был разработан проект музеефикации этой находки. На месте раскопок был построен деревянный павильон с низкой крышей, закрывающий границы участков раскопок. Чтобы обеспечить максимальное естественное освещение, крыша и стены покрыты прозрачными листовыми материалами, похожими на стекло, в сочетании с аспоблитами. Конструктивно павильон состоит из трех разнородных порталных пространств, самое длинное из которых находится в центре, а боковые - короче, но разной длины [5]. Другой тип музеефикации можно увидеть в археологическом склепе Нотр-Дам-де-Пари, открытом в 1980 году в Париже. Этот памятник был найден под землей, когда началось строительство на острове Сайтсайт. В 1965-72-х годах проводились археологические раскопки, в ходе которых были найдены плиты древних зданий. Ученые определили, что самые древние из них относятся к античному периоду. Остатки здания освещены искусственным светом, вокруг него расставлены витрины, а найденные здесь экспонаты выставлены на всеобщее обозрение. Здесь представлены экспонаты, свидетельствующие о многовековом культурном наследии страны и города. Его многогранная коллекция уникальна и многогранноплановая, не имеющая аналогов. Когда зритель попадает в подземный музей, он ощущает атмосферу того периода. Этому способствуют информационные слайд-шоу, аудиокomentarии, интерактивные программы [6].

Важнейшей особенностью археологического объекта для рассматриваемой проблемы является то, что музеефикация является наилучшим способом использования памятника. Однако научный метод в этой области еще не разработан в полной мере, и накопленный опыт нуждается в серьезном обобщении с позиций музейной работы.

Среди памятников древности особое место занимают наскальные рисунки. Хотя эти памятники относятся к археологическим, они, тем не менее, не связаны с раскопками. Петроглифы обладают уникальной привлекательностью и выразительностью и сильно воздействуют на зрителя. Опыт показывает, что иногда музеефикация изображений, нанесенных на скалы или

стены зданий, может повредить им. Негативные изменения произошли в наскальных рисунках, написанных в пещерах Ласко, расположенных на юго-западе Франции, история которых насчитывает 17 000 лет, в результате большого количества посетителей и изменения температурно-влажностного режима. То есть они покрылись плесневыми грибами и начали промокать. Посещение памятника Ласко запрещено с 2001 года. По специальному разрешению в день разрешается посещение пяти ученых. То же самое можно увидеть на фресках цитадели Афросиаб в Самарканде. Учитывая эти проблемы, необходимо тщательно продумать способы показа памятника посетителям музея.

В настоящее время при музеефикации археологических памятников в основном используется метод реконструкции, основанный на полном возведении сооружения с привлечением более сохранившихся частей, раскопках и т.д. Этот метод, который считается эффективным с музейной точки зрения, подвергся критике со стороны многих экспертов. Сторонники такого подхода подчеркивают, что сделать археологический памятник интересным и понятным широкому кругу посетителей, что является одной из важнейших задач археологического музея и наиболее практичным способом решения этой проблемы, — это использование реставрации. Если памятник содержит несколько объектов, относящихся к разным периодам, которые накладываются друг на друга, они стараются выставить их таким образом, чтобы в пределах одной границы раскопок картина исторического развития памятника была четкой и яркой, демонстрируя систему объектов, относящихся к разным периодам. Еще один простой, но эффективный способ - показать предметы, относящиеся только к одному периоду, в отдельных раскопках.

В ходе исследования выяснилось, что многие ученые выступают за то, чтобы археологические памятники не музеефицировались. По их мнению, подземные памятники не должны быть обнаружены и должны быть оставлены для изучения будущим поколениям [7]. Они считают, что срок их службы сократится, если их очистить от почвы и покрыть различными конструкциями. В 1987 году в Москве был издан сборник научных работ "Методологические основы сохранения и использования памятников" [8]. Почти все мнения ученых, приведенные в нем, подтверждают вышесказанное.

Методология исследования. Независимо от выбора стиля, первым этапом музеефикации является реставрация, которая проводится с целью сохранения объекта [10]. Теперь, вместо понятия реставрации в целом, как отдельного процесса, пришло время понять и осмыслить реставрацию как сложный, исторически разнообразный процесс, разделенный на различные формы деятельности. В соответствии с этим, реставраторы имеют право использовать различные методы. Сохранение и музеефикацию материального и культурного наследия Узбекистана можно считать одним из самых актуальных вопросов сегодняшнего дня. В настоящее время в социально-культурной жизни нашей страны развиваются процессы урбанизации и инноваций. Эти процессы, в свою очередь, могут привести к постепенному исчезновению археологических памятников. Однако необходимо сохранить археологические объекты и монументы, которые имеют замечательные проекты, исчезающие для следующего поколения. С этой целью важно разработать меры по их музеефикации, основанные на мировом опыте. Проблема музеефикации остается неотъемлемой частью

современной музейной практики и находится в центре внимания мирового сообщества.

Узбекистан является одной из ведущих стран мира по количеству археологических памятников. Обилие археологических памятников свидетельствует о том, что в регионе проживали высоко цивилизованные народы, древняя культура которых находилась на чрезвычайно высоком уровне. Количество дошедших до нас археологических памятников оценивается археологами примерно в 8,5 тыс. Для уточнения этих цифр памятники этого вида материального культурного наследия должны быть полностью поставлены на кадастровый учет [1]. Сегодня общее количество объектов культурного наследия составляет более 10 000, из которых 7570 находятся под охраной государства. К ним относятся древние архитектурные и археологические памятники, скульптуры и монументальные произведения искусства, достопримечательности и переносные объекты культурного наследия [2].

Анализ и результаты. Музеефикация памятников, объектов культурного наследия, произведений искусства и артефактов древности позволяет максимально сохранить их и раскрывает их историческую, культурную, научную и художественную ценность. На наш взгляд, музеефикация археологических памятников и предметов является одним из средств их сохранения для будущих поколений и стала неотъемлемой частью современной музейной практики. Музеефицированные археологические памятники в этих условиях становятся важной частью материального культурного наследия. Решение проблемы музеефикации археологического наследия возникает во взаимосвязи нескольких систем знаний и научных дисциплин, с помощью специалистов разных уровней и специальностей, государственных и общественных организаций.

По словам А.И.Мартынова, мировой опыт использования материального культурного наследия отражается не только в его сохранении, но и в использовании современным обществом. Исходя из этого, он подчеркивает необходимость создания единой новой системы: памятники материального культурного наследия – музеи – информационный туризм – музейно-туристический сервис и музейно-туристический бизнес [3]. Как отмечалось выше, значительную часть материального и культурного наследия Узбекистана занимают археологические памятники. Сегодня сохранение их наиболее примечательных объектов путем музеефикации является одной из наиболее актуальных

проблем. Следует отметить, что не было разработано специального метода музеефикации археологических памятников. Потому что все они дошли до нас в разных ситуациях и обличьях. То есть некоторые из них занимают площадь в несколько гектаров и разбросаны, другие имеют целостный композиционный облик, но в них наблюдается несколько исторических слоев, и так далее. Поэтому в процессе разработки проблемы музеефикации археологических памятников необходим особый подход в выявлении и классификации археологических объектов и монументов. Н.М. Булатов предлагает их разделение и характеристику следующим образом: 1. Археологические памятники включают города, деревни, кладбища, ирригационные системы, а также производственные и ремесленные комплексы. В данном случае, когда мы говорим об археологическом памятнике, мы имеем в виду сложные сооружения, связанные с местом проживания древних людей, их творческой и производственной деятельностью, местами захоронений. 2. К археологическим объектам относятся отдельные сооружения археологических памятников и все отдельные сооружения, кроме памятников археологии. Понятие археологический объект включено в данную классификацию как вспомогательная категория, поскольку некоторые археологические памятники могут попадать в категорию археологических объектов или наоборот. Археологические объекты входят в состав археологического памятника и могут служить самостоятельным историческим источником. 3. Археологические находки – в эту категорию включаются все предметы, найденные на территории археологических памятников и объектов, а также съемные части археологических памятников и объектов [4].

Заключение и предложения. В заключение хотелось бы отметить, что научное изучение, сохранение и музеефикация материального и культурного наследия Узбекистана является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день. В настоящее время в социально-культурной жизни нашей страны усиливаются процессы урбанизации и инноваций. Эти процессы, в свою очередь, могут привести к постепенному исчезновению археологических памятников. Однако необходимо сохранить для будущего поколения археологические объекты и памятники, которые имеют такие замечательные проекты, которые исчезают. Поэтому важно разработать меры по их музеефикации на основе мирового опыта.

ЛИТЕРАТУРА

1. Гарбер М.И. Из опыта музеефикации памятников археологии за рубежом. // Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры: [Сб. статей. / Научный редактор и составитель Э.А.Шулепова] – М.: НИИ культуры, 1982. – С. 115-117.
2. Schwarczowa A. Gerulata. "Projekt", 1975, 188 (6). 23-25.
3. Poulik J. Archaeological Discoveries and Great Moravia, "CSSR Architecture", 1963, №10, - P. 612-615.
4. Bedford. Pavilion for Roman excavations, "Wood", 1963, vol. 28, № 5. – P. 192 - 194.
5. Fleury M., Kruta V. The archaeological crypt of the Notre Dame square. Paris, 1990; [https:// commons. wikimedia.org/wiki. /File:The archaeological crypt of the Parvis de Notre-ame \(Paris\) \(8274683584\). jpg](https://commons.wikimedia.org/wiki/File:The_archaeological_crypt_of_the_Parvis_de_Notre-ame_(Paris)_ (8274683584).jpg).
6. Афанасьев Г.Е., Александрова М.В. Некоторые вопросы организации охранных археологических исследований в зонах новостроек РСФСР // Методические основы охраны и использования памятников археологии: Сб. науч. тр. / Науч.-метод. совет по охране памятников культуры; [Науч. ред. В. Л. Янин]. – М.: НМЦ МК4., 1987. - С. 37.
7. Methodological foundations for the protection and use of archaeological monuments. - М., 1987. -S. 105.



UDK:94(575.1)

Eshbolta QOBULOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori, professor

E-mail: eshbolta@mail.ru

Kamoliddin QOBULOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

TerDU professori, t.f.d S.Tursunov taqrizi asosida

ARCHITECTURE OF THE SURKHAN OASIS DURING THE ERA OF AMIR TIMUR AND THE TIMURIDS

Аннотация

This article deals with the attitude of Amir Timur and the Timurids toward architectural monuments in our region, particularly in the Surkhan Oasis. It explores their reverence for religious figures, as reflected in the restoration of existing structures and the construction of new ones. The study is based on historical sources and scholarly works that detail the architectural policies of the Timurid era.

Key words: Oqsaroy, kashin, patterned, Hakim at-Termizi, Sultan Saodat, Qirqqiz, Ak Astana Baba, Zulkifli.

АРХИТЕКТУРА СУРХАНДАРИНСКОГО ОАЗИСА В ЭПОХУ АМИРА ТИМУРА И ТИМУРИДОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается отношение Амира Тимура и тимуридов к архитектурным памятникам в нашем регионе, в частности в Сурхандаринском оазисе. Анализируются их почтение к религиозным деятелям, что нашло отражение в восстановлении существующих сооружений и строительстве новых. Исследование основано на исторических источниках и научных трудах, освещающих архитектурную политику эпохи тимуридов.

Ключевые слова: Оксарай, керамическая облицовка, орнамент, Хаким ат-Термези, Султан Саодат, Кырккыз, Ак Остона Бобо, Зулкифл.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SURXON VOHASI ME'MORCHILIGI

Аннотасија

Maqolada Amir Temur va temuriylarning o'lkamizda, xususan Surxon vohasida me'moriy obidalariga bo'lgan munosabati xususan din peshvolariga bo'lgan e'tiqodi ramzi sifatida qurilgan obidalarini ta'mirlash va yangilarini qurish borasida amalga oshirgan ishlari manbalar va tarixiy asarlarga asoslangan holda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oqsaroy, koshin, naqshinkor, Hakim at-Termiziy, Sulton Saodat, Qirqqiz, Oq ostona bobo, Zulkifl.

Kirish. O'zbekiston o'zining noyob me'moriy yodgorliklari bilan dunyo diqqat markazida turgan go'shalardan biri. Ayniqsa Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan me'morchilik obidalarini nafaqat o'z davrining balkim bugungi me'morchilikning ham durdona asarlari hisoblanadi. Temur davrida qurilgan imoratlar davlat kuch-qudratini o'zida mujassam etar edi. Bu Oqsaroy peshtoqiga bitilgan "Quadratimizni ko'rmoq istasang-binolarimizga boq!" degan yozuvda aniq ifoda etilgan. Qurilgan imoratlar nafaqat davlat kuch-qudratini, balkim me'morchilikning eng yangi yutuqlari asosida barpo etilar ediki, bunga chet elliklar ham yuqori baho bergan edilar. Oqsaroy qurilishini ko'rgan Ispaniya qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixo "go'zal koshinlar, nodir naqshlar, tilla yugurtirilgan nafis va nozik eshiklar, naqshinkor shiftlar oldida bosh egib, bu san'at namunalari yasagan ustalar ishini Parij ustalari ishidan ko'ra ham go'zal, deb tan olgan edi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temur va temuriylar davridagi me'morchilik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar xalqaro va mahalliy manbalarda keng yoritilgan. Mazkur maqolada tahlil qilingan manbalar ikki asosiy guruhga bo'lindi: tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar.

Amir Temur va uning davridagi me'morchilik haqidagi dastlabki ma'lumotlar tarixiy asarlardan kelib chiqadi. Xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Temurning Termiz va uning atrofidagi muqaddas qadamjolariga bo'lgan ehtiromi haqida yozilgan. Muallif Temurning Hakim at-Termiziy, Shayx Abu Bakr Varroq kabi islom olamining yirik ulamolari qabrlarini ziyorat qilgani va

bu hududlarda obidalar barpo qilganini ta'kidlaydi[2]. Rui Gonsales de Klavixonning "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asarida Temur davridagi me'moriy an'analar haqidagi tasavvurlar beriladi. Muallif Oqsaroyning go'zal naqshinkorligi, jozibador dizayni va murakkab me'moriy uslublarini ta'riflab, uning Yevropadagi arxitekturadan ustun ekanligini qayd etadi[1]. Fasix Xavofiyning "Mujmai Fasixi"[6] asarida XIV-XV asrlardagi madaniy va siyosiy voqealar yoritilgan bo'lib, unda Temuriylar davridagi me'moriy ishlarning ko'lami, qurilish uslublari va ularning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar - so'nggi yillarda O'zbekiston tarixchilari va arxeologlari tomonidan Surxondaryo viloyatidagi me'moriy yodgorliklar bo'yicha keng ko'lamlil tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Tursunov S., Murtazoyev B., Cho'tmatov J.ning "Imom Abu Iso at-Termiziy va Termiziy allomalar" asarida Hakim at-Termiziy maqbarasiga oid batafsil ma'lumotlar berilgan. Mualliflar maqbaraning qurilish tarixi, uning islom olamidagi o'rni va ziyoratgoh sifatidagi ahamiyatini tadqiq etishgan[3]. Qobulov E., Tursunov S. va boshqalarning "Surxondaryo tarixi" asarida Surxon vohasining tarixiy obidalariga alohida e'tibor qaratilib, ularning Temur va temuriylar davridagi ahamiyati yoritilgan. Ushbu tadqiqotda Sulton Saodat majmuasi, Qirqqiz saroyi va boshqa bir qator yodgorliklarning me'moriy jihatlari tahlil qilingan[4]. Arxeolog va tarixchilarning ishlari, jumladan, B.D. Kochnev va E.V. Rtveladze tomonidan o'rganilgan maqbara peshtoqidagi yozuvlar Temur davrida qurilganlik haqida qo'shimcha dalillar keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodlar. Ushbu maqolani yozishda tarixiy-mantiqiy, qiyosiy tahlil va me'moriy-arxeologik usullar qo'llanildi. Asosiy metod sifatida tarixiy-mantiqiy tahlil yordamida Amir Temur va temuriylar davrida Surxondaryo vohasida qurilgan me'moriy yodgorliklarning tarixiy jarayonda tutgan o'rnini o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali ushbu davr me'morchiligi boshqa davr va hududlardagi arxitektura bilan solishtirilib, uning o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Me'moriy-arxeologik yondashuv esa yodgorliklarning badiiy va texnik xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ularning hozirgi holati va restavratsiya jarayonlari bilan bog'liq muammolarni o'rganish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Temur va temuriylar davrida Samarqand va Shahrisabzda go'zal me'moriy obidalar dunyo yuzini ko'rdi. O'z navbatida ular saxovatidan Surxon vohasi yerlari ham bebahra qolgan emas. Ma'lumigizki, Temur Termizni aziz avliyolar, buyuk din peshvolari yurti sifatida qadrlagan. Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida keltirilgan quyidagi jumlar: "...Xoja Muhammad al-Hakim Termiziyini va Shayxi Buzrukvor Abu Bakr Varroqni va o'zga mashoyixi kiborni, qaddasa Alloh u asroruhum ajma'in, tavof qilib, faqiru miskinlarga ko'b sadaqalar berdi"[2] buning isbotidir.

Termizlik shayxulislom Alo al-Mulk II Xudovandzodaning o'g'li Ali Akbar 1370 yil Amir Temurning Movarounnahr taxtiga o'tirish marosimida ishtirok etgan. Sohbiqiron har safar Termizga kelganida albatta, Sayyid Ali Akbarning uyida mehmon bo'lgan[3]. Shu sababli, bu o'lkada qadimiy me'moriy obidalarni asrab-avaylab, ularga qayta hayot bag'ishlashga ham e'tibor bergan. Surxon vohasining noyob me'morchilik yodgorliklaridan biri bo'lgan Hakim at-Termiziy maqbarasi turli davrlar me'morchilik san'atining guldastasidir. Asrlar davomida Xuroson va Movarounnahrning turli viloyatlaridan ziyoratchilar Hakim at-Termiziy qabrini ziyorat qilish uchun tashrif buyurganlar. 1091-1095 yillar oralig'ida qoraxoniylar sulolasining hukmdori Ahmad ibn Xizrnin ko'rsatmasiga muvofiq at-Termiziy qabri ustida maqbara quriladi. Mazkur maqbara devorining past tomonidan tortib, gumbazining yuza qismigacha juda murakkab o'yma ganchli, naqshli lavhalar bilan bezatilgan. Unda murakkab islamiy va girx uslubida bitilgan naqshlar kufiy yozuvlari bilan jonli tarzda chatishib ketgan[4].

Yillar o'tib maqbaraning shimoliy tomonida uch ustunli ayvon va mehrobdan iborat hovli masjid quriladi. Bu masjidda ziyoratchilar Hakim at-Termiziyini xotirlab namoz o'qishgan. Maqbara poli masjid yeridan 1,5 metr balandlikda bo'lib, shu tomondan ochiq turadi. Temur davriga kelib, 1389-1890 yillarda maqbaraning sharqiy tomonida yangi maqbara, archasimon uslubda pishirilgan g'isht taxlangan hovli devorining janubiy qismi bo'ylab chillaxonali maqbara quriladi. Bu yangi maqbara peshtoqida saqlanib qolgan yozuv arxeolog va numizmat olimlar B.D.Kochnev va E.V.Rtveladze tomonidan o'qilgan va uning ayni 1389-1390 yillarda, ya'ni Amir Temur davrida barpo qilinganligi isbotlangan[5].

Yer ostida joylashgan bu chillaxonadan keyingi davrlarda ham foydalanishgan, ya'ni unda ko'pincha haj safari oldidan chilla saqlangan. Haj qiluvchilar yoki dinu imon yo'lidagi boshqa odamlar haftalab, oylab, qirq kunlab ushbu tor tuyukli yertulaga kirib, faqat ozgina suv bilan irodalarini tarbiyalaganlar, suyaklarini mashaqqatlarga toblaganlar. Bu chillaxona O'zbekistondagi qadimiy va so'nggi chillaxonadir.

Temur va temuriylar davrida dinu-islom ahliga nisbatan amalga oshirilgan ulug' ishlaridan biri - At-Termiziy maqbasida ikki hashamatli gumbazdan iborat mahobatli xonaqoh qurilishi va qabr ustiga marmar sag'ana o'rnatilishidir. Temuriy shahzoda Xalil Sulton tomonidan o'rnatilgan bu sag'ana benihoya yuksak sangtaroshlik asari

hisoblanadi. Butun islom dunyosida unga teng keladigan, u bilan bellashadigan marmar yodgorlik yo'q. Uning devoriga o'yib bitilgan jimjimador qur'oniy suralar, yozuvlar kishini hayratga soladi.

Amir Temurning Termiz sayyidlariga ixlosi nihoyatda baland bo'lgan. Ma'lumki, Termiz sayyidlari Amir Temurga xayrixoh bo'lishgan. Ammo ular tomonidan ham ba'zi xatoliklar o'tgan. Jumladan, termizlik sayyidlardan biri Abul Ma'ali 1370 yilda Amir Temur va Husayin o'rtasida urush ketayotgan bir pallada Shibirg'on viloyati hokimi Zinda Chashm, Amir Muso, Abu Is'hoq Xizr Yosuriy, shayx Abu Lays Samarqandiylar bilan sohbiqironga qarshi fitnada ishtirok etgan[6].

Amir Temur termizlik Abul Ma'aliga nisbatan muruvvatli bo'ladi. Abul Ma'ali birodari Ali Akbar bilan Amir Temurga sadoqatli bo'ladi. Ular 1370 yili Amir Temurning taxtga o'tirish marosimida, 1399-1404 yillar g'arbga qilgan harbiy yurishida erishgan g'alabasini Ozarbayjonga -Tog'li Qoraboqqa borib muborakbod etishadi. Sohbiqiron 1399 yil mart oyida Hindiston yurishidan qaytganda, Termizlik sayyidlar tomonidan uyushtirilgan ziyofatda ishtirok etgan va bu tantanada ulug' hazratga munosib darajadagi sovg'alar in'om qilingan[7]. Amir Temur sayyidlarni juda hurmat qilganligidan qizi Sulton Baxtbegimni shu xonadon vakili sayyid Hasanga bergan va kuyoviga hozirgi Qashqadaryo viloyati hududidan vaqf yerlari ajratgan[8].

Sohbiqiron sayyidlar uchun barpo qilingan obidalarni saqlash va qurilishiga e'tibor bilan qaraganini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, Sulton Saodat (X-XI-XVII asrlar) majmuasi Termiz sayyidlarining oilaviy dahmasi bo'lib, 20 ga yaqin maqbarani o'z ichiga oladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha dastlab payg'ambar avlodidan bo'lmish Hasan al-Amir maqbarasi bunyod etilgan[9]. Sulton Saodat arab tilidan tarjima qilinganda "Baxtlilar sultoni" degan ma'noni beradi. Temuriyzoda Xalil Sulton davrida (1405-1409yy) majmuada ta'mirlash ishlari olib borilgan, baland bo'lyli imorat barpo etilgan. Barcha inshootlar bir xil kattalikdagi 27-28x27-28x5 santimetrlil g'ishtlardan qurilib, peshtoq ustunining asosiga qo'yilgan naqshinkor chizgilar qadimgi yodgorliklarning hech qaysisiga o'xshamaydi. XV asrning ikkinchi yarmida qo'sh maqbaralar ro'parasida yangi ikki maqbara eskilarga qaratib bunyod etilgan. Yangi maqbaralar kvadrat shaklida bo'lib, zal tomonidan 6,10-6,50 metr. Keyin barpo etilgan maqbaralarda bezaklar bo'lmagan. Bundan tashqari XV asrda shimoliy maqbara yonida yana ikki guruh imoratlar: o'rtasi ayvonli katta imorat qurilgan[9].

Temur va temuriylar davri me'morchiligida Qirg'iz saroyi muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda arxeolog olimlar tomonidan olib borilgan ishlar natijasida mazkur me'morchilik yodgorligi XIV-XV asrlarda barpo qilingan degan aniqlik kiritildi[10].

Bino tarxi to'rtburchak - 53,8X54,8 shaklida bo'lib, o'rtasida kvadrat (11,5 X 11,5) shaklidagi hovlisi va uning 50 ga yaqin umumiy xonalari bo'lgan, ikki qavatli inshoot. Imorat har tomondan qalinligi 2-2,5 metrli mudofaa devori bilan o'rab olinib, uning har burchagida xalqasimon burjlar qurilgan. Qirg'izning markaziy qismida hovli joylashgan. Ayvondan boshlangan o'qsimon yo'laklar bu binoni to'rt qismga bo'lib turadi. Inshootning shimoli g'arbiy va shimoliy-sharqiy tomonidagi imoratlar yagona uslubda barpo etilgan. Bu qismlar har biri to'g'ri burchakli besh xonadan iborat bo'lib, ularning uch tomoni ravoqsimon ikki qavatli tor yo'lakchalar bilan o'rab olingan. Qirg'iz saroyining janubiy-g'arbiy qismi ham besh xonadan iborat bo'lib, ularning uch tomoni ravoqsimon ikki qavatli tor yo'lakchalar bilan o'rab olingan. Qirg'iz saroyining janubiy-g'arbiy qismi ham besh xonadan iborat. Ravoqsimon uslubda yopilgan yo'lakchalar esa ikkita. Janubi-sharqiy tomonda esa yo'lakcha, ikki to'g'ri burchakli xona va uch ustunli mehmonxona joylashgan.

Imorat asosan xom g'ishtdan (30X30X5,4) terilgan bo'lib, ustidan loy suvoq qilingan, naqqoshlik va me'morchilik uslubidan bezalgan sarg'ish rangli bo'lgan, binoning ichki qismi bezaksiz. Old tomonidagi devori naqshsiz, silliq ishlangan, imorat mohirona qurilishi bilan go'zallikka va hashamdorlikka erishgan. Qirqqiz qasri tomlari qutili, xochsimon va balxiy gumbazlardan foydalanilgan.

Og'zaki tarix ma'lumotlarga ko'ra, xalq dostonlarida zikr etilgan dushmanlar hujumini qaytara olgan Guloyim va uning qirq nafar dugonasi aynan shu yerda yashagan. Qirqqiz qal'asi manzili "Shahri somon" deb ham atalgan. Ahmad Usturlobiy at-Termiziyning "Ilm un-nujum" kitobida Qirqqiz qal'asi haqida shunday ma'lumot beradi: "Qal'aning to'rt tomonida to'rtta eshik bor. To'rt zinapoya, to'rt zindon, to'rt quduq bor. Qirq xona bor, qirq asbob usturlab (osmonni kuzatadigan asbob) bor. Birinchi zinopoyadan chiqishda qirq xona bor, ikkinchi qavatda qirq xona va qirq xujra bor, undan so'ng me'roji, uchinchi qavatda qirq zinapoya va to'rt xona mavjud. Zinapoyalardan qubbaga o'tib, to'rt tarafni kuzatish mumkin, so'ng gumbaz bo'lib, rangi qizil ham, sariq ham emas, osmon rangi nazarda tutilgan"[9].

Bulardan tashqari Payg'ambar orolidagi "Zul-Kifl", Telpakchinordagi Oq ostona bobo obidalarida ham qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilgan. Umuman olganda, Temur va temuriylar davrida vohaning 80 dan ortiq obidasida iqtisodiy va madaniy hayotda siljishlar bo'lganidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Amir Temur va temuriylar davrida Surxondaryo vohasida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar nafaqat arxitektura san'atining yuksak namunasi, balki siyosiy va madaniy taraqqiyotning muhim timsoli bo'lgan. Bu inshootlar davlat qudratini namoyon etish bilan birga, islomiy an'analarni mustahkamlash, ilm va madaniyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bilan ham alohida ahamiyatga ega. Hakim at-Termiziy maqbarasi, Sulton Saodat majmuasi va Qirqqiz saroyi kabi tarixiy yodgorliklar uzoq asrlar davomida qayta-qayta tiklangan va sayqallangan. Tadqiqot davomida temuriylar davridagi me'moriy an'analar nafaqat siyosiy kuch-qudrat ramzi, balki islom sivilizatsiyasining muhim ko'rinishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Bunday yodgorliklar nafaqat zohiriy go'zallik, balki hokimiyat ideologiyasini aks ettiruvchi vosita sifatida ham faoliyat yuritgan. Arxeologik va tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxon vohasidagi bir qator yodgorliklar hanuzgacha to'liq o'rganilmagan. Hozirgi restavratsiya va muhofaza ishlari bu yodgorliklarning kelajak avlodlarga yetkazilishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, bu obidalar chuqurroq o'rganish, zamonaviy arxeologik usullardan foydalanish va yangi ilmiy manbalar asosida ularni qayta tahlil qilish talab etiladi. Shu bois, ushbu me'moriy yodgorliklar nafaqat madaniy meros, balki tarixiy manbalar sifatida ham kelgusi tadqiqotlarda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yy). -Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.148.
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 223.
3. Tursunov S., Murtazoyev B., Cho'rtmatov J. Imom Abu Iso At-Termiziy va Termiziy allomalar. – Toshkent: Tafakkur, 2021. -B.258-259.
4. Tursunov S., Qobulov E. va boshq. Surxondaryo tarixi. -Toshkent: Sharq, 2004. – B. 112.
5. Choriyev Z., Annayev T., Murtozayev B., Annayev J. Al-Hakim At-Termiziy – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 86.
6. Fasix Xavofiy. Mujmai Fasixi. – Tashkent: Fan, 1980. – S.95.
7. Giyasiddin Ali. Dnevnik poxoda Timura v Indiyu// V. Kn. Tamerlan. – Moskva, 1992. – S. 29.
8. Surxon tongi, 1995 yil, 17 noyabr.
9. Tursunov S., Qobulov E., To'xtayev A. Termiz tumani tarixi. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2022. – B.43.
10. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – B. 85.



UDK: 93/94

Xurshid QURBONOV,
Navoiy davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

BuxDU professori Sh.Hayitov taqrizi asosida

"UNARMED SOLDIERS" MOBILIZED IN THE URAL REGIONS AND THEIR SOCIAL CONDITION

Annotation

The article describes the creativity, the way of living and the destiny of the Uzbek "unarmed soldiers" who worked a lot in the Urals during the World War II and made a worthy contribution to the Victory.

Key words: World War II, the Urals, labor, "unarmed soldier", life, destiny, evacuation, camps, research.

«БЕЗОРУЖЕННЫЕ СОЛДАТЫ», МОБИЛИЗОВАННЫЕ В РЕГИОНАХ УРАЛА, И ИХ СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ

Аннотация

В статье анализируется жизнь и деятельность трудармейцев, мобилизованных из Средней Азии на строительные и промышленные предприятия Урала в годы Великой Отечественной войны. Описаны их социально-бытовые условия, проблемы питания, общежития и жилья. Проанализированы условия труда и отношение общества к работникам в Челябинской и Чкаловской областях.

Ключевые слова: Мобилизация, «трудармейцы», Великая Отечественная война, Урал, государственные архивы, Челябинск, Чкалов, промышленность, строительство, труд, продовольствие, еда, снабжение, болезни.

URAL HUDUDLARIGA SAFARBAR ETILGAN "QUROLSIZ ASKARLAR" VA ULARNING IJTIMOY AHVOLI

Annotatsiya

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'rta Osiyodan Ural hududlaridagi qurilish va sanoat korxonalariga safarbar qilingan mehnat armiyachilarining hayoti va faoliyati tahlil qilinadi. Ularning ijtimoiy-maishiy sharoiti, oziq-ovqat ta'minoti, yotoqxona va turar joy muammolari bayon etiladi. Chelyabinsk va Chkalov viloyatlaridagi mehnat sharoitlari va ishchilarga bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Safarbarlik, "mehnat armiyachilari", ikkinchi jahon urushi, Ural, davlat arxivlari, Chelyabinsk, Chkalov, sanoat, qurilish, mehnat, oziq-ovqat, taom, ta'minot, kasallik.

Kirish. Tariximizning ham "qonli", ham "shonli" davrida xalqimizning mardlik, jasorat va vatanparvarlik fazilatlarini haqiqiy "sinovlarda" toblandi. XX asrning fojialaridan biri, insoniyat tarixida misli ko'rilmagan yo'qotishlarga sabab bo'lgan, o'z davrida tarixni o'zgartirib yuborgan Ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga ne-ne kulfatu, ne-ne g'amlarni soldi.

Bu vaqtda yurtidoshlarimiz XX asrning 30-yillaridagi mash'um voqealar, maburiy kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun jarayonlari, 1937-1938 yillardagi "Katta qirg'in" siyosatlarining fojiali oqibatlarini hali esidan chiqarib ulgurmagani edi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan Ikkinchi jahon urushi davri haqida ko'plab izlanishlar olib borilib, tadqiqotlar natijalari yuzasidan maqolalar, risola va monografiyalar chop etilmoqda.

Tarixda bu davr nuqtai nazaridan o'rganganda, aynan Ikkinchi jahon urushi yillarida harkatdagi askar maqomidagi "qurolsiz askarlar" tarixi va taqdirini alohida masala sifatida tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Mazmun va mohiyati. Harbiy yillarda, ya'ni 1942-1944 yillar oralig'ida Ittifoq Mudofaa Qo'mitasining 1942 yil 14 oktabrdagi №2414-raqamli "mutlaqo mahfiy" qarori bilan O'rta Osiyo respublikalaridan 350 ming ishchi kuchi Ural hududlaridagi ishlab chiqarish va sanoat korxonalariga safarbar etilgan bo'lib, ularning 150 ming nafari O'zbekistonlik edi. Ular Ural hududlaridagi 14 ta Xalq

komissarligiga qarashli bo'lgan 111 ta [1] ishlab chiqarish va sanoat obyektlariga og'ir mehnatga safarbar qilingan.

Avvalgi maqolalarimizda "Qurolsiz askarlar" kim?, Ularning kategoriyalari, hududlar bo'yicha taqsimoti, sanoat va ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnat faoliyati bilan bog'liq masalalar bir qism yoritilgan [2].

Ushbu maqolada esa, og'ir va mashaqqatli mehnat uchun noqulay sharoitlar va mehnat unumdorligining pasayish sabablari haqida so'z yuritishni ma'qul bildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ma'lumotlar Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi (GARF), Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi (GRASPI), Chelyabinsk viloyati birlashgan davlat arxiv (OGACHO) larining 30 dan ortiq fondlarida saqlanayotgan birlamchi arxiv xujjatlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi, "Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi" arxiv manbalaridan foydalanildi.

O'rta osiyo harbiy okrugi (O'OHO, SAVO – rus tilida) mehnat armiyachilari uchun Janubiy Uraldagi maishiy hayot va oziq-ovqat ta'minotidagi o'zgarishlar jiddiy muammolarga sabab bo'ldi. YA'ni, O'rta osiyoliklar uchun odatiy bo'lgan oziq-ovqatlar tarkibi ularga xos bo'lmagan ovqatlanish ratsioniga o'zgardi. Guruch, uy noni, paxta moyi, qo'y go'shti va qo'y moyining o'rni kartoshka, krupa, qora non, mol go'shti, mol va cho'chqa yog'iga o'zgardi. Ko'k choy, qurutilgan mevalar umuman yo'q edi.

Shuningdek, iqlimning almashishi ham mehnat armiyachilarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa 1943-1944 yillarda Janubiy Uraldagi mehnat armiyachilari sonining kamayishiga olib keldi. 1943 yilning mart oyida O'rta Osiyo respublikalaridan bo'lgan ishchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazgan Chelyabinsk shahar sog'liqni saqlash bo'limi mehnatkashlarning "kasallanishining asosiy sabablari" sfiatida quyidagi omillar asos qilib ko'rsatildi:

- iqlimning o'zgarishi.
- oziq-ovqat tarkibi va ratsionning o'zgarishi (ya'ni, quyuq ovqatlar, sabzavot va mevalar kam iste'mol qilingan).
- suv tarkibining o'zgarganligi (tibbiy tashxislarda invon organizmining quvvatsizlanganligini ko'rsatgan).
- safarbar qilinganlar orasida 50 dan 60 yoshgacha bo'lgan ishchilar borligi va ularning madori yetmaganligi va boshqa sabablarni keltirish mumkin [3].

Mehnat armiyachilari uchun yashash tarzi va sharoitlarning nobopligi, hayotning zerikarli va bir maromdaligi, istiqomat joylaridagi minimal sanitariya-gigiyena va maishiy sharoitlari, ish joylaridagi kuchaytirilgan mehnat faoliyati, mehnat smenasidan keyin meyoriy dam olish imkoniyatining amalda yo'qligi, oziq-ovqat va kiyim kechak ta'minoti masalalarining oxirigacha hal qilinmaganligi ham ta'kidlash lozim.

Bunday holatlarda insonlar o'limi ham ko'paygan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tushlikda birinchi va ikkinchi ovqat berilgan vaqtda o'rta osiyolik mehnat armiyachilari kolbasa, kotlet, pishloq, ayrim baliq turlaridan tayyorlangan ovqatlarni yeyishmagan. Bunda, islom dinida man qilingan hayvon go'shtlaridan foydalanilgan degan, xulosaga kelishgan. Shuning uchun, aksariyat mehnatkashlar ikkinchi ovqatni sotishgan va pullarini asrab yurishgan. Misol uchun: "Kopeyskko'mir" trestida vafot etgan shaxtyorlarning birining choponiga tikilgan 15000-20000 so'm pul topilgan va bu holatlar yagona bo'lmagan [4].

Mehnat armiyachilarini kutib olish ham turli korxonalarda turlicha bo'lgan. Masalan, Chkalov viloyati Novotroitsk shahrida zavod rahbariyati O'OH mehnat armiyachilari uchun toza va yorug' yotoq joylar hamda ko'rpa-to'shak buyumlari qo'yilgan yotoqxona, ya'ni jami 16 ta uyni tayyorlaganlar. Orsk shahrida O'rta Osiyoliklarni yetkazib kelgan eshelonni kutib olish uchun Chkalov nomidagi neft haydash zavodi uchun safarbar qilingan mehnat armiyachilari bo'lgan eshelonni musiqalar bilan kutib olishgan, choy tayyorlangan, shu yerda mehnat armiyachilarining zavod ishchilari bilan tanishuvi bo'lib o'tgan. Shundan so'ng O'rta osiyoliklarni dezinfeksiyaga, sartaroshxona va hammomga yuborilganlar.

Janubiy Ural nikel kombinati quruvchilari bo'lgan O'OH mehnat armiyachilari uchun ma'muriyat tomonidan yotoqxonalarda toza ko'rpa-to'shakli o'rinlar tayyorlangan. Ammo, Miassa shahrida esa 1943 yil bahorida mehnat armiyachilari kelishi arafasida yotoqxonalar tayyor emas edi.

1944 yil yanvariga qadar bu masalada o'zgarish yuz bermadi, arxiv xujjatlarida "o'rta osiyo respublikalaridan kelgan va Stalin nomidagi №661-zavodda mehnat qilayotgan ishchilar juda og'ir sharoitlarda yashamoqdalar, yotoqxonalar jihozlanmagan" degan yozuvlar qayd etilgan [6].

1943 yil boshida Kuybishev (hozirgi Samara) viloyati korxonalarida o'rta osiyoliklardan 6714 nafardan aprel oyida 1979 nafar ishchilar qolgan, bu esa safarbar qilinganlarning 29,48% tashkil qilgan [7].

O'OH mehnat armiyachilarining Janubiy Uraldagi miqdori o'zgarishining to'liq manzarasini Chelyabinsk va Chelyabinsk viloyatining alohida xo'jalik obyektlarida 1943 yil yanvarda Qurilish boshqarmasida 2225 nafardan 93 nafar ishchi qolgan, xolos [8].

"MAZIS" avtomobil zavodida 1943 yil bahorida O'rta Osiyo respublikalariga 802 kishi safarbar qilingan bo'lib, 1944

yilning 1 yanvarida 557 nafarga kamayib 245 nafar ishchi qolgan. Shundan 346 nafari kasallik, 211 nafar esa janjal chiqarganliklari uchun ortga qatarib yuborilga [9].

1944 yilning 1 yanvar holatida Chelyabinsk viloyatining ayrim korxonalarida O'OH mehnat armiyachilari umuman qolmagan. Hujjatda qayd etilishicha, ishchilar "kasallik, boshqa qurilishlar, armiyaga yuborish sababli ular Toshkent shahridagi metallurgiya zavodi qurilishiga jo'natilgan" [10].

Hisobotlarga ko'ra, 1943 yil Chelyabinsk viloyati korxonalari va xo'jalik subyektlaridan 8394 nafar O'rta Osiyolik mehnat armiyachilari turli sabablar bilan ketib qolgan [11].

Mehnat armiyachilarining juda ko'pchiligi rus tilini yaxshi bilmasliklari, amaliy malaka va ishchi kasblariga ega bo'lmaganligi, texnika xavfsizligi qoidalaridan to'liq tanish bo'lmaganliklari tufayli ish faoliyatida murakkabliklarni keltirib chiqargan. Shu sababli, korxonalardagi ish kuchi taqimotida son jihatdan to'liq, ammo sifat jihatdan samara bermagan holatlar ham ko'p bo'lgan [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tarixiylik va qiyosiy tahlil metodologiyasidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1943 yilning ikkinchi yarmidan Janubiy Uralga yangi mehnat armiyachilarining safarbar etilishining to'xtatish vaqti yetgan edi. Buning bir nechta sabablari bo'lib, asosiysi, Davlat mudofaa qo'mitasining 1942 yil 14 oktabrdagi №2414-sonli qarorida belgilangan asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha reja bajarilgan edi. Ammo, xujjatlardan aniqlanishicha bu holat bo'yicha mehnat armiyachilarini jalb etish to'la tugallanmagan edi.

Qolaversa, 1943 yilning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo respublikalarining o'zida ham sanoat va ishlab chiqarish obyektlarining yangilari qurilishi, amaldagilarini kengaytirish jadallik bilan olib borildi. Bu obyektlarning qurilishini muvafaqqiyatli yakunlash va ishga tushirish uchun muayyan miqdordagi ishchi kuchi talab qilinardi. Aynan o'sha vaqtda O'rta Osiyo mintaqasida mudofaa sanoati korxonalari uchun ko'rsatilayotgan davrda 17 000 nafar ishchi kuchi yetishmovchiligi bor edi [13].

Davlat mudofaa qo'mitasining qaror va farmoyishlari bilan O'rta Osiyo respublikalarida sanoat, qurilishda mehnat qilish uchun 1943 yilning oktabridan 1944 yil oktabri oyiga qadar O'OH harbiy majburiyatlaridan 24700 kishi jalb qilingan.

Davlat mudofaa qo'mitasining 1943 yil 17 oktabrdagi "O'rta Osiyo respublikalari harbiy majburiyatlarini va boshqa aholisini respublika hududlaridan tashqaridagi ishlarga safarbarlik qilmaslik va mazkur respublikalardan bo'lgan ishchilariga xizmat ko'rsatishni yaxshilash to'g'risida"gi №4348 Qarori qabul qilinganidan keyin ham O'OH mehnat armiyachilarini o'z hududidan tashqarida bo'lgan sanoat va qurilish ishlariga safarbar qilish to'xtamadi [14]. Jumladan, IIXK uchun metallurgiya zavodlari bunyod etayotgan ikki qurilish boshqarmasi – Chelyabinsk metall zavodi va "Zakavkazmetallurgstroy" [15] uchun ishchi kuchini yetkazib berish davom etdi.

1944 yil 13 apreldan 24 sentabrgacha muddatda O'rta Osiyo respublikalaridan 4403 kishi Gruziyadagi qurilishlarga jo'natilgan [16]. Shuningdek, 1944 yilda jami bo'lib O'rta Osiyo respublikalaridan IIXK turli hududlarda amalga oshirayotgan sanoat obyektlari qurilishlariga 16 192 kishi jo'natilgan [17].

Bu davrga kelib, O'rta osiyolik mehnat armiyachilarining huquqiy maqomi ham o'zgarib, 1944 yil oktabrdan ular ixtiriy ravishda "erkin yollanganlar" toifasiga o'tkazila boshlanadi [18]. Bu masalalad har bir xodim bilan alohida mehnat shartnomalari tuzilgan.

1945 yil yanvar-may oylarida sobiq O'OH O mehnat armiyachilarining mehnatga yaroqli kontingentidan 1000 nafar kishi yangi maqomga ega bo'lgan [19].

Xulosa va takliflar. Ittifoq Davlat Mudofaa Qo'mitasining 1942 yil 14 oktabridagi №2414-son qaroriga asosan O'rta Osiyo harbiy okrugidan Janubiy Uralga safarbar qilingan mehnat armiyachilarining harakatdagi armiyaga tenglashtirilishi natijasida fanda "qurolsiz askar" tushunchasi kirib keldi. Bu ta'rifni XX asrning 80-yillarida tojikistonlik Fotih Niyoziy o'zining "Soldati bez orujiye" asarida ta'riflab bergan edi. Tarixiy manbalarda aslida "qurolsiz askar" tushunchasi harakatdagi asrkarlar saflarida yurgan "tibiiyot xodimlari"ga nisbatan ishlatilgan.

Safarbarlik siyosatining yana bir jihati iqtisodiy ehtiyojlarni qoplash, ularning mehnatidan samarali foydalanish, mazkur qaror talablarini hayotga tatbiq etishda davlat hokimiyati organlarining faoliyati xususiyatlari, joylarda sanoat va qurilishni boshqarishdagi davlat manfaatlar talablari harbiy davrning asosiy talabi sifatida belgilanganligi bilan ahamiyatli.

DMQ ning №2414-sonli qarori bilan O'OH O mehnat armiyachilarini mamlakat iqtisodiyoti uchun safarbar qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlari to'laqonli bajarilib, reja

351 750 nafar kishiga bajarilganligi bilan isbotlanadi. Bu holatda 1942-1944 yillarda Ural va Janubiy Uraldagi sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman millatisha mansub kishilar fidokorona mehnat qilganliklarini va Ikkinchi jahon urushi g'alabasi uchun munosib hissa qo'shganliklarini alohida ta'kidlash lozim.

1944 yillarning o'rtalagiga kelib mehnat armiyachilarining safarbarligi to'xtatilishi sababini O'rta Osiyo respublikalarining o'zida yangi iqtisodiy obyektlar, qurilish maydonlarining kengayganligi bilan belgilash maqsadga muvofiq.

Germaniya rahbariyati Sovet Ittifoqiga urush boshlar ekan mamlakatning ko'p millatli davlat sifatida milliy nizolar paydo bo'lib parchalanishiga umid bog'lagan edi. Lekin buning aksi o'laroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatdagi barcha millat va elatlar bir yoqadan bosh chiqarib, ona yurt, ona Vatani uchun kurashdi. "Hamma narsa – front uchun", "Ona – Vatan kutadi" kabi umumbashariy g'oyalar asosida kurashdi. Frontdagi g'alabalar armiya jangchilarining ommaviy qahramonligi, "qurolsiz askarlar"ning mashaqqatli mehnati va Ittifoq barcha millat mehnatkashlarining front ortidagi yagona maqsaddagi harakati bilan qo'lga kiritildi.

ADABIYOTLAR

1. GARF (Rossiya Federatsiyasining Davlat arxivi). Fond - 9517, ro'yxat -1, ish-26, 28-31-varaqlar.
2. Shamsutdinov R. O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan hissasi. // Vodiynoma, 2019. №3 (14). – B.2-31; Shamsutdinov R., Qurbonov X. Mehnat armiyachilari – "Qurolsiz askarlar"ning g'alabaga qo'shgan hissasi doir // Vodiynoma, 2020. №2 (17). – B.8-25; Shamsutdinov R., Xoshimov S., Qurbonov X. "Qurolsiz askarlar" // Vodiynoma, 2020. №3 (18). – B.58-62 va b.
3. OGACHO (Chelyabinsk viloyati birlashgan davlat arxivi). Fond - P-297, ro'yxat – 2, ish -876, varaq - 8.
4. OGACHO. Fond - P-297, ro'yxat – 2, ish – 876, varaq - 33.
5. OGACHO. Fond - P-288, ro'yxat – 8, ish – 261, varaqlar 3-5, 7, 8, 11, 41, 43, 45, 49, 50, 53, 59, 60, 86.
6. OGACHO. Fond – 1025, ro'yxat – 1, ish – 32, varaq - 32.
7. RGASPI. Fond – 17, ro'yxat – 122, ish – 50, varaqlar - 26, 27.
8. OGACHO. Fond - P-288, ro'yxat – 8, ish – 261, varaq - 5.
9. OGACHO. Fond - P-288, ro'yxat – 8, ish – 261, varaq - 41.
10. OGACHO. Fond - P-288, ro'yxat – 8, ish – 261, varaq - 8.
11. OGACHO. Fond - P-288, ro'yxat – 8, ish – 261, varaqlar – 3-5, 7, 8, 11, 41, 43, 45, 49, 50, 53, 59, 60.
12. Yermolov, A.Y. Tankovaya promishlennost SSSR v godi Velikoy Otechestvennoy voyni. M., 2009. - S.115.
13. RGASPI. Fond – 17, ro'yxat – 122, ish – 37, varaq - 69.
14. RGASPI. Fond – 644, ro'yxat – 1, ish – 164, varaq - 92.
15. RGASPI. Fond – 644, ro'yxat – 1, ish – 220, varaqlar – 226-232.
16. GARF. Fond - R-9414, ro'yxat – 1, ish – 1222, varaqlar - 13, 20, 25, 27, 36, 41, 43.
17. GARF. Fond - R-9414, ro'yxat – 1, ish – 1222, varaq - 77.
18. OGACHO. Fond - R-1619, ro'yxat – 2, ish – 19, varaq - 73.
19. OGACHO. Fond - R-1619, ro'yxat – 2, ish – 16, varaqlar - 71, 91.



UDK:80/82

Sherzod MA'RUF OV,
Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: Sherzodmarufov1@gmail.com

PhD, dotsent B.Nasirov taqrizi asosida

NEW VIEWS ON THE MEDIEVAL MATERIAL CULTURE OF THE LOCATIONS IN SIRDARYA REGION

Annotation

The territories of the present Syrdarya region were part of Northern Ustrushona in the Middle Ages. From a geographical point of view, the northern part of Ustrushona, the so-called northern Ustrushona, the lower reaches of Shahristanoi, Khojamushkentsoi basins and the plain desert part of the region (Mirzachol) remain the least studied cultural oasis from an archaeological point of view. However, since ancient times, the material and spiritual culture of the peoples of the country, located at the crossroads of several cultural countries, has been unique and rich. The main archaeological research in this country began in the 40s and 50s of the 20th century and continues until now. In this article, we would like to present new ideas by analyzing several settlements in the region based on archaeological and written sources.

Key words: Kultepa, Eski Khavos, Koshtepa, Sabat, Hyderabad, Shahristonsoy, Ibn Havkal, Archaeologists, remains of the caravanserai, physical evidence, pattern and red top, set of dishes, "Highway", "Roads and countries", "Zafarnama".

НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА СРЕДНЕВЕКОВУЮ МАТЕРИАЛЬНУЮ КУЛЬТУРУ МЕСТА СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Территории нынешней Сырдарьинской области в средние века входили в состав Северной Уструшоны. С географической точки зрения наименее изученными с археологической точки зрения культурными оазисами остаются северная часть Уструшоны, так называемая Северная Уструшона, низовья Шахристаной, Ходжамушкендой котловин и равнинная пустынная часть региона (Мирзачоль). Вид. Однако с древнейших времен материальная и духовная культура народов страны, расположенной на стыке нескольких культурных стран, была уникальной и богатой. Основные археологические исследования в этой стране начались в 40-50-х годах 20 века и продолжаются до сих пор. В этой статье мы хотели бы представить новые идеи, проанализировав несколько поселений региона на основе археологических и письменных источников.

Ключевые слова: Култепа, Эски Хавос, Коштепа, Сабат, Хайдарабат, Шахристонсой, Ибн Хавкал, Археологи, остатки караван-сарая, вещественные доказательства, узор и красный верх, набор посуды, «Шоссе», «Дороги и страны», «Зафарнама».

SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR

Annotatsiya

Hozirgi Sirdaryo viloyati hududlari o'rta asrlarda Shimoliy Ustrushona tarkibida bo'lgan. Geografik nuqtai nazardan shimoliy Ustrushona, deb atalayotgan Ustrushonaning shimoliy qismi, Shahristonsoyning quyi oqimi, Xo'jamushkentsoy havzalari va hududning tekislik cho'l qismi (Mirzacho'l) arxeologik jihatdan hozirga qadar eng kam o'rganilgan madaniy voqea sifatida qolmoqda. Vohalanki, qadimdan bir qancha madaniy o'lkalar chorrahasida joylashgan o'lka xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos serqirra va boy bo'lib kelgan. Bu o'lkada asosiy arxeologik tadqiqotlar XX asrning 40-50-yillaridan boshlanib, hozirga qadar davom etib kelmoqda. Ushbu maqolamizda Viloyat hududidagi bir qancha manzilgohlarni arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilish orqali yangi fikrlarni bildirib o'tmoqchimiz. Shu paytgacha viloyat hududidagi manzilgohlarda ilmiy izlanish olib borgan bir qator olimlarimiz bu hududlar o'rta asrlarda faqat Ustrushona tarkibida bo'lganliklari xususida fikr bildirishardi. Ammo so'ngi tadqiqotlar shuni ko'rsatayotgani, viloyat hududidagi va unga yondosh bir qancha manzilgohlar Choch hokimligi tasarrufida bo'lgan bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Kultepa, Eski Xovos, Qo'shtepa, Sabat, Haydarobod, Shahristonsoy, Ibn Xavkal, Arxeologlar, karvon saroy qoldiqlari, ashyoviy dalillar, naqshin va usti qizil, idishlar majmuasi, "Katta yo'l", "Yo'llar va mamlakatlar" asari, "Zafarnoma".

Kirish. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng barcha sohalar qatori tarix faniga ham e'tibor o'zgacha ahamiyat kasb eta boshladi. Yurtimizning tarixi Samarqand, Buxoro, Farg'ona hududlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida bir necha ming yoshqa qadimiyroq ekanligi isbotlandi. Lekin bir hudud borki tarixchi olimlarimizning e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. Bu Sirdaryo viloyati hisoblanib nafaqat xalqimiz aholisi balki keng jamoatchilik ham bu viloyat tarixini nari borsa XX asrning 50-yillariga borib taqaladi deb hisoblashadi. Biz bu ilmiy izlanishlarimiz orqali viloyatning tarixini qadimiylikda Samarqand, Buxoro,

Choch mintaqalaridan qolishmasligini isbotlashga harakat qilmoqdamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umuman olganda, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda hozirgi Sirdaryo viloyati hududlarida o'troq va ko'chmanchi aholiga oid yodgorliklar XX asrning 40-chi yillaridan o'rganila boshlandi. 1970-90-chi yillarda shimoli-g'arbiy Ustrushona hududida O'zR FA Arxeologiya Instituti ilmiy xodimlari A.E. Berdimurodov, S.R.Raximov, U.A.Alimov, M.X.Pardaev, A.A.Gritsina, L.M.Sverchkov va boshqalar tadqiqotlar olib borishdi. Mustaqillikdan keyin bu hududlarni o'rganish yangicha

ahamiyat kasb eta boshladi. Arxeologik va yozma materiallarni tahlili natijasida bir guruh olimlar A.A.Gritsina, S.S.Qudratov, O'Erbutayeva, B.To'ychiboyev, O.Mamirov va boshqalar o'zlarining izlanishlarida viloyat tarixini yoritishga katta hissa qo'shishmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiylik, obyektivlik, tizimlilik kabi asosiy metodologik tamoyillardan foydalanilgan holda, Sirdaryo viloyati hududidagi manzilgohlar arxeologik va yozma manbalar asosida tarixiylik nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. O'lka hududida ilk o'rta asrlar (V-VIII asrlar)ga oid yuzdan ziyod yodgorliklar aniqlanib, xaritaga tushirilgan. [1] Hududda o'rganilgan Mink manzilgohi, Kultepa, Eski Xovos, Qo'rg'ontepa (Zomin) shahristonlari, Qo'shtepa yodgorliklari ilk o'rta asrlar o'lka moddiy madaniyatining ko'plab muammoviy masalalari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi noyob yodgorliklar hisoblanadi[2].

O'lka hududidagi ilk o'rta asrlar davridagi eng yirik yodgorlik - Qo'shtepa sanaladi. Uning hususiyati shuki, u yon-atrofdagi hududdan ariq va devor bilan himoya qilingan arkdan iborat. Arkni ikkita tepalik tashkil etadi. Shahriston va uning yonidagi aholi manzilgohi katta hududni egallagan. Qal'a va atrofdagi qishloqlar, saroylar Tag'obsoy bo'yida joylashgan. Qazish ishlari natijalariga ko'ra u arablar bosqini oldidan aholi tomonidan tashlab ketilgan bo'lgan. Buning sababi suv resurslarining o'zgarishi yoki siyosiy voqealar bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday katta shahar va atrofdagi qishloqlar uchun Tag'obsoy suvi yetmasdi ham. Qadimgi va o'rta asrlarga oid suv inshootlari tarixi bilan shug'ullangan A.I.Bilalov fikricha, Tag'obsoyga Shahristonsoy suvlari ham quyilib, poytaxt Bunjikat va uning atrofidagi qishloqlarni ham suv bilan ta'minlagan. Bu soyning suvi Qo'shtepa shahristoniga Balandchaqir qishlog'i orqali hozir ham ishlab turadigan kanallari tizimi orqali o'tkazilgan bo'lishi mumkin.

Mazkur suv manbalari atrofida arxeologik yodgorliklarning ko'pligi bu yerda Ustrushonaning rustaklari(rayonlari)dan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Taxminan, bu Varkin rustagi bo'lishi mumkin, lekin u haqda yozma manbalarda ma'lumotlar uchramaydi, faqatgina uning nomi eslatib o'tiladi, xolos. Bu nomga yaqin nomlar hozirgacha qishloq va kanal Varkin nomi bilan saqlanib kelmoqda. Shunday ekan, Qo'shtepa shahristonida mazkur rustakning, ya'ni Varkin rustakining markazi joylashgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik uning aholisi janubga siljigan.

O'lka xududidagi ilk o'rta asrlarga oid yana bir yirik yodgorlik bu Savot rustakining markazi deb e'tirof etilayotgan Kultepa yodgorligi xisoblanadi. Kultepaning ark va shahriston qismida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida kumush tangalar va zargarlik buyumlaridan iborat bo'lgan xazina topilgan. Taniqli olim, akademik, E. V. Rtveladzening aniqlashicha, tangalar sosoniylar podshosi Peroz (459-484 yy) tomonidan zarb etilgan bo'lib, podsho efitlirlarga to'laydigan o'lponning bir qismi bo'lgan bo'lishi mumkin. Demakki, Kultepa V asrdayoq yirik shahar maqomiga ega bo'lgan.

Rivojlangan o'rta asrlarda ya'ni X-XV asrlarda Ustrushona xududi 18 rustakka bo'lingan, ularning yarmi shimoliy qismida joylashgan edi. Har bir yirik rustakning markazi o'sha nom bilan nomlangan shahar bo'lgan. Arab geograflari bir qator shaharlar nomlarini keltirishadi. Istaxriy bo'yicha Ustrushonada 10 ta shahar bo'lgan. Demak, bu yerdagi urbanizatsiya ko'rsatkichi yuqori bo'lmagan. Qiyoslash uchun shuni aytish mumkinki, Chochda 40 ta shahar, Farg'onada esa - 39 ta shahar bo'lgan.

Bu o'rinda, mashhur sharqshunos olim, V.V.Bartoldning «Ustrushonaning shahar hayoti kam rivojlangan edi», degan fikri to'g'ri bo'lib chiqmoqda. O'lkaning iqtisodiy salohiyati ham yuqori bo'lmagan. Bu haqda xiroj solig'ining hajmi dalolat beradi. Bu xiroj Xuroson

hokimi Abu-l Abbos Abdulloh ibn Tohirga IX asrning birinchi yarmida to'langan edi. Unda Ustrushona uchun u 50 ming dirxam hajmida belgilangan holda, Choch(qadimgi Toshkent vohasi) uchun - 607100, Xo'jand uchun -100 000, Farg'ona uchun - 280 ming dirxam bo'lgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining qo'shni o'lkalarga chiqarilishi bu yerda sun'iy sug'orishga asoslangan dehonchilik madaniyati rivojlanganini ko'rsatadi. A.I.Bilolovning tadqiqotlariga ko'ra ushbu davrda Ustrushonada 3 mingdan ziyod irrigatsiya inshootlari ishlab turib, ular 200 ming gektardan ko'proq yerni sug'organ.

Shaharlar, asosan karvon savdo yo'llarida joylashgan. Masalan, Zomin Ustrushonaning ikkinchi shahri bo'lib, shu nomdagi rustakning markazi ham bo'lgan. Unda ko'plab bozorlar, karvonsaroylar, masjidlar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari u ikkita sertqatnov yo'lining urtasida joylashgan: Xovos yo'li (Xavkal) va Xo'jand hamda Farg'ona orqali Xitoyga olib boradigan yo'l bo'yida.

Rivojlangan o'rta asrlarda Sirdaryo hududida arab geograflari tomonidan eslatib o'tilgan ikkita manzilgoh bor. Bu Sabat va Xovosdir.

Ilk o'rta asrlarda manbalarda tilga olingan Sabat rivojlangan o'rta asrlarda oldingi o'rnidan bir oz shimoliy - g'arbda joylashadi. Bu davrda Sabat o'z nomidagi rustakning markazi bo'lgan. Ibn Xo'rdodbeh ma'lumotlariga ko'ra, u Zomindan ikki farsah nariroqda joylashgan. Istaxriy bo'yicha esa - uch farsah narida. Geograflarning bir qismi Sabatni Ustrushona shaharlaridan biri deyishsa (Istaxriy, Xavkal, Yoqut), ayrimlari (Muqaddasiy va Qudamiy) uni katta qishloq bo'lgan deb hisoblashadi.

Kultepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uni o'rta asrlar Sabati ekanligi aniqlandi. Sabatning Kultepa o'rnida joylashganligi bu hududdagi o'rta asrdagi yo'lni to'g'rilaydi. Aks holda, karvonlar shimolga burilishga, Savat cho'liga kirib ketishga va shundan so'ng yana "katta yo'lga" qaytishga majbur bo'lardilar. Sabatning Kultepa o'rnida bo'lganligi Bunjikatning Shahriston qishlog'i o'rnida bo'lganligini ham asoslaydi. Chunki, Istaxriyning yozishicha, "Ustrushonaning bosh shahri va Sabat oralig'i... uch farsax" bo'lgan. Kultepadan janubi-sharqda aynan Shahriston joylashgandir.

Demak, rivojlangan o'rta asrlarda Sabat - o'lkaning muhim manzilgohlaridan biridir. Arab manbalarida yozilishicha, shahardan katta ariq oqib o'tgan, uni bog'lar o'rab turgan bo'lgan. Shaharning axamiyati yana shundaki, unda passaj tipidagi tomlar bilan berkitilgan bozorlar bo'lgan. O'rta asrlardagi yopiq bozorlar boshqa joylarda ham bo'lgan (Chag'oniyon, Zemina, Amul). O'rta asrlar tarixi bo'yicha yirik mutaxassis, arabshunos olim, O.G.Bolshakov fikricha, Sabatdagi bozor taxta-yog'och tom bilan yopilgan edi. Boshqa manbalarda eslatib o'tilgan muhim narsa shuki, Sabat yo'llar chorrahasida joylashgan. Ulardan biri «bosh shaharga» (Bunjikatga) olib borgan. Bu yo'l Xo'jamushkentsoyning Shahristonga qarab yuqori oqimi bo'ylab borgan. Sabatdan Xovosga olib boradigan yo'l ham mavjud bo'lib, u Shoshgacha yetgan.

Sabatning uch yo'l chorrahasida joylashganligi sababli, akademik, A.R.Muhammadjonov tomonidan bildirilgan «Sabat» so'zining etimologiyasi to'g'ri bo'lib chiqadi. Ma'lumki, olimimiz uni «Sebat», ya'ni «uch karvon-saroy» deb izohlagan edilar.

Sabat shahrining janubiy qismida joylashgan shahriston hududi 10 gektardan kam bo'lmagan maydonga ega bo'lgan. Arkdan janubi-g'arbda hunarmandlar kvartali bo'lgan, bu yerda ko'plab kulolchilik buyumlari qoldiqlari va sopol pishirishga mo'ljallangan xumdonlar topilgan.

Somoniylar davrida (X- XI asr)gi Sabat ilk o'rta asr davridagi Sabatdan shimoliy-g'arbda joylashgan. Yangi arkning maydoni 0,25 gektar, balandligi 7 metr bo'lgan.

Qazish ishlari natijasida bu yerda hashamatli imorat ochilgan, undan topilgan tanga va sopol buyumlar nusxalari X-XI asr boshlariga to'g'ri keladi. Mazkur imorat bundan ertaroq qurilgan memorchilik inshooti devorlari ustida qurilgan.

Sabat XI asr o'rtalarida tashlandiqqa aylandi, XII-XIII asrlar boshida esa bu yerda qoraxoniylar davriga oid qabriston joylashgan. Bu qabriston shaharni ikki qismga ajratadi. "Eski" (ilk o'rta asrlar va somoniylar davridagi) shahar tashlandiq bo'lib, "yangi" (qoraxoniylar davridagi) shahar soy bo'yab shimol tomon rivojlana borgan. Arxeologlar tomonidan o'rganilgan hashamatli me'morchilik, zindon, yuqori sifatli idishlar qoldiklari bu yerda qoraxoniylar davrida Sabatning hokimlari yashagan saroy majmuasi bo'lganligidan dalolat beradi. Shaharning shimoliy qismida "II" shaklidagi tepalik bor. Uning tagida karvon saroy qoldiqlari bo'lishi mumkin. Bu yerda paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imorat ochilgan bo'lib, yong'in tufayli yog'och ustunlari kuyib ketib, xarobaga aylangan. Topilgan ashyoviy dalillar XII-XIII asr boshi bilan belgilanadi.

Shaharning xususiyati - tashqi mudofaa inshootlarining yo'qligidir. Shaharning eng gullab-yashnagan davrida uning maydoni 45-50 gektardan kam bo'lmagan. Bu yerdagi iqtisodning rivojlanishiga uning xalqaro karvon yo'li (Buyuk ipak yo'li) da joylashganligi sabab bo'lgan. Qazish ishlari davomida topilgan ko'pgina topilmalar shaharning keng xalqaro aloqalari haqida dalolat beradi. Ushbu yodgorlikdan Ustrushona uchun ilk maratoba yuqori sifatli naqshin va usti qizil idishlar majmuasi topilgan.

XIII asr boshida shahardagi hayot to'xtab, temuriylar davri (XIV-XV asrlar) Sabati Xo'jamushkentsoyning o'ng qirg'og'iga ko'chib o'tadi va endi bu yodgorlik Maytepa deb atala boshlaydi.

Rivojlangan o'rta asrlarga oid o'lkadagi yana bir yirik manzilgoh bu Xovos yodgorligidir. O'rta asrlardagi Xovos shu nomdagi rustakning markazi bo'lgan. Xovos barcha IX-X asrlar yo'l yo'riqnomalarida So'g'ddan Ustrushona orqali Choch, Xo'jand, Farg'onaga borish va qaytish yo'li manzili tarzida eslatiladi. O'z vaqtida "Xovos yo'li" va "Benakent yo'llari" ham baravar mashhur bo'lib, bir biri bilan mustahkam bog'liq bo'lganlar. V.V. Bartoldning ta'kidlashicha, Chirchiq vohasiga ikki yo'l: biri Xovosdan va ikkinchisi Jizaxdan borgan[3]. Xuddi shunday Xovosning o'zidan ham Binoketga ikki yo'l: biri anchayin qisqa, Mirzacho'l orqali, boshqasi uzoqroq va xavfsiz Sirdaryoning o'ng qirg'og'i bo'yab borgan. Bundan tashqari, Xovosga o'lka markazi Bunjikat shahridan Ustrushonaning boshqa yirik shahri Sabot orqali ham yo'l bo'lgan. "Katta yo'l" janubroqdan Sabot orqali o'tgan bo'lishiga qaramay, savdo karvonlari odatda Xo'jand va Farg'onaga Xovos orqali borishni qulay deb bilganlar. Xovosning ahamiyati, uning strategik qulayligi, bir tomonda g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga Bunjikat orqali Baktriya(Surxondaryo)ga o'tgan qadimiy muhim savdo va harbiy yo'nalishlar chorrahasida bo'lganligidir[4].

Shunday qilib, miloddan oldingi IV asrning ikkinchi yarmidan to XIX asrgacha qadar Xovos qadim Farg'ona,

Choch va So'g'dda savdo va harbiy harakatlar yo'nalishlari chorrahasidagi qulay va muhim manzil vazifasini bajargan[5].

Yilnomalardagi savdo va harbiy yo'llari estaliklarida Xovos savdo yo'li chorrahasidagi manzilgoh sifatida ko'plab keltirilsada, ammo bevosita shahar to'g'risida ma'lumotlar yo'q.

Bevosita Xovos to'g'risidagi yozma manbalar ma'lumotlari IX asrga to'g'ri keladi. Ibn Xordadbek o'zining mashhur "Yo'llar va mamlakatlar" asarining alohida "Zomindan Farg'onaga yo'l" bobida "Zomindan Xovosgacha 7 farsox va Xovosdan "Shosh daryosi" sohillarigacha 9 farsox deb ko'rsatadi. So'ngra ko'prik orqali Benaket(Shohruhiya)ga o'tiladi deb yozadi[6]. Boshqa bir arab geografi Qudama (X asrning birinchi yarmi) ma'lumotlari bo'yicha Zomindan Xovosgacha 6 farsox yo'l bo'lsa, "... Xovosdan Shosh daryosi (Sirdaryo) kechuvigacha 5 farsox. Bu kechuvdan Benaketgacha 4 farsox[7]. Ibn Rusta (X asrning birinchi yarmi) bo'yicha Zomindan Xovosgacha bir kunlik yo'l[8]. Al-Istaxiy (X asr) bo'yicha esa, "Zomindan Xovos yo'li orqali Farg'ona yo'lidan chapga Kurqatgacha 13 farsox". "Kimki Xovos orqali Zomindan Xo'jandga bormoqchi bo'lsa, u Kurqat orqali o'tadi" deb Ibn Xavkal (X asr) ham ma'lumot beradi[9].

Xulosa va takliflar. X asrga oid madaniy qatlamlar shaharning ark hududida uchraydi. Ushbu davrda Xushket kulollari Shosh uchun xos bo'lgan ilk sirlangan sopol buyumlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishgan. Bu narsa dastlabki xushketliklar bu yerga Shoshdan aniqrog'i daryoning narigi qirg'og'idagi Benaketdan kelishgan bo'lishi mumkinligi to'g'risida fikr bildirishimizga asos bo'ladi. "Buyuk ipak yo'li"da joylashganligi, shuningdek, Shoshga o'tuvchi kechuvda joylashganligi sabab shahar tez rivojlanadi. Shahar aholisining bir qismi qayiqchilar bo'lishgan. Ular daryodan o'tuvchilarni va yuklarni qayiqlarida olib o'tib qo'yishgan. Xushket Shoshning chegarasida joylashgani tufayli, bu yerda muhim bojxona bo'lgan. Chunki Shosh o'lkasi tog' kon ma'danlariga, jumladan kumush konlariga boy bo'lgan, davlat markaziga kumush aynan Shoshdan Xushket orqali So'g'dga olib borilgan. Somoniylar davlati tomonidan zarb etilgan kumush tangalardan hatto uzoq Yevropada ham foydalanishgan. Shuningdek, somoniylar davlatida qul savdosi o'ta serdaromad soho xisoblangan. Qullar nafaqat boylar uyida, shuningdek, davlat armiyasida xizmat qilishgan. Qullar asosan Dashti Qipchoq cho'llarida hayot kechirishgan turkiy qavmlardan turli yo'llar bilan olingan. Ular ham davlat markaziga yuqoridagi kechuv orqali jo'natilgan. Shu sababli ham bu ikki serdaromad savdo qullar va kumush yombilardan maxsus boj olingan. Somoniylar davlatining Qoroxoniylar davlati tomonidan tor-mor etilganligi Xushketga ham ta'sir qilmay qolmaydi. XI-asr boshlarida Xushket qoroxoniylar davlati tarkibida bo'lgan. Yodgorlikdan ushbu davrga pishiq g'ishtlar, qoraxoniylarning Shoshdagi eloqxoni Al-xan-al-adil tomonidan 1003-1004 yillari Binokatda zarb etgan mis tangalar va ushbu davrlarga oid turli sopol buyumlar topilgan[4]. Ushbu davrga oid sopol buyumlar bugunda ham faoliyat yuritadigan mahalliy qabristondan ko'lab topiladi.

ADABIYOTLAR

1. Аминжанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе. // ИМКУ. Вып.8. -Т.: Фан.1969. С.137-142., Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в н.э. АКД. 1990. С.23
2. Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. - начале XIII в н.э. АКД. -Самарканд, 1990, Сверчков Л.М. Поселение Мык – источник по истории средневековой истории Уструшаны. АКД. Самарканд. 1991., Древний Заамин / – Т. 1994.
3. Хордадбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н. Велихановой. Баку,1986, 64 б; Истахри. Китаб Масалик ал-мамалик//Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып.1.М., 1973, 21 б.
4. Бартольд В.В. история культурной жизни Туркестана. Л., 1927, 227 б.
5. Грицина А.А. Уструшанские были. Ташкент,2000, 214-223 б б.

6. Бетгер Е.К. Извлечения из книги “Пути и страны” Абу-л Касыма ибн Хаукаля // Труды САГУ. Ахеология Средней Азии. Ташкент, 1957, 21 б.
7. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. Душанбе, 1957.
8. Solijon Kudratov, Sherzod Marufov. ANCIENT WATERWORKS IN MIRZACHUL. Look to the past. 2021, vol. 4, issue 11, pp.97-101
9. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент, Фан, 2001.



УДК:550.34

Искандар МУМИНОВ,

ННО Международный общественный Фонд имени Шарафа Рашидова, Руководитель проекта

E-mail: info@sharafrashidov.uz

На основе отзыва профессора Университета Ренессанс, д.и.н. Ш. Эргашева

SOURCES ON THE HISTORY OF FOREIGN VISITS OF SHARAF RASHIDOV

Annotation

The publication contains materials from various sources, most of which are periodicals that cover Sharaf Rashidov's foreign visits. In the period from 1955 to 1983.

Key words: Sharaf Rashidov, Foreign visits, Sources, Soviet periodicals, Foreign periodicals.

ИСТОЧНИКИ ПО ИСТОРИИ ЗАРУБЕЖНЫХ ВИЗИТОВ ШАРАФА РАШИДОВА

Аннотация

В публикации приведены материалы из различных источников, большинство из которых данные периодической печати которые освещают зарубежные визиты Шарафа Рашидова. В период с 1955 по 1983 годы.

Ключевые слова: Шараф Рашидов, Зарубежные визиты, Источники, Периодика советская, Периодика зарубежная.

SHAROF RASHIDOVNING XORIJIY TASHRIFLARI TARIXIGA OID MANBALAR

Annotatsiya

Nashrda turli manbalardan olingan materiallar o'rin olgan bo'lib, ularning aksariyati Sharof Rashidovning xorijiy tashriflarini yorituvchi davriy nashrlardir. 1955 yildan 1983 yilgacha bo'lgan davrda.

Kalit so'zlar: Sharaf Rashidov, Xorijiy tashriflar, Manbalar, Sovet davriy nashrlari, Xorijiy davriy nashrlar.

Введение. Период 50 – 80-х гг. XX века в мировой истории был насыщен историческими и эпохальными событиями. Период с 1953 по 1964 гг. был отмечен «хрущевской оттепелью», окончанием Корейской войны «Война 25 июня» (южнокорейская историографии) или «Отечественная освободительная война» (для северокорейской историографии), венгерскими событиями 1956 г., чехословацкие события «Пражская весна» 1968 г., разрывом отношений Китая с СССР, Берлинским и Карибским кризисами. На 1969-1979 гг. пришлось «Брежневская разрядка», принесшая окончание Вьетнамской войны, Пражскую весну, начало войны в Афганистане. В этот период времени Шараф Рашидов принимал активное участие в международной жизни СССР.

Исследовательская часть. Ш.Р. Рашидов за период 50 – 80-х гг. XX в. возглавлял дипломатические визиты или являлся членом советских делегаций почти во все страны мира, с которыми у СССР в то время были дипломатические отношения. В частности, в 1957–1958 гг. Шараф Рашидович возглавлял советскую делегацию на Первую конференцию солидарности стран Азии и Африки, которая проходила с 26 декабря 1957 года по 1 января 1958 года в Каире. Как писал об этой конференции Шараф Рашидович: «Торжественное открытие конференции состоялось 26 декабря 1957 года. На ней были представлены 45 стран, население которых превышает половину всего человечества. Здесь встретились как равные с равными люди разных рас и наций, различного социального положения, различных политических и религиозных убеждений. Но мысли и надежды всех их были устремлены к одной цели – к уничтожению тирании, угнетающей народы, к укреплению единства, дружбы и братства, установлению прочного мира во всем мире» [1].

В 70-х годах XX века Шараф Рашидов совершал визиты по странам Азии, Африки, Латинской Америки и Европы. Произошедшие во внешней политике СССР изменения расширяли географию дипломатических поездок. Уделялось внимание развитию отношений с Чили. Советский Союз продолжал оказывать экономическую помощь Алжиру и Ираку. Налаживались взаимоотношения с главами мировых государств и развивались культурные связи со странами Европы, в частности с Италией, Румынией, Болгарией, в Азии – с КНДР, Индией, Вьетнамом.

В восьмидесятых годах XX века зарубежные поездки Шарафа Рашидова были в большей степени связаны с развитием экономических отношений со странами Африки, с которыми он смог наладить диалог. Так, начиная с середины 70-х и в 80-е годы, Узбекистан оказывал помощь в развитии сельского хозяйства и повышении урожайности сельскохозяйственных культур в Анголе, Мозамбике, Алжире, Эфиопии. Африканские, азиатские студенты и специалисты приезжали обучаться в вузах Узбекистана, принимали участие в семинарах по повышению квалификации в сфере ирригации и мелиорации, организованных при поддержке ООН и проходивших в Ташкенте.

Страны «третьего мира» в пятидесятых годах двадцатого века воспринимали приезд советских правительственных делегаций на высшем уровне как подтверждение международной поддержки и выражение солидарности с ними. Зарубежные поездки Шарафа Рашидова открывали новые перспективы для диалога, экономического и культурного сотрудничества между странами. Так в период семидесятых-восьмидесятых годов в Узбекистане обучалось более 80 тысяч иностранных студентов из стран Азии, Африки и Латинской Америки.

Шараф Рашидов умел находить компромиссы в сложных переговорах, отстаивать интересы СССР и всегда не забывая о достижениях узбекских предприятий. Сельхозмашиностроение было наиболее развитым в СССР, и продукция была невероятно востребована в развивающихся странах «третьего мира». Поэтому он, изучив состояние сельхозмашиностроения в странах «третьего мира», продвигал в них продукцию узбекских заводов по сельхозмашиностроению. Узбекское сельхозмашиностроение было самым крупным в СССР. В этот период заводы «ТТЗ» и «Ташсельмаш» экспортировали свою продукцию в 80 стран мира! Узбекские технологии в сельском хозяйстве также находили применение в странах Африки (Ангولا, Мозамбик, Тунис, Уганда, Сомали).

Дипломатическая деятельность Ш. Р. Рашидова в этот насыщенный событиями промежуток нашла широкое отражение в различного рода исторических источниках. Проведенный анализ позволил выделить следующие виды источников:

Советские газеты – «Правда», «Известия», «Правда Востока», «Красный Октябрь», «Сталинец», «Красное Знамя», «Ёш Ленинчи», «Комсомолец Узбекистана».

Иностранные газеты - l'Unita (Италия), The Herald (Зимбабве), Review of International Affairs - Federation of Yugoslav Journalists (Югославия), Daily Report, Foreign radio Broadcast. (США).

Архивы – Российский Государственный Архив новейшей истории (РГАНИ), Архив внешней политики РФ, Фонд Антонио Грамши (Италия), Российский госархив кинофотофонодокументов (РГАКФД).

Материалы из Мемориального Дома-Музея Шарафа Рашидова в городе Джизак. Личного архива семьи Шарафа Рашидова.

Опубликованные источники – Собрания сочинений Шарафа Рашидова, Речей Шарафа Рашидова. Научных статей и монографий – Шигера Абрам Григорьевича, известного советского картографа. Политическая карта. Справочник. Москва: Госполитиздат, 1961. Коллективная монография – Г.Ш. Рашидова и Д.А. Камиллов. Портрет человека в эпохе и эпохи в человеке. Ташкент.: Тасвир. - 2017. - 171, 383 с. Фотокаталога – куратор Вяткин В. А., и консультанты Эргашев Ш. Э., Раззаков Ф. И., Хасанов У. А. Шараф Рашидов Политик и Дипломат. Фотовыставка. Каталог выставки. Международный общественный Фонд Шарафа Рашидова. Ташкент.: - 2022.

Всего получилось найти 234 исторических источника информации по зарубежным визитам Шарафа Рашидова.

Была проведена кропотливая и масштабная изыскательская работа по изучению и анализу советской, зарубежной и современной отечественной периодики, хранящейся в Национальной библиотеке Узбекистана имени Алишера Навои, открытых источниках информации в интернете, архиве Грамши в Италии (Благодаря содействию доктору наук, ассистенту профессора Неаполитанского Университета «L'Orientale» Риккардо Марио Куччиолле), цифровом историческом архиве Международного общественного Фонда Шарафа Рашидова. В результате вычленили и систематизировали материалы, в которых содержатся сведения о визитах

Ш. Р. Рашидова в страны Европы, Африки, Азии и Латинской Америки, всего в 31 страну.

Была изучена советская периодика с 1955 по 1983 годы, всего было просмотрено 39 355 номеров газет советской периодики, с общим количеством страниц 245 300.

Помимо советской периодики использовались материалы иностранной прессы и литературы не только на английском, но и на немецком, португальском, итальянском языках. Это позволило расширить охват поисков информации и получить дополнительные сведения о зарубежных визитах Шарафа Рашидова, которые до недавнего времени оставались малоисследованными в исторической литературе.

Стоит отметить, что периодические издания как советские, так и иностранные находились под давлением идеологических систем, каждая из которых оказывала влияние на формирование общественного мнения. Это накладывало отпечаток на стилистику и содержание статей, отражая в особом идеологическом ключе борьбу стран Азии и Африки за освобождение от «колониальных оков империализма». В советской периодической печати формировался образ нового мира, когда развивающиеся страны обрели независимость, империи лишились своих колоний – эпоха начала процесса деколонизации стран Азии, Африки и Латинской Америки.

Иностранные западные периодические издания рассматривали советские зарубежные визиты в контексте «холодной войны» и противостояния разных систем, поэтому оценивали визиты советских делегаций как расширение геополитического, геостратегического и геоэкономического влияния Советского Союза. Такую активную международную деятельность СССР западный мир рассматривал как угрозу своим стратегическим интересам, подрывающую их влияние в различных регионах мира. Особенность и специфика зарубежной периодики при освещении визитов Шарафа Рашидова заключалась в их значительной информативности, например, приводились подробные сведения о количестве и составе советских делегаций.

Газеты стран «третьего мира» рассматривали визиты советских делегаций в зависимости от своего тяготения к советским или западным силам. Наглядным примером этому явился начавшийся в 1959 году раскол между Китаем и СССР, отразившийся в периодике стран «третьего мира» критикой действий Советского Союза в его внешней политике.

Отдельный пласт источников, задействованных в целях выявления дополнительных сведений о дипломатической деятельности Ш. Рашидова, представлен архивными и фотодокументами. Исследовательская и изыскательская работа проводилась в Центральном государственном архиве кино-фото-фоно документов Республики Узбекистан, Центральном государственном архиве города Ташкента, а также в архивохранилищах Российской Федерации, таких как РГАНИ, Архив Внешней политики РФ. Значительная часть материалов была вычленена из личного архива Шарафа Рашидова, Исторического цифрового архива Международного общественного Фонда имени Шарафа Рашидова, Мемориального Дома-музея Шарафа Рашидова в городе Джизаке.

При освещении дипломатических визитов Шарафа Рашидова привлекались и такие дополнительные источники информации, как иностранная библиография, фотографические архивные документы. Привлечение фотодокументов позволяет лучше представить контекст зарубежных визитов Шарафа Рашидова и визуализировать историю дипломатических отношений СССР со странами мира.

Отдельный вид источников представлен 13 архивными фотоальбомами, одним фотоальбомом из личного архива Шарафа Рашидова, одним архивным документом (рукописная заметка о визите в Венгрию на узбекском языке), 15 архивными фотографиями, 4

картами-схемами, 200 статей советской периодики, 16 статьями из иностранной периодики («Юнита» – итальянская газета коммунистической партии Италии, бюллетень Конгресса США, Газета «The Herald» из Зимбабве, Daily Report, Foreign Radio Broadcasts США, «Review of International Affairs» федерации журналистов Югославии). Часть из этих материалов публикуется впервые.

В одной из радиопередач British Broadcasting Corporation «BBC» от 31 октября 1983 года Шарафа Рашидова назвали «Восточным Макиавелли». Вся его более чем 30-летняя дипломатическая деятельность показала, что он был прирожденным дипломатом, вызывал уважение у собеседников своей эрудицией, уважительным отношением к собеседнику, красноречием. Будучи советским государственным деятелем, Шараф Рашидов в своих дипломатических поездках продвигал идеи международной солидарности будучи убежденным интернационалистом, предлагая помощь в обучении и повышении квалификации местных кадров «третьего мира» в Узбекистане, а также в развитии сельского хозяйства и внедрении новых технологий в этих странах.

Он сумел построить доверительные отношения с лидерами тех стран, куда он был направлен с официальными визитами. Отличительная черта Шарафа Рашидова заключалась в уважении к собеседнику, поиске вариантов сближения позиций в переговорах, где страны «третьего мира» могли быть заинтересованы в предлагаемых проектах. Он был вежлив и тактичен. Перед поездкой в зарубежную страну Шараф Рашидович, досконально изучал ее традиции, культуру, чтобы быть

«на одной волне» с лидерами этой страны. Это внушало собеседникам доверие и помогало снижать напряжение при ведении непростых переговоров.

В 2022 году Международный общественный Фонд имени Шарафа Рашидова провел фотовыставку «Шараф Рашидов – Политик и Дипломат».

К фотовыставке был выпущен фотокаталог [2], но на тот период времени не удалось найти все метаданные. Поэтому и возникла идея поиска новых источников в советской, иностранной периодике, в российских и отечественных, зарубежных архивах, фотодокументах, библиографии.

Заключение. В статье представлены те материалы, которые удалось найти, содержание не претендует на полный охват всей информации по зарубежным визитам Шарафа Рашидова. Это объясняется тем, что часть архивных материалов, касающихся его зарубежных визитов, во многих архивах СНГ до сих пор закрыта, нет доступа к иностранным государственным архивам стран, где с визитами был Шараф Рашидов, а также и к архивам зарубежных изданий. Автор использовал только открытые данные и систематизировал их в хронологическом порядке. Всего удалось установить и подтвердить по источникам, что Шараф Рашидов побывал в 31 стране мира с 52 дипломатическими визитами за более чем тридцать лет.

За период в более чем 30 лет Шараф Рашидов был с визитами 10 раз в странах Европы, 26 раз в странах Азии, 13 раз в странах Африки и 3 раза в странах Латинской Америки.

ЛИТЕРАТУРА

1. Рашидов Ш. Собрание сочинений в пяти томах. Том пятый. Публицистические статьи. - Москва: Художественная литература, 1980. – С.134.
2. Вяткин В. А., Эргашев Ш. Э., Раззаков Ф. И., Хасанов У. А. Шараф Рашидов Политик и Дипломат. Фотовыставка.
3. Каталог-выставки. Международный общественный Фонд Шарафа Рашидова. Ташкент: - 2022.



UDK:930.25:911(09)

Azizbek NAZAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: azizbek_888@mail.ru

FA Milliy arxeologiya markazi Fanlararo tadqiqotlar bo'limi boshlig'i, katta ilmiy xodim, PhD M.S. Tuxtayeva taqrizi asosida

HISTORY OF THE CREATION OF THE GEOGRAPHICAL SOCIETY OF UZBEKISTAN

Annotation

In this article, the history of the Geographical Society of Uzbekistan is studied on the basis of archival documents and research conducted during the period of the Turkestan General Government. Information is presented that reflects the views of many Russian scientists and local intelligentsia on the history of the creation and activities of the Geographical Society. Also, based on sources and documents from the National Archives of Uzbekistan, a comparative analysis of the main goals of the Imperial Russian Geographical Society when creating a branch in Turkestan was carried out. The archive, library and data on the number of members of the society were studied.

Key words: Geographical Society, Turkestan, Tashkent, National Archives of Uzbekistan, P.P. Semenov-Tianshansky, V.F. Oshanin, S.I. Zhilinsky, N.G. Mallitsky, society, library, archive, geography, research.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье история Географического общества Узбекистана изучена на основе архивных документов и исследований, проведенных в период Туркестанского генерал-губернаторства. Освещены сведения, отражающие взгляды многих российских ученых и местной интеллигенции на историю создания и деятельность Географического общества. Также на основе источников и документов Национального архива Узбекистана проведен сравнительный анализ основных целей Императорского русского географического общества при создании отделения в Туркестане. Изучены архив, библиотека и данные о количестве членов общества.

Ключевые слова: Географическое общество, Туркестан, Ташкент, Национальный архив Узбекистана, П.П. Семёнов-Тяньшанский, В.Ф. Ошанин, С.И. Жилинский, Н.Г. Маллицкий, общество, библиотека, архив, география, исследование.

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATINING TASHKIL ETILISHI TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston geografiya jamiyatining tarixi arxiv hujjatlari hamda Turkiston general-gubernatorligi davrida olib borilgan tadqiqotlar asosida o'rganilgan. Geografiya jamiyatining tashkil etilish tarixi va faoliyatiga oid rossiyalik ko'plab olimlar hamda mahalliy ziyolilarning qarashlari aks etgan ma'lumotlar yoritib berilgan. Shuningdek, Imperatorlik rus geografiya jamiyatining Turkistonda bo'limni tashkil qilishdagi asosiy maqsadlari manbalar va O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Jamiyatning arxivi, kutubxonasi va a'zolari soniga oid ma'lumotlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Geografiya jamiyati, Turkiston, Toshkent, O'zbekiston Milliy arxivi, P.P. Semyonov-Tyanshanskiy, V.F. Oshanin, S.I. Jilinskiy, N.G. Mallitskiy, jamiyat, kutubxona, arxiv, geografiya, tadqiqot.

Kirish. Turkiston general-gubernatorligida tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar o'lkada Rossiya imperiyasi davlatchiligi targ'ib qilish va mustahkamlash vositasi sifatida vujudga kelgan. Ilmiy jamiyatlar fondlaridagi hujjatlar Turkiston o'lkasidagi geografik ma'lumotlarni aniqlashga yordam beradi. O'zbekiston Milliy arxividagi o'lkaga geografiasiga oid I-69-fondning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo hududini o'rganishda Imperatorlik Rus geografiya jamiyatining 1897-yil Toshkentda tashkil etilgan Turkiston bo'limining hissasi salmoqli bo'lgan. Bo'lim tashkil etilgan dastlabki davrdan boshlab ilmiy ekspeditsiyalar, a'zolarining tadqiqotlari va hisobotlar, tashkil etilgan tadbirlar tafsilotlari, umumiy majlisdagi chiqishlar, ilmiy asar va maqolalar, rasmiy hujjatlar "Imperatorlik Rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limi xabarlari" deb nomlangan to'plamda chop etib borilgan. Ushbu nashr o'z davrida nafaqat Rossiya, balki chet el ilmiy jamoatchiligi orasida ham katta obro'ga ega bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida Turkistonda rus va xorijiy tadqiqotchilar faoliyat yuritgan bo'lib, ularning faoliyati natijasida ko'plab tarixiy tadqiqotlar olib borilgan. Mavzuga

oid tadqiqotlarni yaratilish davriga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruh – Rossiya imperiyasi davrida yaratilgan tadqiqotlar;

ikkinchi guruh – sovet davrida yozilgan tadqiqotlar;

uchinchi guruh – mustaqillik yillaridagi ilmiy izlanishlar.

Imperatorlik Rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limi haqida fikr bildirar ekan A.I. Dobrosmislov uning tashkil topishi sanasi sifatida 1897-yil 19-dekabrni ko'rsatadi. Ammo arxiv hujjatlaridagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra jamiyat 1896-yil 20-maydagi Rossiya imperiyasi davlat kengashining qarori asosida faoliyat boshlagan. Uning Nizomi 1896-yil 26-dekabrda Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlangan. Boshqa hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, jamiyat faoliyati 1897-yil 28-fevralda boshlangan[1]. Yana bir tadqiqotchi, I.L. Yavorskiy O'rta Osiyo, xususan Turkistonni geografik nuqtai nazaridan tahlil etar ekan "ilmiy tadqiqot qilish asosida O'rta Osiyo 25 yil ichida noma'lumlikdan juda yaxshi o'rganilgan hududga aylandi. Hozirgi vaqtda bu yurt haqida ma'lumotlar kamligi bilan emas, aksincha ularning boy

va turli tumanligi bilan to'qnash kelamiz"[2] deb ma'lumot bergan.

IRGJ Turkistondagi bo'limi tarixi sovet davri tadqiqotchilaridan Z.N. Donsova, B.V. Lunin, V.A. Shishkin, I.M. Mo'minov A. Azatyanlar tomonidan tadqiq etilgan.

Sovet davrida ilmiy tadqiqot markazlarini ko'payishi, ularda ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengayishi natijasida Turkistonda faoliyat yuritgan ilmiy jamiyatlarning tarixi keng ko'lamda o'rganila boshlandi. L.S. Berg o'z tadqiqotlarida o'lkani geografik jihatdan o'rganilishi va unda ilmiy jamiyatlarning o'rni haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tadi. Xususan, IRGJning yuz yillik faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotida o'lkada geografik tadqiqotlarni olib borilishi va bunda IRGJ Turkiston bo'limining o'rni va roli haqida fikr yuritgan[3]. Ushbu bo'limining ochilishi va dastlabki faoliyatida V.F. Oshanin hissiy katta bo'lganligini e'tirof etgan.

Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar avvalgi izlanishlardan farq qilib, ularda fikrlar turfaligi, obyektivligi namoyon bo'ladi. Ushbu davrda O'zbekiston va xorijda yaratilgan tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Arxiv fondlarini tadqiq etishga bag'ishlangan tadqiqotlar;

2. Imperatorlik rus geografiyasi faoliyatini yorituvchi izlanishlar;

3. Geografiya sohasining rivojlanishi tarixiga oid tadqiqotlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy jamiyatlar nizomiga ko'ra, jamiyat bevosita Turkiston general-gubernatori boshqaruvida bo'lgan va unga chegaradosh hududlarni har tomonlama o'rganishga bo'lgan harakatlar aks etgan arxiv fondlari hujjatlari arxiv manbashunosligi nuqtai nazaridan o'rganildi. Chunki jamiyatlar o'z faoliyati davomida o'lkaga geografiyasi va tarixini o'rganishda ko'plab ilmiy izlanishlarni amalga oshirganligiga qaramasdan, uning tarixi hamda jamiyat doirasida tarixiy-geografik tadqiqotlar hali yaxlit tarixiy tadqiqot sifatida shakllanmagan.

Tahlil va natijalar. XIX asrning 90-yillarida o'lkada faoliyat yuritgan bir guruh olimlarning taklifidan so'ng, Samarqand viloyati harbiy gubernatori, general-leytenant N.Y. Rostovsev, keyinroq Turkiston general-gubernatori baron A.B. Vrevskiy Imperatorlik rus geografiya jamiyati (IRGJ)ning ma'muriyati bilan Turkiston bo'limini tashkil qilish masalasini muhokama qilishgan. Xususan, bo'limni ochilishida IRGJning vitse-raisi P.P. Semyonov-Tyanshanskiyning hissiy katta bo'lgan. Olim IRGJning oldida turgan ilmiy vazifalarni katta va keng qamrovligini anglab yetgan holda Turkiston o'lkasida uning bo'limini ochilishi haqidagi fikrni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi[5]. Uning harakati bilan jamiyatning Turkistondagi bo'limini ochish maqsadida Rossiya Imperiyasi Ichki ishlar vazirligi va Moliya vazirligi bilan yozishmalar olib borilgan. 1895-yilning noyabr oyida boshlangan harakatlar bir yil ichida jamiyatning huquqiy asoslari bo'lib xizmat qilgan hujjatlarni qabul qilinishi bilan yakunlangan.

Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, jamiyat nizomi 1896-yil 26-dekabrda Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlangan[5]. Jamiyat faoliyati 1897-yil 28-fevralda boshlangan. Jamiyat Turkiston o'lkasi va unga qo'shni mamlakatlarni geografik jihatdan o'rganish, ilmiy ma'lumotlar yig'ish maqsadida tuzilgan. Jamiyatning birinchi yig'ilishi uning faxriy raisi, Turkiston general-gubernatori baron Aleksandr Borisovich Vrevskiyning qarorgohida bo'lib o'tgan[6].

1897-yilda jamiyatga dastlab 78 kishi a'zo bo'lgan. Turli yillarda jamiyatning a'zolari soni o'zgarib turgan, jumladan 1903-yilda 104 ta bo'lsa, 1912-yilda 53 ta bo'lgan. Jamiyat o'lkada mavjud bo'lgan boshqa ilmiy muassasalardan farqli o'laroq, 1917-yildan keyin ham faoliyat yuritgan.

IRGJ Turkiston bo'limi tashkil topganidan keyin tez orada Irkutsk guberniyasi Nijneudinsk shahridan tog'muhandisi I.S. Bogolyubskiy bo'limga o'zining bir nechta ilmiy ishlarini yuborgan va IRGJ Turkiston bo'limi tashkil etilgan bilan qizg'in tabriklagan[7]. Shuni alohida qayd etish kerakki, Turkistonda IRGJ bo'limining tashkil etilishiga rossiyalik ko'plab olimlar ijobiy fikr bildirishgan. Ko'plab ilmiy jamiyatlar IRGJ Turkiston bo'limi ilmiy izlanishlari haqidagi nashrlari bilan ayriboshlashish xohishini bildirishdi. Bu esa olimlarning Turkistonni o'rganishdagi yutuqlarni kuzatib borayotganliklari va IRGJ Turkiston bo'limi faoliyatiga jiddiy e'tibor berayotganliklarini bildirgan.

Mahalliy ziyolilar orasida ham IRGJning Turkiston bo'limi tashkil etilishi yaxshi kutib olindi. Ulardan ko'pchiligi IRGJ Turkiston bo'limi faoliyatida ishtirok etishni xohlashgan. Mahalliy "Russkiy Turkestan" gazetasi IRGJ Turkiston bo'limining barcha tadqiqotlarini va yig'ilish bayonnomalarini bepul chop ettirish taklifini bergan[8]. Bu bilan shubhasiz, yosh ilmiy jamiyatga yordam ko'rsatish istagi borligini isbotlagan.

IRGJ Turkiston bo'limi faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab uning kutubxonasi tashkil etilgan. U 1899-yilda Toshkentdagi kutubxonalardan birining binosida ochildi. Bo'lim kutubxonasi muntazam ravishda to'ldirilib kelindi va 1915-yilga kelib u 4500 dan ortiq kitob fondiga ega bo'ldi. Kitoblar uyga ham berilar edi. 1915-yilda Bo'lim kutubxonasi tomonidan 122 ta rus va 20 ta xorijiy ilmiy jamiyatlar bilan kitoblar almashish bo'yicha aloqalar yo'lga qo'yilgan[9].

Vaqt o'tishi bilan IRGJ Turkiston bo'limi a'zolari safi, ilmiy jamiyatlar bilan aloqasi kengaydi. IRGJ Turkiston bo'limining birinchi raisi taniqli topograf Stanislav Ivanovich Jilinskiy (1838–1901) edi. S.I. Jilinskiy Farg'ona vodiysi, Yettisuv va O'rta Osiyoning boshqa hududlarida birinchi topografik syomkalarga rahbarlik qildi. Uning tadqiqotlari o'lkadagi ko'plab punktlarning geografik koordinatalari va mutlaq balandliklarini aniqlashga yordam berdi. U O'rta Osiyo turli hududlarining dastlabki topografik xaritalarining muallifidir. U harbiy ofitser sifatida infanteriya (piyoda qo'shinlari) generali unvoniga sazovor bo'lib, Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligining ko'plab harbiy mukofotlari bilan taqdirlangan. S.I. Jilinskiy 1900-yilga qadar, ya'ni iste'faga chiqib, o'z vatani Tambov guberniyasiga qaytib ketgunicha, IRGJ Turkiston bo'limini boshqargan[10].

Boshqaruv faoliyatida mashhur zoolog va geograf V.F. Oshanin ham ishtirok etgan. Turkistonda 30 yildan (1872-1906) oshiqroq yashagan. Bu yillar qizg'in tadqiqot ishlari, o'sha davrlarda kam o'rganilgan o'lkaga bo'ylab yirik sayohatlarda, rus madaniyatini targ'ib qilish bilan o'tgan. Oshanin Turkistonda bo'lgan davrida entomofauna bo'yicha salmoqli axamiyatga ega materiallarni yig'di, mashhurlik keltirgan zoogeografik va muntazamlilik xarakteriga ega bo'lgan yirik tadqiqotlarni yozdi[11]. V.F. Oshanin Toshkent jamoat kutubxonasi xisobotlarini tuzish komissiyasida faoliyat olib borib, Toshkent muzeyini tashkil etilishida ishtirok etadi. Turkiston ipakchilik maktabi direktori va o'qituvchisi sifatida maxsus bilimlarning tarqalishiga xizmat qiladi. Keyinchalik Toshkent ayollar gimnaziyasi direktori bo'lib, maktab ishlari ko'lamining mustahkamlanishi ustida mehnat qildi. V.F. Oshanin tub aholining hayoti bilan qiziqib o'zbek tilini mukammal o'rgangan[12].

V.F. Oshanin mahalliy ziyolilar orasida obro'e'tibori juda yuqori bo'lgan. Bunga sabab uning shaxsiy xislatlari, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi ko'p tomonlama shijoatli faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun ham V.F. Oshanin ismini IRGJ Turkiston bo'limi birinchi boshqaruvchi, rais o'rinbosari tarkibida ko'ramiz. V.F. Oshanin IRGJ Turkiston bo'limi tashkil etilishining qizg'in tarafdorlaridan bo'lgan. U har yili albatta ekspeditsiyaga

chiqqan va Turkistonni o'rganish ishlarini qo'llab-quvvatlagan[13].

S.I. Jilinskiydan so'ng bo'lim raisligi lavozimida V.V. Saxarov, D.D. Gedeonov, V.I. Pokotillo, A.S. Galkinlar bo'lishgan. Ular o'sha davr sharoitida zarur bo'lgan rasmiy shaxslar bo'lishgan. D.D. Gedeonovdan boshqa qolganlari bo'limning ilmiy faoliyatida kamroq ishtirok etishgan. Bu lavozimga 20 yil mobaynida turli shaxslar almashinib turgan. Lekin ularning hammasi IRGJ Turkiston bo'limi boshida o'lka ma'muriyatiga yaqin inson turishini afzal bilishgan. Bo'limning haqiqiy rahbarlari esa avval boshida V.F. Oshanin, so'ngra 1906 yilda Peterburgga jo'nab ketgan V.F. Oshanin o'rni N.G. Mallitskiy bo'lgan[14].

N.G. Mallitskiy bo'lim a'zolariga 1897-yildan kirgan. 1899-yilda u bo'lim boshqaruviga saylangan. 1901-yilda bu lavozimdan voz kechgan. 1907-yilda esa boshqaruv raisi o'rinsosari bo'lgan. U bu lavozimni 1918-yilgacha saqlab turgan. 1918-yilda bir ovozdan bo'lim raisligiga saylangan. O'rta Osiyo bilan uning ilmiy, pedagogik va jamoatchilik faoliyati bog'liq. N.G. Mallitskiy Toshkentga 1895-yil Peterburg tarix-filologiya institutini tugatgandan keyin kelgan. U o'smirlik chog'idanoq tarix va geografiyaga qiziqqan[15].

1947-yilda, N.G. Mallitskiy vafotidan keyin, taniqli zoolog va geograf, O'rta Osiyo iqlimshunosligining asoschilaridan biri, professor Lev Aleksandrovich Molchanov Butunittifoq Geografiya jamiyati O'zbekiston filialining raisi bo'ldi va u 1953 yilgacha shu lavozimda ishlagan.

1953-yilda Nikolay Leopoldovich Korjnevskiy O'zbekiston Geografiya jamiyatining prezidenti (lavozim shunday nomlana boshlangan) etib tayinlangan. O'sha vaqtga kelib u O'rta Osiyo tasviriy geografiya ilmiy maktabining asoschisi va rahbari sifatida tanilgan edi.

N.L. Korjnevskiydan keyin O'zbekiston Geografiya jamiyati prezidentligiga O'rta Osiyo tog'li hududlar gidrologiyasi ilmiy maktabining asoschisi Viktor Lvovich Shuls 1959-yilda tayinlangan. Geografiya fanlari doktori, professor V.L. Shuls O'rta Osiyoda gidrologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, u o'z davrida muhim hisoblangan ko'plab suv xo'jaligi loyihalarini ilmiy asoslashda ishtirok etgan.

Respublika Geografiya jamiyatining keyingi prezidenti professor Leonid Nikolayevich Babushkin 1972-yilda bo'lgan. L.N. Babushkinning O'zbekistonda agroklmatologiya rivojlanishi va bu sohaning ilmiy-amaliy jihatdan yuqori cho'qqilarga erishishiga qo'shgan hissasi, olim tadqiqotlarining O'rta Osiyo hududini agroiklimiy jihatdan tavsiflash va rayonlashtirish metodikasini ishlab chiqishdagi ahamiyati ko'pchilikka ma'lum.

L.N. Babushkin vafotidan so'ng, 1976-yilda O'zbekiston Geografiya jamiyati prezidenti etib geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar

akademiyasining akademigi Obid Murodovich Akromxo'jayev tayinlangan.

1996-2003-yillarda O'zbekiston Geografiya jamiyatining prezidenti lavozimida Beruniy nomidagi O'zbekiston SSR Davlat mukofoti sovrindori, Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, geografiya fanlari doktori, professor Akramov Ziyovuddin Muhitdinovich faoliyat ko'rsatgan.

Z.M. Akramov vafotidan so'ng, O'zbekiston Geografiya jamiyatining Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan VI syezdida rais etib geografiya fanlari doktori, professor Soliyev Abdusami Soliyevich saylandi. Olim respublika Geografiya jamiyatini 13 yil, ya'ni 2003-yildan 2016-yilgacha boshqargan.

Professor Abdusami Soliyev 2016-yil mart oyida to'satdan vafot etganidan so'ng, O'zbekiston Geografiya jamiyatining rayosati tomonidan Jamiyat raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchisi etib, taniqli gidrolog olim, geografiya fanlari doktori, professor Hikmatov Fazliddin Hikmatovich tasdiqlangan. Hozirgi kunda professor F.H. Hikmatov – O'zbekistonda gidrologiya fanining umume'tirof etilgan yetakchilaridan biri. O'zbekiston Geografiya jamiyati raisi vazifasini bajaruvchi sifatida F.H. Hikmatov avvalgi rahbarlarning faoliyatini, xususan, "O'zbekiston Geografiya jamiyatining axboroti"ning bosh muharriri sifatida muvaffaqiyatli davom ettirib kelmoqda[16]. O'zbekiston Geografiya jamiyatining faoliyatini tashkil etishda va uning turli bosqichlarida muayyan muvaffaqiyatlarga erishishida jamiyatning raislari katta rol o'ynagan.

Xulosa va takliflar. O'lkada faoliyat yuritgan Imperatorlik rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limi turli ko'rinish va yo'llar bilan mutassil mahalliy harbiy ma'muriyat tomonidan qo'yilgan siyosiy vazifalarini bajargan[17]. Ammo ularning aksariyati ilmiy yo'nalishda ham muhim natijalarga erishishgan. Xususan, jamiyat a'zolari o'lkaning tabiati, geografiyasi, tarixi, madaniyatini ilmiy jihatdan o'rgangan dastlabki tadqiqotchilar sifatida ilm-fan uchun ko'plab kashfiyotlarni amalga oshirishgan.

O'zbekiston Geografiya jamiyati 125 yildan ortiq vaqt mobaynida Jamiyat mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tarixiy voqealar bilan bog'liq ko'plab o'zgarishlarga duch kelgan. Biroq, O'zbekiston Geografiya jamiyati barcha zamonlarda geografik tadqiqotlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish, geograflarning ilmiy asarlarini nashr etish va geografik bilimlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynagan. Jamiyatning raislari, vitseprezidentlari va ilmiy kotiblari sifatida respublikaning eng yirik geograflari geografiya fani va ta'limi manfaati uchun samarali ish olib bordilar. O'zbekiston Geografiya jamiyatining tarixi bizning mamlakatimizda geografiya fanining rivojlanish tarixini aks ettirishi, uning yetakchi vakillari doimo jamiyat faollari orasida bo'lganligini ta'kidlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент: Эл.-паров. типо-лит. О.А. Порцева, 1912. – С. 309.
2. Яворский И.Л. Культурные успехи и задача в ней России // Туркестанский сборник. 1908. Т. 443. – С. 138.
3. Берг Л.С. Всесоюзное Географическое общество за сто лет. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1946. – Б. 78-79.
4. Nazarov, A. Y. (2020). Scientific societies in the Turkestan governorate-general as an instrument of colonial statehood (archival source study). *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 1068-1073.
5. O'zMA I-69-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 1-varaq.
6. O'zMA I-69-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 11-11-orqa varaq.
7. Nazarov, A. Y. (2020). Analysis of historical and geographical research conducted in the governor-general of Turkestan. *ACADEMICA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 858-863.
8. O'zMA I-69-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 47- varaq.
9. Яковлева М.Ю. Библиотеки Императорского Русского географического общества // Вестник Ленинградского гос. универ-та им. А.С.Пушкина. 2012. №1. – С.107-113.
10. Nazarov A.Y. O'zbekiston Milliy arxividagi Turkiston ilmiy jamiyatlari fondlari hujjatlari (XIX asr ikkinchi yarmi–XX asr boshlari). *Monografiya, –Toshkent: "TAMADDUN", 2023. – B. 17*

11. Федорко В.Н., Эгамбердиев А., Курбонов Ш.Б., Ражабов Ф.Т. Ўзбекистон География жамияти. – Тошкент, 2019. – Б. 13.
12. Кириченко А.Н. Василий Федорович Ошанин // Отечественные физико-географы и путешественники. – М.: ГУП изд-во мин-ва просвещения РСФСР, 1959. – С. 317-322.
13. Ошанин Л.В., Азатьян А.А. Василий Федорович Ошанин. Очерки жизни и деятельности. – М.: Географгиз, 1961. – С. 95
14. Nazarov, A. Y. (2021). Classification Of Documents Of Turkestan Scientific Societies Kept In The National Archive Of Uzbekistan. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES (pp. 9-12).
15. Донцова З.Н. Туркестанский отдел Русского географического общества в дореволюционный период (1897–1917 гг.): Дисс ... на соиск. уч. степ. канд. геог. наук. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1951. – С. 147-149.
16. Федорко В.Н., Эгамбердиев А., Курбонов Ш.Б., Ражабов Ф.Т. Ўзбекистон География жамияти. – Тошкент, 2019. – В. 19.
17. Nazarov, A. Y., Botirov, E. A., Salomova, L. I., Nematov, I. N., Yusupov, M. M., & Musoyev, U. U. (2023). Documents of Foundations of Turkestan Scientific Societies in The National Archive of Uzbekistan. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2520-e2520.



UO'K:930.2:26-587(093)

Shoira NORXO'ROZOVA,
O'ZMU talabasi
E-mail: norxorzovashoira@gmail.com

O'zMU Tarix fakulteti dotsenti DSc Sh. Choriyev taqrizi asosida

O'RTA OSIYO TARIXIGA OID AGIOGRAFIK MANBALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada agiografik manbalar tushunchasi va ularning paydo bo'lish tarixi haqida ma'lumotlar tahlil etilgan. Shuningdek, O'rta Osiyoda yozilgan agiografik manbalar va ularning turlari haqidagi ma'lumotlar tahlil etilib, manbaviy ahamiyatiga tavsif berilgan. Maqolada, ayniqsa, musulmon shayxlari, olimlarlarining hayotiga oid manbalar tahlil qilinadi. Ushbu manbalar, O'rta Osiyoning diniy-ijtimoiy hayotini, madaniy an'analari va ma'naviy qadriyatlarini yoritish bilan birga, mintaqa tarixini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, agiografik, tarixiy manba, O'zbekiston tarixi, maqolot, maqomot, tazkira, manoqib, tasavvuf, Xojag'on- Naqshbandiya tariqati, biografik asarlar.

HAGIOGRAPHIC SOURCES ON THE HISTORY OF CENTRAL ASIA

Annotation

This article analyzes the concept of hagiographic sources and information about the history of their emergence. Also, the hagiographical sources written in Central Asia and the information about their types are analyzed and the source significance is described. The article analyzes the sources related to the lives of Muslim sheikhs, scholars and Sufi saints. These sources, while illuminating the religious and social life, cultural traditions and spiritual values of Central Asia, contribute to a deeper understanding of the history of the region.

Key words: Central Asia, hagiographic, historical source, history of Uzbekistan, maqolot, maqomot, tazkira, manoqib, tasavvuf, Hojagon, Tarikat an-Naqshbandiyya, biographical sources.

АГИОГРАФИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ ПО ИСТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье проанализированы сведения о понятии агиографических источников и истории их возникновения. Также проанализированы сведения об агиографических источниках, написанных в Средней Азии, и их видах, дана характеристика их источниковой значимости. В статье анализируются источники, касающиеся жизни мусульманских шейхов и ученых. Эти источники не только освещают религиозно-социальную жизнь, культурные традиции и духовные ценности Средней Азии, но и способствуют более глубокому пониманию истории региона.

Ключевые слова: Средняя Азия, агиографик, исторический источник, история Узбекистана, макалот, макамот, tazkira, manoqib tasavvuf, тарикат, Ходжагон-Накшбандия, биографические труды.

Kirish. O'zbekiston tarixiga oid bugungi kunda ko'plab moddiy va yozma manbalar saqlanib qolgan. Ayniqsa yozma manbalarda tarixga oid turli ma'lumotlar mavjud. Yozma manbalarining geokosmografik, rasmiy, narrativ va agiografik turlari bor. Bizgacha yetib kelgan agiografik manbalar o'ziga xos tarixiy manba bo'lib, ularda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixga doir muhim ma'lumotlar olish mumkin. Ta'kidlash lozimki, agiografik manbalarda ijtimoiy tarixga oid muhim ma'lumotlar o'z aksini topadi. Chunki, geokosmografik tarixiy manbalarda oddiy aholining ijtimoiy ahvoli haqida ma'lumotlar chetlab o'tiladi. Shu nuqtai nazardan ham ushbu turdagi tarixiy manbalarni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kungacha O'rta Osiyo va O'zbekistonning O'rta asrlar tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, o'z navbatida agiografik manbalarni tarjimasini tayyorlash borasida ham yetarlicha ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Agiografik manbalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni ikkita katta guruhga bo'lib turkumlashtirish mumkin. Birinchi guruh ushbu manbalar haqida umumiy tavsif berilgan va manbalarining bevosita tarjimasiga bag'ishlangan tadqiqotlar.

Birinchi guruh tadqiqotlariga B.Axmedov, A.Madramimov, G.Fuzailovalarning "Tarixiy manbashunoslik"

o'quv qo'llanmalarini kiritish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda agiografik manbalar va ularning umumiy xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tishgan. Shuningdek, tasavvuf tarixiga bag'ishlangan T. Xatamov [1], K. Rahimov [2], B. Nazarov [3], N. Komilov [4], Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf [5] tomonidan o'rganilgan. Keyingi zamonaviy davrlarda islom agiografiyasi Sh.Shermatov, A.Kamolov, Z.Rasulov, M.Asqarov va M.Abdullayevlar tomonidan o'rganilgan.

Ikkinchi guruh tadqiqotlariga Xoja Abdulxolik Gijduvoni tomonidan yozilgan "Maqomoti Yusuf Xamadoni", Xoja Muhammad Porsoning Naqshbandiya tariqati bo'yicha yozilgan asarlari tarjimalarini misol keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy manbashunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borishda tadqiqot usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Agiografik manbalarni tadqiq etishda turli tadqiqot usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, agiografik manbalarda diniy ulamolar, tasavvuf vakillarining tarixi bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqotning dastlabki bosqichida tizimlashtirish usuli yordamida agiografik manbalarining turkumlarga ajratildi. Keyingi bosqichda esa tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil etish usullaridan ham foydalanilgan.

Agiografik manbalarni tadqiq qilish, diniy shaxslarning hayoti va faoliyatini, shuningdek, ularning jamiyatdagi roli va ta'sirini o'rganishga imkon beradi. Bu manbalarni o'rganish, O'rta Osiyo kabi mintaqalarda diniy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Agiografik asarlar, odatda, so'fi hazratlari, shayxlar, olimlar yoki boshqa diniy yetakchilarning hayotini tasvirlaydi va ular orqali o'sha davrning diniy-ruhiy dunyoqarashi, axloqiy meyorlari va ijtimoiy munosabatlari haqida ma'lumotlar beradi. Agiografik manbalarni tahlil etishda qiyosiy tahlil uslubi muhim o'rin to'radi. Ushbu tadqiqot usuli yordamida ayrim agiografik manbalari boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Agiografik manbalar, ko'pincha subektiv yoki ma'naviy nuqtayi nazardan yozilgan bo'lishi mumkin, shu nuqtai nazardan ularni boshqa tarixiy manbalar bilan solishtirib, ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchiligi haqida xulosa chiqarish muhimdir. Agiografik manbalarni tadqiq qilish, shuningdek, o'sha davrning diniy va madaniy aloqalarini, so'fi oqimlarining tarqalishini va ijtimoiy tuzilmalardagi o'zgarishlarni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Fikr bildirish mumkinki, tadqiqot uchun yozma manbalarining qaysi biri asosiy va qaysilari yordamchi rol o'ynashi tanlangan mavzuning yo'nalishiga bog'liq hisoblanadi. Masalan, iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni o'rganishda rasmiy hujjatlar birlamchi manba bo'lsa, siyosiy hamda madaniy hayotni yoritib berishda solnomalar – tarixiy asarlar va biografik asarlar hamda adabiy-badiiy asarlar yetakchi o'rinda turadi. Lekin shunga qaramay, ilmiy tadqiqot olib borishda faqat asosiy hisoblangan birgina birlamchi manba bilan kifoyalanib qolmay, imkon qadar boshqa ikkinchi darajali manbalarga murojaat etish, ularni ham tadqiqotga jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Agiografik manbalarining turlari. Agiografika (yoki agiografiya) - bu diniy shaxslarning hayoti, faoliyati va ularga bo'lgan e'tiqodlarni tasvirlashga bag'ishlangan ilmiy soha. Bu atama yunoncha “agios” (muqaddas) va “grapho” (yozish) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, asosan azizlar, shayxlar, muqaddas shaxslar yoki diniy yetakchilarning hayotini va faoliyatini yoritadigan asarlarni o'rganadi. Agiografiya tarixiy shaxs yoki cherkov tomonidan avliyolar sifatida hurmatga sazovor bo'lgan odamlar guruhining e'tiqodini ifodalaydi. Yevropada agiografik asarlar XVIII asrdan boshlab yaratilgan. O'rta Osiyoda esa taassuf allomalari, avliyolar hayoti va faoliyatiga bag'ishlab yozilgan. O'rta Osiyoda agiografik manbalarining quyidagi turlari bizgacha yetib kelgan:

1. Maqomot,
2. Tazkira,
3. Risola,
4. Manaqib

Ma'lumki, O'rta Osiyo hududlarida ko'plab din peshvolari va mashhur hadisshunoslar ijod qilishgan. Aynan ular haqidagi bizdagi ma'lumotlar agiografik manbalar orqali yetib kelgan.

Agiografik manbalar diniy hayotga hissa qo'shgan ulamolarning hayotiga bag'ishlanib, din va jamoat arboblari va tariqat peshvolarining hayoti va faoliyati, ularning karomatlariga haqidagi biografik asarlar hisoblanadi. Agiografik asarlar orasida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hayotlariga bag'ishlab bitilgan asarlar eng qimmatlisi hisoblanadi [6].

Agiografika, odatda, diniy shaxslarning mo'jizalari, axloqiy qadriyatlarini, ularning jamiyatdagi roli va ta'sirini ko'rsatadi. Bu asarlar ko'pincha diniy yoki axloqiy maqsadlarda yozilgan bo'lib, diniy e'tiqodlarni targ'ib qilish, axloqiy me'yorlarni o'rgatish va muqaddas shaxslarni hurmat qilishni maqsad qiladi. Agiografika quyidagi jihatlariga ega:

Diniy shaxslar hayoti va faoliyati: Agiografik asarlar diniy shaxslarning hayoti, ularning erishgan ruhiy yuksalishi va jamiyatdagi ijtimoiy roli haqida ma'lumot beradi.

Diniy qadriyatlar va axloqiy ta'limotlar: Bu asarlar axloqiy qadriyatlar va diniy e'tiqodlarni targ'ib qiladi, shuningdek, o'sha davrdagi jamiyatdagi axloqiy me'yorlar haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Agiografik asarlar ko'pincha, mo'jizalar va ibrat buluvchi hikoyalar bilan boyitilgan bo'ladi, bu esa ularning diniy ta'sirini kuchaytiradi. Agiografika, tarixiy tadqiqotlar uchun ham muhimdir, chunki bu asarlar nafaqat diniy, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotni ham yoritadi.

O'rta Osiyoda yozilgan ayrim agiografik asarlar tavsifi. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yozib qoldirilgan agiografik manbalarga “Tazkirayi Bug'roxoniy”, “Maqomoti Yusuf Hamadoni”, Xoja Muhammad Porsoning “Maqomati xoja Alouddin Attor” “Fasl ul-xitob” va “Risolayi qudsiya”, “Manoqibi hoja Bahouddin Naqshband”, “Risolayi shayx Najmiddin Kubro” va “Jomi ul-maqomati Maxdumi A'zam Kosoniy” kabilarni misol keltirish mumkin [7].

O'rta Osiyoda yozilgan shunday muhim agiografik manbalardan biri “Maqomoti Yusuf Hamadoni” asari hisoblanadi. Ushbu asar Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayotida yorqin iz qodirilgan xojag'on tariqatining asoschilaridan biri bo'lgan Yusuf Hamadoniyning hayoti va tasavvufiy faoliyatiga bag'ishlangan asardir. Asar muallifi Abduholiq G'ijduvoni bo'lib, u kishi o'z asarida ustozining hayoti, faoliyati, fikr-qarashlari, kashfu karomatlarini va ijod namunalari bilan muxtasar tarzda tanishtirishni ko'zda tutadi. Ta'kidlash lozimki, asar birlamchi manbalarga tayanib yozilgan bo'lib, ishonchli va yangi ma'lumotlarga boy, tasavvufning ko'plab nazariy va amaliy masalalarini oydinlashtirishga yordam beradi. Manba inson kamoloti, tasavvufiy g'oyalar bilan bog'liq ibratli rivoyat-hikoyalar, valiy zotlarning teran falsafiy fikrlari va bebaho hikmatli so'zlari ilova qilinganligi bilan boshqa manbalardan alohida ajralib turadi. Risolaning birinchi qismida Hamadoniyning shogirdlariga munosabatlari, ibodatlar va hayot tarzi yoritilgan. Risolaning “Xojag'on-naqshbandiya mashoyixlari” deb nomlangan ikkinchi qismida Xojagon tariqatining o'n bir zoti shariflarining hayot va faoliyatlarini, fikr va qarashlari keng yoritib berilgan. Mashoyihlarning ziyoratgohlarini yettitasi nafari Buxoroyi sharifda, bittasi Surxondaryo, yana bittasi Samarqand, ikkitasi Qashqadaryoda ekanligi ham ma'lumot berib o'tilgan. Risolaning oxirgi qismida G'ijduvoni ustoz Hamadoniyning “Odobi tariqat” risolasini fors tilidan, “Inson va koinot haqida risola” arab tilidan tarjima qilib ilova qilgan. Har ikki risola ham tasavvufning muhim masalalariga bag'ishlangan. Asarlarda qalb pokligi, nafs tarbiyasi, zikr vazifalari, shayx bilan bog'liq munosabatlar va boshqa masalalar batafsil bayon qilingan. Yuqoridagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bu agiografik manba o'z davrining eng muhim diniy, ijtimoiy, tarixiy ma'lumotlari bilan yoritilgan [8].

Yana bir agiografik manbalardan biri “Tazkirayi Bug'roxoniy” bo'lib, (“Bug'roxonning hayot yo'li va aytganlari”) ushbu asarda ilk tariqatlardan biri Uvaysiya tariqati tarixi va O'rta Osiyo islom dini tarqalishi tarixi yoritilgan [9].

Kubroviya tariqati asoschisi shayx Najmiddin Kubro qalamiga mansub “Risolayi shayx Najmiddin Kubro” asari ham o'ziga xos agiografik manbalardan bir hisoblanadi. Asarning hajmi hammasi bo'lib 9 varaqdan iborat bo'lib, unda tasavvuf haqida fikr yuritiladi hamda muallif o'zining shaxsiy kechinmalari va ruxiy iztiroblarini bayon qilgan.

Yana bir muhim manba “Matlab ut-tolibin” (“Haqiqat izlovchilarning maqsadi”) Tojiddinning ibn Ali Abulabbos Muhammad Tolib tomonidan 1633/1634-yili yozib tamomlangan. Unda mashhur Jo'yboriy xojalaridan xoja Muhammad Islom, xoja Sa'd, xoja Tojiddin Hasan, xoja Abdurahim, Abdixoja va Muhammad Yusufxojalarning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati bayon etilgan. “Matlab ut-tolibin”

tarkibi an'anaga binoan muqaddima, xotima va sakkiz bobdan iborat. Muqaddimada an'anaviy fotiha va hamd-u sanolardan keyin mazkur asarni yozishda muallif o'z oldiga qo'ygan vazifalar haqida so'z yuritadi va asar mundarijasi keltiriladi [10].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan manbalarga umumiy jihatdan O'rta Osiyo hududida yozilgan agiografik asarlar deb, ba'ho berilsa-da, ularning barchasi tasavvufga oid hisoblanadi. Tasavvuf tarixiga bag'ishlangan asrlarni tadqiqotlarda tasavvuf tarixi, tasavvuf ilmi, mashg'ur mutasavviflarning hayoti haqidagi hikoyatlar, manoqib, odob va arkon, she'riy tasavvuf, tasavvufiy tafsirlar kabi guruhlariga bo'lib o'rganiladi [11].

Tasavvuf ilmi va vakillari hayotiga doir ko'plab ma'lumotlar aynan agiografik manbalar orqali saqlanib qolgan. "At Tanazzulatul mavsiliya" asari Ibn Arabiyning risolalar to'plami hisoblanadi. Bu asarda muallif hayoti, faoliyati, uning ilmiy asarlari to'plami jamlangan. Asarning mohiyati tasavvufning asosiy mazmun-mohiyati, tarixiy rivojlanish bosqichlari, bilish qoidalari, komillik darajalari kabi umumiy qonuniyatlaridan iborat bo'lib hisoblanadi. "Taboqati sufiya" asarlarida mashhur mutasavviflarning hayoti haqidagi turli xil hikoyalardan, turli xil fikr-qarashlaridan, irshod, qimmatli so'zlaridan, tasavvufiy martabalaridan, karomatlaridan va hokazolardan so'z yuritadi. Bunday asrlarda roviylarga oid hujjat zanjiriga-silsilasiga o'rin berilgani bilan hadis ilmi o'rtasida uslubiy o'xshashlik mavjud.

Agiografik manbalar saqlovxonalari. Hozirgi kunda agiografik, umuman turli xil tarixiy manbalar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida, Islom akademiyasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining kutubxonasi, markaziy va hududiy muzeylar hamda ko'plab mahalliy aholi vakillarida saqlanib kelmoqda.

Manbashunos olimlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, aksariyat tarixiy asarlar ijtimoiy-iqtisodiy masalalar hamda

madaniy hayotga oid qimmatli ma'lumotlarga boy bo'ladi. Rasmiy hujjatlarda va biografik asarlarda esa siyosiy tarixga oid qimmatli faktlarni, tarixiy asarda yo'q ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Albatta ushbu tarixiy manbalarni kelajak avlodga yetkazish, ularni ilmiy iste'molga kiritish tarixchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'rta Osiyo tarixiga oid manbalar orasida agiografik asarlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarlar nafaqat tasavvuf allomalari, diniy ulamolar haqida balki, O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid muhim manbalar hisoblanadi. O'zbekiston tarixini yangi tarixiy ma'lumotlar bilan boyitishda ushbu turdagi manbalarni yanada chuqur o'rganish lozim.

Manbashunoslik talablaridan biri shuki, biror mavzuni tadqiq etishda bir emas, balki bir necha manbalar turiga – rasmiy hujjatlar, solnomalar, geo-kosmografik, agiografik va biografik asarlarga asoslanib, ulardagi ma'lumotlarqiyosiy solishtirilib tahlil etilsa ilmiy tadqiqot saviyasi oshib, xulosa va umumlashmalar ishonarli va asosli bo'lib, uning ilmiy ahamiyati ham katta bo'lishi shubhasizdir. Agiografik manbalar, diniy shaxslarning hayoti va faoliyatini yoritib, ularning jamiyatdagi roli, diniy va madaniy ta'sirlarini ko'rsatishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. O'rta Osiyo kabi mintaqalarda bu manbalar nafaqat diniy qadriyatlarni, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy meyorlarni ham aks ettiradi. Agiografiya orqali, diniy shaxslarning ruhiy izlanishlari va jamiyatga ta'siri haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin. Agiografik manbalarni tadqiq qilish, tarixchi va tadqiqotchilarga nafaqat diniy hayotni, balki o'sha davrda yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlarni, diniy oqimlarni va ularning jamiyatdagi o'rnini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Ular, shuningdek, diniy va madaniy merosni saqlashda, kelajakdagi avlodlarga yetkazishda va zamonaviy jamiyatdagi diniy va axloqiy qadriyatlarni qayta tiklashda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Xatamov T. Mustaqillik yillarida tasavvufga oid ilmiy-ma'rifiy merosning tadqiq etilishi // Islom tafakkuri jurnali. – T.: 2022. №2.
2. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VII-XI asrlar) – T.: Akademnashr, 2020.
3. Nazarov B. "Islom agiografiyasi tizimida maqomotning o'rni va uning badiiy-uslubiy xususiyatlari (Bahouddin Naqshband maqomatlari misolida)". Filologiya.f.d.diss. – T.: 2000.
4. Комилов Н. Тасаввуф.- Т.: Movarounnahr, 2009. – 395 бет.
5. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тасаввуф хақида тасаввур.- Т.: Hilol, 2021.- 296 бет.
6. Islom ensiklopediyasi. // Z.Husnidinov tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. -bet.
7. Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. -71 bet.
8. Хожа Абдулхолиқ Гиждувоний. Мақомоти Юсуф Хамадоний. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.-56 бет.
9. Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. -72 bet.
10. Madraimov A. Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. -76 bet.
11. Усман Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. -180 бет. Ибн Арабийнинг бошқа асарлари хақида кенг маълумот учун қаранг: Ахмад Оташ. Мухйиддин Арабий. Ислон қомуси. VIII- ж, 533-555 бет.



UDK:39:908 (575.151)

Fayzulla OCHILDIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, t.f.d
E-mail: fayzulla ochildiev@gmail.com

URDU professori, t.f.d.U.I. Abdullayev taqrizi asosida

FROM THE HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN THE BUKHARA EMIRATE

Annotation

This article analyzes the construction of the railway connecting Central Asia with Russia, as well as the process of laying railway tracks in the territories of Turkestan and the Bukhara Emirate. Particular attention is paid to the impact of railway construction on economic and political relations between Turkestan, the Bukhara Emirate, and the Russian Empire. The participation of private entrepreneurs in financing and implementing railway projects is examined, along with discussions on the plans for the construction of the Bukhara-Termiz railway in the early 20th century and the history of its completion.

Key words: Bukhara Emirate, Turkestan, Central Asia, Russia, railway, project, Caspian Sea, Orenburg, Tashkent, Kagan, Termiz, trade, economy.

ИЗ ИСТОРИИ СТРОИТЕЛЬСТВА ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Аннотация

В статье анализируется строительство железной дороги, соединяющей Среднюю Азию с Россией, а также процесс прокладки железнодорожных путей на территории Туркестана и Бухарского эмирата. Особое внимание уделено влиянию железнодорожного строительства на экономические и политические связи между Туркестаном, Бухарским эмиратом и Российской империей. Рассматривается участие частных предпринимателей в финансировании и реализации железнодорожных проектов, а также обсуждаются планы строительства Бухара-Термезской железной дороги в начале XX века и история завершения её строительства.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Туркестан, Средняя Азия, Россия, железная дорога, проект, Каспийское море, Оренбург, Ташкент, Каган, Термез, торговля, экономика.

БУХОРО АМИРЛИГИДА TEMIR YO'LLAR QURILISHI TARIXIDAN

Annotatsiya

Maqolada O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'lovchi temir yo'lining qurilishi, Turkiston va Buxoro amirligi hududlariga temir yo'lining kirib kelishi, Temir yo'l qurilishi natijasida Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya bilan bog'lanishi tahlil qilingan. Shuningdek, temir yo'llarni qurishda xususiy tadbirkorlarning ishtiroki yoritilgan. XX asr boshlarida Buxoro-Termiz temir yo'lini qurishga doir loyihalar va yo'lining qurib tugatilish tarixi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Turkiston, O'rta Osiyo, Rossiya, temir yo'l, loyiha, Kaspiy dengizi, Orenburg, Toshkent, Kogon, Termiz, savdo, iqtisod.

Kirish. XIX asrning 80-yillari boshlariga kelib Rossiya imperiyasining harbiy-strategik va siyosiy ahvoli tezda O'rta Osiyoda temir yo'llarni qurishni taqozo qildi. 1873 yili Turkiston general-gubernatori general fon Kaufman Rossiya hukumatidan O'rta Osiyoda temir yo'l qurishni so'rab yozma ravishda murojaat qildi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'lovchi temir yo'lni qurish masalasi dolzarb masalaga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchilardan M.A.Terentev, Z.K. Axmadjanova, A.M. Aminov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida XIX asrning 80-yillariga kelib Rossiya imperiyasining harbiy-strategik va iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan O'rta Osiyo temir yo'lining qurilishi hamda u bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'rganilgan[1]. Arxiv manbalari[2] hamda N.Musaev, A.Z.Tog'ayeva. kabi tadqiqotchilarning asarlarida esa O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'lovchi temir yo'lining qurilishi, Turkiston va Buxoro amirligi hududlariga temir yo'lining kirib kelishi, uning o'lka iqtisodiga ko'rsatgan ta'siri temir yo'l qurish masalasiga doir 40 dan ortiq loyihalar tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik va miqdoriy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, davriy-muammoviy, xolislik va tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan atroflicha foydalanilgan. Dunyo miqyosida Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bo'yicha,

jumladan, Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asr boshlari tarixini o'rganishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Buxoro amirligi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixiga oid ma'lumotlarni qiyoslash va xolis talqin qilish, Buxoro amirligi hududlariga temir yo'lining kirib kelishi, temir yo'l qurilishi natijasida amirlikning Rossiya bilan bog'lanishi kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning katta qismini o'zining iqtisodiy ta'sir doirasiga olganidan so'ng e'tiborini o'lka bozorlari hamda asosiy xom ashyo mahsulotlari ustidan to'la hukmronligini o'rnatishga qarata boshladi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda dastlab Metropoliya bilan mustamlaka o'rtasida savdo-sotiq va mahsulot almashuvini kuchaytirishga harakat qila boshladi. Xonliklar bilan Rossiya o'rtasida bu davrgacha foydalanib kelingan karvon yo'llari Rossiya xukumatining ko'zlagan maqsadlarini qondirish imkonini bermasdi.

Shuning uchun ham o'lkani Rossiya bilan bog'lovchi temir yo'l qurish masalasi o'zining dolzarbligi bilan Rossiya hukumatining kun tartibidan joy olib keldi. Qisqa vaqt ichida Rossiya hukumati tomonidan O'rta Osiyoga temir yo'l qurish loyihalarini ishlab chiqish uchun ruxsat berildi. Shundan so'ng temir yo'l qurish masalasiga doir 40 ga yaqin yangi loyihalar ishlab chiqildi[3].

Ishlab chiqilgan bu loyihalarni o'zining maqsadi va yo'nalishiga qarab to'rtta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Kaspiy va Orol dengizlari oralig'idan O'rta Osiyoning ichkarisigacha bo'lgan yo'nalishdagi temir yo'l loyihalari;

2. Orenburg–Toshkent yo'nalishidagi temir yo'l loyihalari;

3. Parij–Kalkutta yo'nalishidagi ya'ni, Yevropani Hindiston, Eron, Afg'oniston, Xitoyi O'rta Osiyo orqali bog'lovchi temir yo'llar loyihalari;

4. Kaspiy dengizi bo'yidan Turkiston o'lkasining ichki hududlarigacha bo'lgan yo'nalishdagi temir yo'l loyihalari[4].

Taqdim qilingan loyihalar hukumat tomonidan o'rganilib chiqildi. Bir qancha tortishuvlardan so'ng Krasnovodsk qalasidan boshlanishi lozim bo'lgan loyiha ma'qul deb topildi. Rossiya hukumatinin Turkiston va Buxoro amirligida temir yo'llar qurilishidan ko'zlagan asosiy maqsadi siyosiy, harbiy-strategik hamda iqtisodiy manfaatlarni inobatga olgan xolda amalga oshirilgan. Shuningdek, temir yo'llar orqali Turkiston o'lkasi va amirlik hududlarini Rossiya bilan bog'lash, imperiyaning o'lkadagi harbiy holatini mustahkamlashga doir siyosiy maqsadini ham ko'zda tutgan.

Krasnovodsk qal'asi Rossiya xukumati tomonidan 1869-yili harbiy istehkom sifatida Kaspiy dengizi bo'yiga qurilgan bo'lib bu qala, Volga daryosi orqali tashib kelingan qurilish mollarni joylashtirish uchun qulay bo'lgan. Ikkinchidan, esa qal'a jangovar turkman qabilalarini bo'ysundirish uchun strategik jixatdan muhim ahamiyatga ega edi[5].

Shuningdek, Rossiya hukumati Turkiston va Buxoro amirligiga (O'rta Osiyo) temir yo'lni olib kirish uchun Krasnovodsk qal'asidan boshlashiga bir qancha omillar ham sabab bo'lgan. Turkman urug'larini bo'ysundirishning cho'zilib ketishi, Angliyaning Turkistonda (O'rta Osiyo) o'z ta'sirini kuchaytirishga bo'lgan harakatlari natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligiga nisbatan o'z mavqeini yo'qotib qo'yishdan qo'rqdi. Temir yo'l qurilishi munosabati bilan Krasnovodsk qal'asi kengaytirildi. Bu yerga xarbiylardan tashqari, savdogarlar, sanoatchilar, o'lkani o'rganishga kelgan sayohatchilar, olimlar, injenerlar, vrachlar va o'qituvchilar keldi. Lekin shahar va uning atrofida yashovchi ruslar turkmanlarning muntazam olib borgan hujumlari natijasida ularga doim xavf tug'dirgan. Bu havflarni bartaraf etish uchun rus hukumati, 1879-yili turkmanlarni butunlay bo'ysundirishga qaratilgan keng qamrovli ekspeditsiya tashkil qildi. Biroq, bu ekspeditsiya ham o'z samarasini bermadi.

Bu urinishlar o'z samarasini bermagandan so'ng harbiy kuchlarni tashishga imkon beruvchi temir yo'l qurilishini tezlashtirish zarurligi hukumat kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Temir yo'l qurish masalasi Rossiya hukumati tomonidan uzoq muhokama qilindi. Bir qancha tortishuvlardan so'ng 1880-yil fevral oyidagi hukumat kengashida ikkinchi Axaltekini ekspeditsiyasini tashkil etish va Kaspiy dengizining Mixaylovskiy qo'ltig'ida joylashgan Uzun Otadan Qizil Arvatgacha bo'lgan hududlarda tor izli temir yo'l qurilishiga ruhsat berildi. 1880-yil 26 avgustda Mixaylovskoy ko'rfazidan Qizil Arvatgacha bo'lgan 217 chaqirimlik masofada temir yo'l qurish ishlari boshlandi. Rus hukmati yo'l qurilishi uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oldi. Lekin qurilishni to'liq mablag' bilan ta'minlashda uzilishlar yuzaga keldi. Bu vaziyatdan chiqish uchun M.N. Annenkov yordam so'rab varshavalik savdogar I.N. Kerenovskiy bilan shartnoma imzoladi[6].

1881-yil 1 – yanvarda temir yo'lining 60 chaqirimi qurilib, Bola-Eshimgacha olib kelindi. Shundan so'ng qum barxanlardan o'tkazilgan temir yo'l katta qiyinchiliklar bilan 1881-yil 1 – sentyabrda Qizil Arvatgacha yetkazilib ishga tushirildi. Yuklar kam bo'lganligi sabab poyezdlar dastlab

xaftasiga ikki marta qatnab, asosan qo'shinlar, pochta va har xil yuklarni tashib turgan[7].

Rossiya imperiyasining Turkistonni batamom egallab olishi borasidagi harakatlari Angliya hukmron doiralariining jiddiy qarshiligiga sabab bo'ldi. Angliya-Rossiya munosabatlari O'rta Osiyo masalasida yanada keskinlashdi. 1885-yil 18-martda Angliya ta'sirida bo'lgan afg'onlar Toshko'prik yaqinida ruslar bilan o'zaro to'qnashdi. Bu to'qnashuvda ruslarning qo'li baland kelib, Panda va Atrek vohalari ham ruslar qo'lga o'tdi. Bu g'alabadan so'ng Rossiya harbiy vazirligi temir yo'l qurilishini Amudaryogacha olib borishga harakat qildi. 1885-yil iyun oyida Rossiya hukumati temir yo'lni Chorjuygacha olib borish uchun Buxoro amiri Abdullaxdon bilan kelishib oldi. 1886-yili 4-fevralda esa rus hukumati Marv-Chorjo'y temir yo'lining qurilishiga ruhsat berdi[8].

1886-yil 2-iyunda Marvgacha, 9 – noyabrdan boshlab Repetek stansiyasigacha poyezdlar qatnay boshladi[9]. Shu yilning 30 – noyabrida birinchi poyezd Buxoro amirligi hududiga ya'ni Chorjo'yga kirib kelgan. Temir yo'lni yana davom ettirish uchun quruvchilar oldida Amudaryodan o'tish kabi murakkab vazifa turardi. Muxandis-me'mor Bachinskiy kam harajat bo'lishi uchun daryoga yog'ochdan ko'prik qurish taklifini ilgari suradi. Bu g'oya Rossiya hukumatiga ham ma'qul keldi. Shundan so'ng katta texnik qiyinchiliklarga qaramasdan ko'prik qurish ishlari boshlanib, 124 ish kunida qurib bitkazildi. Ko'priknin uzunligi 811 sajen bo'lib, 1888-yil 6-yanvarda ko'priktan birinchi poyezd qatnovi mufaqqiyatli amalga oshirildi. Ko'prik tez va shoshilinch qurilganligi bois unchalik mustaxkam bo'lmagan. Shunday bo'lsa-da, bu ko'prik o'z davrining ulkan inshooti hisoblanib, uzunligi jixatidan dunyo bo'yicha uchinchi o'rinda turgan.

1886-yili temir yo'l qurish ishlari Buxoro amirligining boshqa hududlarida ham boshlab yuborildi. Masalan, muxandis K. Tolpigo Samarqandda, texnik R. Palmgren Kattaqo'rg'onda, texnik V. Lepinskiy Ziyovuddinda, muxandis S. Ivanov Buxoroda, muxandislar D. Semagin va L. Daraganlar Qorako'l va Amudaryoda yo'l qurilish ishlarini olib borishgan[10]. Amudaryodan Samarqandgacha bo'lgan yo'l qurilishida zarur bo'lgan asbob-uskunalarining yetishmasligi sabab katta qiyinchiliklar bilan kechgan. Lekin qancha qiyinchiliklar bo'lishiga qaramay mahalliy ishchilarning mashaqqatli mehnatlari evaziga qurilish ishlari qizg'in olib borilgan. P. Semyonov - Tyanshanskiy Kaspiy orti xarbiy temir yo'li tez fursatlarda qurilishi jihatidan inglizlarning Hindistonda qurayotgan barcha temir yo'llarini ortda qoldirganini ta'kidlaydi[11].

1888 - yilning 26 – fevralida Buxoroga birinchi poyezd kirib keldi. 11 – mayda esa Samarqand shahrida ham temir yo'lining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Mixaylovsk qo'ltig'idan Samarqandgacha bo'lgan temir yo'lining uzunligi 1335 verstni tashkil qilgan. Kaspiyorti temir yo'l yagona loyiha asosida emas, balki kichik-kichik loyihalarning umumlashuvi natijasida bunyod qilindi. M.A. Terentevning keltirgan ma'lumotiga ko'ra, Samarqandgacha 62 ta stansiya bo'lib, ulardan 32 tasida suv bo'lgan, qolgan staniyalarga esa suv tashib keltirilgan. Shuningdek, 129 ta parovoz, 1965 ta vagon bo'lib, shulardan 136 tasi yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan[12].

Krasnovodsk qalasidan boshlangan bu temir yo'lni Rossiya hukumati Samarqanddan Toshkent va Andijongacha olib borishni reja qilgandi. Chorjo'y stansiyasidan Samarqandgacha temir yo'l kirib kelgandan so'ng Rossiya hukumati temir yo'l qurilishiga moliyaviy qiyinchiliklarni boxona qilib Samarqand-Andijon yo'nalishini (Toshkent tarmog'i bilan) vaqtinchalik to'xtatib turishga qaror qildi. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng, Turkiston gubernatorligi, mahalliy va xorij tadbirkorlari temir yo'lni Toshkentgacha qurib bitkazishni talab qila boshladi. 1890-yil

knyaz M.I. Xilkov, 1892-yil boshida sanoat mutaxassisi Reshetnikov, 1893-yil maslahatchi F.A. Polovsev hamda iste'fodagi kapitan Bibnikovlar temir yo'l qurilishi bilan bog'liq bo'lgan o'z loyihalarini hukumatga taklif qilishgan[13].

Biroq bu loyihalarning barontasi ham qabul qilinmadi. Bu davrda, o'lkada o'z ta'sir kuchini kuchaytirishga harakat qilayotgan Angliya, Fransiya va Niderlandiya kompaniyalari Samarqand-Andijon temir yo'l qurilishi huquqini qo'lga kiritish uchun jiddiy kirisha boshlagandi. Bundan cho'chigan Rossiya hukumati bu temir yo'l tarmog'ining ahamiyatini xisobga olib, yo'lni davlat xazinasi hisobidan qurishga qaror qildi. Aloqa vazirligi temir yo'l qurilishi ishlarini o'z zimmasiga oldi[14]. 1895-yil 21-sentyabrda temir yo'l qurilishini boshlash to'g'risida hukumat tomonidan rasmiy ko'rsatma berildi[15]. Shundan so'ng qurilish ishlari o'lkaning bir necha hududlarida muxandislar A.A.Isaev, Ye.V.Xoromanskiy, M.A. Pridonov, P.M. Yankovskiy va boshqalar rahbarligida boshlandi[16]. 1897 - yili 27 - noyabrda birinchi poyezd Qo'qonga, 1899- yili Toshkentga, 1900-yili esa Andijonga kirib keldi. 1899 yilda Kaspiyorti harbiy temir yo'li Samarqand-Andijon va Toshkent shahobchasi bilan birlashtirildi va O'rta Osiyo temir yo'li deb nomlandi[17].

Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agenti V. Ignatev Kaspiyorti temir (O'rta Osiyo Temir yo'li) yo'lining Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasida amalga oshirilgan iqtisodiy aloqalarda samara bermasligini hamda yuk ortib tushirishda bir qator qiyinchiliklar mavjudligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Buxoro va Troisk o'rtasidagi karvon yo'llari savdo aloqalarini amalga oshirish uchun noqulay bo'lib, karvonlar 80-90 kun yo'l yurishni bildirib bu yo'lni iqtisodiy jihatdan samarasiz deb baholaydi. Uning 1897 - yil 24 - aprelda Turkiston general-gubernatoriga yozgan maktubida Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari asosan bir maromda davom etayotganligini, bu sohada deyarli rivojlanish bo'lmayotganligi malum qilingan[18].

Bu davrda Buxoro amirligidan Rossiyaga har yili 1.200 mingdan - 1.300 ming pudgacha mahsulot chiqarilgan. Uning asosiy qismini paxta (900 ming pud) va jun (200 ming pud) tashkil etgan. Siyosiy agent Buxoro amirligidan xorij davlatlariga kam miqdorda mahsulot chiqarilishini ta'kidlab uning sababini mamlakatda ishlab chiqarishning qoloq shaklda qolib ketishi, tadbirkorlarning kamligi, kapital mablag'larning yo'qligini yozdi. XIX asrning oxirlariga kelib ingliz-hind manufaktura mollarining amirlik hududiga olib kirilishining kamayganligi, aksincha Rossiya mahsulotlarining amirlik hududiga kirib kelishi kuchayib, yiliga 1.200 mingdan -1.500 ming pudgacha yetganligini bayon qilgan.

V. Ignatev Turkiston va Buxoro amirligini homashyo bazasiga aylantirish uchun Rossiya hukumatidan Toshkent-Orenburg temir yo'lini qurishni so'rab uning iqtisodiy jixatdan samaradorligi yuqori bo'lishini ta'kidlaydi. Bu temir yo'l Buxoro amirligi uchun ham qulay bo'lib, amirlikda sanoat va savdo hamda qishloq xo'jaligining taraqqiy etishiga keng yo'l ochilishi kabi fikrlarni ham bildirgan. Toshkent-Orenburg temir yo'li qurilsa amirlik savdosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan choy Hindistondan emas, balki Rossiya orqali Xitoydan olib kelinishini, bu ancha arzonaga tushib Buxoro va Rossiya iqtisodi uchun ham muhimligi tilga olingan[19].

1900-yildan boshlab O'rta Osiyo temir yo'lni Orenburg bilan bog'lash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Bu yo'l ham davlat hisobidan quriladigan bo'ldi. 1906-yilda Toshkent-Orenburg temir yo'li ham qurib tugatilib ishga tushirildi. O'rta Osiyo (1748 km) va Orenburg-Toshkent

(1852 km) temir yo'llari qurilgandan so'ng davlat hisobidan temir yo'l qurilish ishlari to'xtatildi. Turkiston va Buxoro amirligida temir yo'llarni qurish ishlari to'xtab qolmadi. Endilikda ichki yo'llarni qurib bitkazish va ularni O'rta Osiyo temir yo'li bilan bog'lash masalasi kun tartibiga chiqdi. Temir yo'llarni qurish ishlarini ko'proq hususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirila boshlandi.

1903-yil 19-aprel va 20-iyunda Rossiya harbiy vazirligi yig'ilishida Buxoro-Termiz temir yo'lini qurish masalasi ko'rib chiqildi. Temir yo'l Amudaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab, Forob, Buxoro, yoki Samarqanddan Termizgacha bo'lgan hududlar orqali o'tishi muhokama qilindi[20]. 1908-yildan boshlab, o'lkada temir yo'l qurish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Oldingi qurilgan temir yo'llar faqat davlat tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, endilikda bu ishni hususiy tadbirkorlar o'z zimmalariga ola boshladilar. 1912-yili hususiy tadbirkorlar tomonidan 89,6 kilometrlik Qo'qon-Namangan temir yo'l qurilishi boshlandi[21].

1911-yilga kelib Buxoro-Termiz temir yo'lini qurish loyihasini ishlab chiqishga Rossiya hukumati tomonidan ruhsat berildi. M.M. Dolgorukova, M.A. Maevskiy, V.P. Xarchevnikovalar o'zlarining temir yo'l qurish loyihalarini ishlab chiqishdi[22]. Lekin bu loyihalar hukumatga ma'qul kelmadi. 1912 - yilning bahoriga kelib Buxoro-Termiz temir yo'lini qurishga doir yana 3 ta loyiha muhokamaga qo'yildi. 1912-yil 26-avgustda esa A.N. Kovolyov ham o'z loyihasini hukumatga taqdim qildi. Rossiya hukumatiga topshirilgan barcha loyihalar komissiya a'zolari va temir yo'l mutaxassislari diqqat bilan o'rganib chiqdi. Ushbu loyihalardan eng yaxshi va foydali deb A.N. Kovolyovning loyihasi tan olindi. Unga ko'ra temir yo'l Kogon-Qarshi-Termiz (265,29 verst), shuningdek, Qarshidan Kitobgacha bo'lgan tarmog'i ham hisobga olingan (jami 584,34 verst) edi.

1913-yili Kogon-Termiz temir yo'lini qurishga Rossiya hukumati rozilik berdi. Yo'lni qurilishi uchun "Buxoro temir yo'l jamiyati"ga 3122000 rubllik aksiya chiqarishga va shuncha rubllik ta'sis kapitaliga ega bo'lishga ruxsat berildi. Buxoro amiri Said Olimxon jamiyat ixtiyoriga 6 ming gektar yerni tekinga berdi va yo'l qurilishi uchun sarflanadigan xarajatlarning 25 % ni o'z zimmasiga oldi[24]. Hususiy temir yo'l qurilishiga etiborning kuchayishi natijasida 1912-1915-yillarda O'rta Osiyoda bir qancha temir yo'l shahobchalari qurildi. Masalan, 1912 yilda Gorchakovo-Skobelev (temir yo'l shahobchasining uzunligi 8 km.), Qo'qon-Namangan (84 km.), Kogon-Buxoro (12 km). 1914 yilda Andijon-Guruchmozor (27 km.) I-Andijon-II-Andijon (8,3 km.). 1915 yilda esa Qarshi-Amirobod (144,2 km) Qarshi-Samsonov (109,2 km.) Qarshi-G'uzor-Kitob (114,0 km.) temir yo'l shahobchalari qurib ishga tushirildi[25].

Xulosa va takliflar. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o'ziga bo'ysindirgandan so'ng o'z mavqeini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Bu borada olib borgan ishlar jumlasiga amirlikda temir yo'llar qurish siyosatini alohida ta'kidlash lozim. Amirlikda temir yo'l qurishdan maqsad eng avvalo, harbiy strategik ahamiyatga urg'u berildi. Ikkinchidan rus burjuaziyasi amirlikning bebaho boyliklarni o'zlashtirib katta foyda ko'rish, Buxoro bozorlarini egallab o'z ta'sir doirasini kuchaytirish, uchunchidan temir yo'l orqali Afg'oniston va Hindiston bozorlariga chiqish, hamda o'z chegarasi mustahkamlashga qaratilgandi. Shu bilan birgalikda amirlikdagi shaharlar Markaziy Osiyo va Rossiyaning sanoati rivojlangan shaharlari bilan temir yo'l orqali bog'lanish imkoni tug'ildi.

ADABIYOTLAR

1. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии, с картами и планами, т. I-III, -СПб. – 1906.
2. ЎзМА, II-1 жамғарма, 11-рўйхат, 1308-иш, 57-61 varaqlar.

3. Ахмаджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане (конец XIX – начало XX вв.) – Ташкент: Фан, 1984. – С. 14.
4. Тоғаева А. З. Тошкент-Оренбург темир йўли ва унинг Туркистон иқтисодий-ижтимоий ҳаётида тутган ўрни. тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент, 2010. – Б.21.
5. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми–XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Тошкент, 2008. – Б. 58.
6. ЎзМА, Р-856 -I жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш, 220-226- варақлар.
7. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми–XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Тошкент, 2008. – Б. 59.
8. Ахмаджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане. -Ташкент: “Фан”, 1984, -С. 19-20
9. ЎзМА, И-3 жамғарма, 1-рўйхат, 3-иш, 85-151 варақлар.
10. ЎзМА, И-3 жамғарма, 1 -рўйхат, 3-иш, 134 варақ.
11. Семёнов - Тякшанский П.П. Туркестан и Закаспийский край в 1888 году, по путевым впечатлениям, «Известия императорского русского географического общества», т. 24, -СПб., 1888. -С. 303.
12. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии, с картами и планами, т. I-III, -СПб, 1906. – С. 229.
13. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми–XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Тошкент, 2008. – Б. 61.
14. ЎзМА, И-1 жамғарма, 13-рўйхат, 5-иш, 109- варақ.
15. Туркестанские ведомости, -Тошкент, 1895. № 70.
16. ЎзМА, И-1 жамғарма, 13-рўйхат, 5-иш, 167- варақ.
17. Тоғаева А.З. Тошкент-Оренбург темир йўли ва унинг Туркистон иқтисодий-ижтимоий ҳаётида тутган ўрни. тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент, 2010. – Б.40.
18. ЎзМА, И-1 жамғарма, 11-рўйхат, 1308-иш, 57-61 варақлар.
19. ЎзМА, И-1 жамғарма, 11-рўйхат, 1308-иш, 57-61 варақлар.
20. Очилдиев Ф.Б. Бухоро-Термиз темир йўли қурилиши тарихидан. // ЎзМУ хабарлари. № 4сон. 2012. – Б.228-232.
21. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми–XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Тошкент, 2008. – Б. 63.
22. Очилдиев Ф.Б. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигида ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент, “Firdavs-Shoh” 2022. – Б. 184.
23. ЎзМА, И 3-жамғарма 1- рўйхат, 446-иш, 27-варақ.
24. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). - Ташкент: Госиздат УзССР, 1959, - С. 164.
25. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми–XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Тошкент, 2008. – Б. 64.



UDK: 94(517:510)"12"

Javohir SULTONOV,

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Strategik rivojlanish va xalqaro reytinglar bo'limi boshlig'i

E-mail: strategic_development@pf.fdu.uz

AQSH Seton Hall universiteti siyosiy fanlar doktori A. Faizullaev taqrizi asosida

THE FORMATION OF THE UYGHUR STATE IN THE TERRITORY OF EASTERN TURKESTAN AND ITS INTEGRATION INTO THE EMPIRE OF GENGHIS KHAN

Annotation

This article examines the formation of the Uyghur state in Eastern Turkestan and its integration into the empire of Genghis Khan. Due to its strategic location on the Silk Road, the Uyghurs played a key role in trade and cultural interactions. Under Genghis Khan's rule, they became part of the Mongol political and military system, contributing significantly to administrative governance and economic development. Their political and cultural transformation helped stabilize the Mongol empire. The close ties between the Uyghurs and Mongols were significant not only in military and economic aspects but also in cultural exchange.

Key words: Eastern Turkestan, Uyghurs, Genghis Khan, integration, Silk Road, political transformation.

ФОРМИРОВАНИЕ УЙГУРСКОГО ГОСУДАРСТВА НА ТЕРРИТОРИИ ВОСТОЧНОГО ТУРКЕСТАНА И ЕГО ИНТЕГРАЦИЯ В ИМПЕРИЮ ЧИНГИСХАНА

Аннотация

В данной статье анализируется формирование государства уйгуров в Восточном Туркестане и его интеграция в империю Чингисхана. Благодаря стратегическому расположению на Великом шелковом пути уйгуры играли важную роль в торговле и культурных связях. Под властью Чингисхана они стали частью политической и военной системы монголов, активно участвуя в административном управлении и экономическом развитии. Их политическая и культурная трансформация способствовала стабильности монгольской империи. Сближение уйгуров и монголов имело значение не только в военной и экономической сферах, но и в культурном обмене.

Ключевые слова: Восточный Туркестан, уйгуры, Чингисхан, интеграция, Шелковый путь, политическая трансформация.

SHARQIY TURKISTON HUDUDIDAGI UYG'UR DAVLATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING CHINGIZXON DAVLATIGA INTEGRATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharqiy Turkiston hududidagi uyg'ur davlatining shakllanishi va uning Chingizxon imperiyasiga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Uyg'urlar Buyuk Ipak yo'lidagi strategik joylashuvi tufayli savdo va madaniy aloqalar markazida bo'lgan. Chingizxon hukmronligi ostida uyg'urlar mo'g'ullarning siyosiy va harbiy tizimiga qo'shilib, ma'muriy yozuv va iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynagan. Ularning siyosiy va madaniy transformatsiyasi, Chingizxon imperiyasining barqarorligiga hissa qo'shgan. Uyg'urlar va mo'g'ullarning yaqinlashuvi nafaqat harbiy va iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so'zlar: Sharqiy Turkiston, uyg'urlar, Chingizxon, integratsiya, Ipak yo'li, siyosiy transformatsiya.

Kirish. Sharqiy Turkiston mintaqasi uzoq tarixiy jarayonlar mobaynida geosiyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududlardan biri sifatida shakllangan. Qadimgi uyg'urlar bu hududda muhim siyosiy va madaniy markazlardan birini barpo etgan bo'lib, ularning davlat tuzilishi Buyuk Ipak yo'li orqali sodir bo'lgan savdo va madaniy almashinuv jarayonlari bilan chambarchas bog'liq edi. Uyg'ur davlatining tashkil topishi va uning Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul imperiyasiga integratsiyalashuvi tarixiy davrning muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu jarayon nafaqat mintaqaviy, balki transkontinental dinamikani shakllantirgan. Ushbu maqola uyg'urlar tarixining mazkur murakkab bosqichlarini siyosiy, iqtisodiy va madaniy kontekstda tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida tarixiy va zamonaviy ilmiy adabiyotlardan keng foydalanildi. Rashiduddin Fazlulloh va Ibn al-Asir kabi o'rta asr tarixchilarining yozma asarlari Chingizxon imperiyasining uyg'urlar bilan bo'lgan aloqalari bo'yicha asosiy dalillarni taqdim etadi. Bundan tashqari, zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotchilari Oven Lattimore va James Millvard uyg'ur davlatining iqtisodiy va siyosiy transformatsiyasini

kontekstual tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ilmiy yondashuv maqolada keltirilgan tahlillarni yanada chuqurlashtirish va tarixiy voqelikni ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqot tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida olib borildi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil usuli qo'llanilib, uyg'urlar va mo'g'ullar o'rtasidagi siyosiy, harbiy va iqtisodiy integratsiya jarayonlari tahlil qilindi. Shuningdek, turli davrlarga oid tarixiy matnlarning o'zaro solishtirilishi orqali uyg'ur davlatining shakllanishi va mo'g'ul imperiyasiga qo'shilishining sabab va oqibatlari baholandi. Tadqiqot natijalari uyg'urlar va mo'g'ullarning siyosiy ittifoqlari, iqtisodiy hamkorligi hamda madaniy almashinuv jarayonlarini aniqlashga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Sharqiy Turkiston qadimdan ulkan ahamiyat kasb etib kelgan, chunki u savdo yo'llarining kesishmasida joylashgan. Ushbu mintaqada Ipak yo'li rivojlangan davrlarda Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalar markazi sifatida tanilgan. Oven Lattimore shu sababli ham o'z tadqiqotlarida Sharqiy Turkistonni "Osiyoning chorrahasi" deb atagan[1]. Darhaqiqat, Sharqiy

Turkistonga ega bo'lish orqali savdo tarmoqlarini boshqarish va mintaqada hukmronlik qilish imkoniyati mavjud bo'lgan. Aynan shu sababdan, Ipak yo'li rivojlangan davrlarda bu hudud xalqaro raqobat markazida bo'lgan. Sharqiy Turkiston nafaqat iqtisodiy faoliyat markazi, balki turli madaniyatlar, tillar va texnologiyalar o'rtasidagi ko'prikkay aylanagan. Bu o'ziga rivojlanishda uyg'ur xalqining o'zini yuqori darajada bo'lgan. Uyg'ur an'analari ko'ra, ularning ajdodlari Orxon daryosi bo'yida yashagan. Ushbu daryo Qoraqum tog'laridan oqib kelgan bo'lib, keyinchalik Chingizxon tomonidan bunyod etilgan shahar ham aynan shu tog' nomi bilan atalgan [2].

"Uyg'ur" atamasi bilan yuritilgan qabilalar dastlab Turk Xoqonligining tarkibiy qismi bo'lib, ularning tili va yozuvi qadimgi turklarnikiga juda yaqin edi. Uyg'ur kuchli strategik hamkorlik orqali qarluqlar va basmil qabilalari bilan ittifoq tuzib, Sharqiy Turk Xoqonligini tor-mor qildilar. Biroq, bu ittifoq uzoq davom etmadi. 744 yilda uyg'ur qarluqlarni g'arbga surib chiqarib, o'zlarining qirolik sulolasini barpo etdilar va Markaziy Mo'g'uliston hududida yirik imperiya tashkil etishga muvaffaq bo'ldilar.

Uyg'ur xoqonligi o'z geopolitik mavqei mustahkamlash uchun strategik harbiy va iqtisodiy harakatlar olib bordi. Xitoy Tang sulolasi bilan olib borilgan realpolitik yondashuvlar uyg'ur uchun muhim harbiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratdi. An Lushan qo'zg'oloni vaqtida uyg'ur Tang sulolasiga harbiy yordam ko'rsatib, Pekin va boshqa muhim hududlarni qo'zg'olonchilardan qaytarib olishga yordam berdi. Bu harakat, bir tomondan, uyg'ur uchun Tang sulolasi ustidan ta'sir kuchini oshirdi, boshqa tomondan esa Xitoy strategik qaramlikka solib qo'ydi. Natijada, Tang imperiyasi har yili uyg'urlarga ulkan miqdorda ipak bilan to'lov qilishga majbur bo'ldi, bu esa uyg'urlarni mintaqadagi eng yirik iqtisodiy o'yinchilardan biriga aylantirdi. Uyg'ur ot-savdo monopoliyasini qo'lga olib, har bir ot uchun o'rtacha 38 bo'lak ipak olish shartini joriy etishdi, bu esa Tang iqtisodiyotiga jiddiy bosim o'tkazgan siyosiy qadam edi. Chunki VI–VIII asrlarda Xitoyning otga bo'lgan ehtiyoji oshgan va ayniqsa Tang sulolasi davrida bu strategik ahamiyat kasb etgan. 618-yilda Tang imperiyasida 5 000 ot mavjud bo'lgan bo'lsa, VII asr o'rtalariga kelib bu son 700 000 taga yetgan. Xitoy armiyasining ot ta'minoti asosan turklarga bog'liq bo'lib, bu ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismini tashkil qilgan [3].

Sharqiy uyg'ur qirollarining ulkan boylikka ega bo'lganligi haqidagi tasdiqlar arab sayyohlarining yozuvlarida aks etgan. Bir arab sayyohi uyg'ur xoni chodiri tilla bilan qoplanganini qayd etib, Tang imperiyasining har yili 500 000 dona ipak bilan to'lov qilgani haqida yozib qoldirgan [4].

Bu raqamlar uyg'urlarni xalqaro iqtisodiy tizimning muhim sub'yektiga aylantirdi va ularning Markaziy Osiyo hamda Sharqiy Osiyodagi ta'sirini yanada kengaytirdi.

Ushbu davrda xalqaro savdo tizimining ajralmas qismi bo'lgan Uyg'ur savdo tarmoqlarini nazorat qilish barobarida harbiy va diplomatik jihatdan ham muhim rol o'ynadi. An Lushan qo'zg'oloni va undan keyingi Tibet istilolari Xitoyning tashqi va ichki siyosatiga keskin ta'sir o'tkazdi. Ushbu harbiy va siyosiy beqarorlik, ayniqsa, Tang imperiyasida millatchilik kayfiyatining ortishiga olib keldi, natijada chet ellik savdogarlar, xususan Sog'diyaliklar kuchli repressiyaga uchradi.

Bunday sharoitda Sog'diyaliklar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun Uyg'ur Xoqonligining harbiy va siyosiy homiyligiga suyanishga majbur bo'ldilar. Ushbu strategik ittifoq nafaqat savdo manfaatlarini himoya qilish, balki diniy erkinlikni saqlashga ham xizmat qilgan. Manbalarga ko'ra, Uyg'ur hukmdorlari aynan Sog'diyalik vositachiligi orqali Manixeylik dinini qabul qilishgan, bu esa ikki xalq o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamladi [5].

Sog'diyaliklar orqali Uyg'ur Sog'd yozuvini (asli oromiy yozuv tizimidan kelib chiqqan) o'z tillari uchun moslashtirib qabul qilishdi, shuningdek, imperial boshqaruv va sud-huquq tizimi uchun zarur bo'lgan terminologiyalarni o'zlashtirishdi [4].

840-yilda Uyg'ur Xoqonligining Orxon vodiysidagi poytaxti Qirg'iz qabilalari tomonidan vayron qilindi, natijada Uyg'ur qabilalari turli yo'nalishlarda tarqalib ketdi. Bu voqea Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish nuqtalaridan biri bo'lib, Uyg'ur uchun yangi siyosiy va geografik muhitda o'zlarini qayta tiklash zaruratini tug'dirdi [2].

Uyg'ur Xoqonlikning qulashi ortidan turli hududlarga ko'chishga majbur bo'ldi:

Xitoyning janubiga qochgan Uyg'ur – Ushbu guruh Xitoy imperiyasining ichki hududlariga ko'chib o'tib, turli viloyatlarda joylashdi.

Gansu va Qinghai chegaralarida Tibet bilan chegaradosh davlat – Bu Uyg'ur qabilalari Tibet ta'sir doirasida bo'lgan hududlarda o'z saltanatlarini barpo etishdi va Tanglarga tomonidan 1030-yillarda bosib olindi.

Shimoli-sharqiy Sharqiy Turkistonda (Shinjon) yangi davlat – Bu Uyg'ur Beshbaliq (qishki poytaxt) va Qo'cho (yozgi poytaxt) markazlari atrofida mustahkam davlat tuzdilar [6].

Qo'cho Uyg'ur davlati IX asrdan XIV asrgacha davom etgan bo'lib, Markaziy Osiyodagi avvalgi imperiyalarga qaraganda ancha uzoq muddat hukmronlik qilgan. 1130-yillarda ular yangi paydo bo'lgan Qoraxitoy (G'arbiy Liao) imperiyasiga vassal sifatida bo'ysundi va Uyg'ur qirolik oilasining a'zolarini garov sifatida yubordi.

1125 yilda Abagiy ismli ko'chmanchi sarkarda qo'zg'olon ko'tarib, Xitoyda Liao sulolasi ag'darilganidan so'ng ushbu hududlarda hukmronlik qilgan bir guruh xitanlar mintaqadagi siyosiy mavjudligining davomi sifatida Sharqiy Turkistonda Qoraxitoy davlatiga asos solishdi. Nushi Taifu ismli yuqori martabali amaldori bu yangi davlatga hukmdor bo'ldi [7].

XIII asr boshlarida bu davlat ma'lum bir manoda zayiflashdi. Bunga sabab mintaqadagi vassal hukmdorlarni isyon edi. Bu isyonlar bo'layotgan bir davrda 1208-yilda jangda Chingizxondan yengilgan Kuchluk bu hududlarga yana bir muhim o'yinchi sifatida kirib keldi.

G'urxon unga ko'plab sovg'alar berib, "Kuchlukxon" unvonini taqdim etdi. Buning ortidan Kuchluk kuchli yoydan otilgan o'qdek shiddat bilan harakatlana boshladi. Kuchluk tez orada atrofiga kuchli armiya yig'ishga erishadi. Ushbu armiya yordamida u dastavval o'z homiysi bo'lgan Qoraxoniylar hukmdoriga nisbatan isyon ko'taradi. Shu davrda Xorazmda vujudga kelayotgan ulkan bir imperiyaga aylanayotgan Xorazmshohga elchi yuborib Qoraxoniylar yerlarini bo'lib olishni taklif qiladi.

Dastlab ikkilanib turgan bo'lsa-da, oxir-oqibat Muhammad Kuchlukni ochiq qo'llab-quvvatlashga rozi bo'ldi, bunga qisman Kuchlukning O'zgandagi Qoraxiton davlati xazinasiga bostirib kirishi sabab bo'ldi, buning natijasida qoraxitoylar xazinasiga bo'shab qoladi [8].

Bu xiyonat harakati mintaqada siyosiy dinamikasida burilish nuqtasi bo'ldi, chunki Kuchlukning ambitsiyalari Jilugu hokimiyati bilan to'qnashib, Qoraxitoy ichida yanada beqarorlik va ziddiyatga olib keldi [9].

1211 yildan keyingi yillarda Qoraxitoy podsholigi keskin halokatga uchradi. Uzoq davom etgan urushlar xazinani tugatib, og'ir va to'satdan moliyaviy inqirozga olib keldi. Kuchluk fursatdan foydalanib, qo'zg'olonchilarga rahbarlikni o'z zimmasiga oldi, Jiluguni qo'lga oldi va qulay uy qamog'iga o'tkazib, uning qizlaridan biriga uylanadi [2]. Jilugu ikki yil nominal davlat boshlig'i bo'lib qolgan bo'lsa-da, Kuchluk Qoraxitoyda haqiqiy hokimiyatni boshqargan.

1213 yilda Jilugu vafot etgach, Kuchluk o'zini gur-xon deb e'lon qildi.

Kuchluk 1213-1216 yillardagi qisqa hukmronligi davrida uning siyosiy faoliyati va boshqaruv usullari Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo tarixida og'ir oqibatlarga olib kelgan muhim buriish davrini belgilab berdi.

Muhammad Xorazmshoh Kuchlukning zulmkor va repressiv siyosatiga qarshi harakat qilishga intildi, ammo uning harbiy yurishlari muvaffaqiyat keltirmadi. U Kuchlukning qat'iy siyosiy qatag'onlaridan himoya qilishda ham samarasiz bo'ldi.

Bu fikrga biz Ibn al-Asir ning ushbu ma'lumotlariga asoslanib kelishimiz mumkin.

Kuchlukxon o'z qo'shinlarini safarbar qilib, Xorazmshoh hududlariga yaqin joyda lager quradi. Xorazmshoh esa unga qarshi tura olmasligini tushunib, to'qnashuvdan qochishga urinadi. Lekin Kuchlukxon harakat qilar ekan, Xorazmshoh uning orqasidan yurib, odamlariga va karvonlariga hujum qilib, talon-taroj qiladi. U hatto qaysidir qabila o'z turar joyini tark etganini eshita, darhol ularning orqasidan borib, hujum uyushtiradi. Kuchlukxon esa Xorazmshohga shunday xabar yuboradi: "Shohlar bunday ish qilmaydi, bu talonchilar ishidir. Agar sen o'zingni sulton deb bilsang, kel, yuzma-yuz uchrashaylik: sen meni mag'lub qilsang, mening qo'limdagi yerlarga egalik qilasan, yoki men seni mag'lub qilib, senga tegishli mamlakatni qo'lga kiritaman"[10].

Biroq, Xorazmshoh bu taklifni qabul qilmay ochiq jangdan qochadi. Aholining o'z diniy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish borasidagi umidlari puchga chiqqanidan so'ng, musulmon jamiyatining Xorazmshohga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada pasaydi. Shu sababli, ham bizning tahlilarga ko'ra Sharqiy Turkiston aholisi Chingizxonni ularni Kuchluk zulmidan ozod qila oladigan yagona qutqaruvchi kuch sifatida ko'rishni boshladi. Kuchlukning siyosiy va diniy repressiyalari jamiyatda chuqur norozilik uyg'otgan bo'lsa, Chingizxonning kuchli va ta'sirchan harbiy siyosati aholi orasida yangi umid manbai sifatida talqin qilindi. Bu holat Chingizxon uchun strategik ustunlik yaratib, uning Sharqiy Turkiston va qo'shni hududlarda siyosiy ta'sirini kengaytirishga zamin tayyorladi.

Shu sababdan ham Chingizxon qoraxitoy hududida joylashgan kichik davlatlarni o'zi bilan itifoq tuzushga undadi.

Dastlab uyg'urlar hukmdori Idikut Chingizxonga murojaat qilib, Qoraxitoylarga qarshi himoya so'rash maqsadida elchilar va hadyalar jo'natdi. Idikut o'zining sadoqati va fidoyiligini namoyish etish niyatida Chingizxonning e'tirofini qozonishni istab, ramziy ma'noda qizil chopon va oltin kamar uzuk so'radi. U Chingizxon tomonidan o'g'illari orasida "beshinchi o'g'il" sifatida tan olinib, imperiya ishlariga faol hissa qo'shishni maqsad qilgan edi[7].

Chingizxon va Idikut o'rtasidagi nikoh ittifoqi o'sha davrdagi siyosiy strategiyalar ichida muhim ahamiyat kasb etgan hodisalardan biri hisoblanadi. Chingizxonning Idikut taklifini ma'qullab, unga o'z qizlaridan birini turmushga berishi, faqatgina oilaviy yoki shaxsiy munosabatlar doirasida emas, balki keng siyosiy maqsadlar asosida amalga oshirilgan qaror edi. Bu harakat natijasida Idikut Chingizxon tomonidan rasman uning beshinchi o'g'li sifatida tan olindi.

Bu qaror quyidagi bir necha strategik jihatlariga asoslangan edi:

Uyg'urlar va mo'g'ullar o'rtasidagi yaqin integratsiya – Idikutning Chingizxon saltanati tarkibiga qabul qilinishi uyg'urlarni mo'g'ullarga yanada yaqinlashtirdi. Bu esa madaniy, iqtisodiy va harbiy jihatdan uyg'urlarning Chingizxon boshchiligidagi davlat tizimiga muammosiz qo'shilishiga sabab bo'ldi.

Siyosiy barqarorlikni mustahkamlash – Nikoh ittifoqi orqali Chingizxon nafaqat yangi ittifoqchi orttirdi, balki o'z imperiyasida uyg'urlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan barqaror boshqaruv tizimini yaratishga ham muvaffaq bo'ldi. Uyg'urlar esa bu jarayonda o'zining davlat tuzilmasini va madaniy ta'sirini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Savdo va yozuv tizimidan foydalanish – Uyg'urlar o'sha davrda rivojlangan savdo yo'llarini boshqarar, keng qamrovli yozuv tizimiga ega bo'lgan xalq sifatida mo'g'ullarga muhim xizmatlar ko'rsatdi. Uyg'ur yozuvi keyinchalik mo'g'ullar tomonidan rasmiy yozuv sifatida qabul qilindi va imperiyaning ma'muriy boshqaruvida keng qo'llanildi.

Harbiy hamkorlik – Idikut va uning xalqi mo'g'ullarga harbiy jihatdan ham yordam berdi. Uyg'ur generallari va harbiy qo'mondonlari Chingizxon yurishlarida faol ishtirok etib, imperiyaning harbiy strategiyasiga o'z hissasini qo'shgan.

Ushbu nikoh ittifoqi faqatgina shaxsiy yoki oilaviy kelishuv emas, balki Chingizxonning diplomatik strategiyasining muhim qismi sifatida qaraladi. Bu orqali Chingizxon o'z imperiyasining janubi-g'arbiy chegaralarini mustahkamlash bilan birga, uyg'urlarni saltanatiga muammosiz qo'shib olishga erishdi. Shu tariqa, bu qaror mo'g'ul imperiyasining keyingi bosqichdagi siyosiy va ma'muriy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu siyosiy qadam uyg'urlar tomonidan Chingizxonga bo'ysunishni kuchaytirgan va imperiyaning ichki barqarorligini oshirishga xizmat qilgan. Ushbu harakat natijasida Uyg'urlar o'z hududiy mustaqilligini 1370-yilgacha saqlab qolish imkoniga ega bo'lishdi[4].

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda Sharqiy Turkistonda uyg'ur davlatining shakllanishi va uning Chingizxon imperiyasiga integratsiyalashuvi jarayoni tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, uyg'urlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo'lgan xalq bo'lib, ularning imperiyaga qo'shilishi mo'g'ullar boshqaruv tizimi, iqtisodiy tarmoqlari va harbiy strategiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Bundan tashqari, maqolada uyg'ur davlatining siyosiy va iqtisodiy asoslari, Tang imperiyasi bilan munosabatlari hamda diplomatik strategiyasining o'rni ko'rib chiqildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, uyg'urlar va mo'g'ullar o'rtasidagi yaqin integratsiya siyosiy barqarorlikka xizmat qilgan bo'lsa, uyg'urlar madaniy jihatdan mo'g'ul imperiyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, uyg'urlarning Chingizxon imperiyasiga qo'shilishi nafaqat uyg'urlar tarixida, balki butun mintaqaning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

ADABIYOTLAR

1. Lattimore, O. Pivot of Asia: Sinkiang and the Inner Asian Frontiers of China and Russia. New York: Little, Brown, 1950. P. 5.
2. Juvaini, A. The History of the World-Conqueror, trans. J. Boyle. Harvard UP, 1958. P. 61, 63-64.
3. Schafer, E. The Golden Peaches of Samarkand: A Study of T'ang Exotics. Berkeley: UC Press, 1963. P. 58-63.
4. Millward, J. Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. New York: Columbia UP, 2007. P. 44, 46.
5. Vaissière, É. de la. Sogdian Traders: A History, trans. J. Ward. Leiden: Brill, 2005. P. 223.
6. Beckwith, C. The Tibetan Empire in Central Asia. Princeton: Princeton UP, 1987. P. 155-172.

-
7. Rashiduddin, F. Jami 'ut-Tawarikh: A History of the Mongols Part One, trans. W. Thackston. Harvard NELC, 1998. P. 154, 213.
 8. Бартольд, В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва: Изд-во вост. лит., 1963. С. 428.
 9. McLynn, F. Genghis Khan: His Conquests, His Empire, His Legacy. Philadelphia: Da Capo, 2015. P. 247.
 10. Ибн аль-Асир. Аль-Камиль фи ат-Тарих, пер. П.Г. Булгаков, ред. Ш.С. Камолиддин. Ташкент-Цюрих, 2005. P. 346.



UDK:KBK 78, 34 U 62

Rayxon URALOVA,

O'z DSMI Oliy ta'lim muassasa kengashi kotibi, O'zbekiston Respublikasi Fundamental kutubxonasi direktori

Z.Berdiyeva taqrizi asosida

**THE CREATION OF THE FUND OF ORIENTAL BOOKS AT THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
AND THE ACTIVITY OF THE MUSEUM OF RARE MANUSCRIPTS IN THE INFORMATION RESOURCE
CENTER**

Annotation

The article highlights the importance of the rare manuscripts and lithographs kept in the "Museum of Rare Manuscripts" established at the Information Resource Center of the National University of Uzbekistan, their in-depth study, the need for their comparative analysis, as well as the acquisition of new information not yet fully known to the scientific community, and their importance for the development of science.

Key words: Manuscript, lithograph, alphabetic catalog, systematic catalog, general fund, historical method, education, spirituality, enlightenment, culture, historical-cultural heritage.

**СОЗДАНИЕ ФОНДА ВОСТОЧНЫХ КНИГ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА И
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ «МУЗЕЯ РЕДКИХ РУКОПИСЕЙ» В ИНФОРМАЦИОННО-РЕСУРСНОМ ЦЕНТРЕ**

Аннотация

В статье подчеркивается значение редких рукописей и литографий, хранящихся в «Музее редких рукописей», созданном при Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана, их углубленное изучение, необходимость их сравнительного анализа, а также получения новой информации, еще не до конца известной научному сообществу, и их значение для развития науки.

Ключевые слова: Рукопис, литографический, алфавитный каталог, систематический каталог, общий фонд, исторический метод, просвещение, просветительство, духовность, культура, историко-культурное наследие.

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA SHARQ KITOBLARI FONDINING YARATILISHI VA AXBOROT-
RESURS MARKAZIDAGI "NODIR QO'LYOZMALAR MUZEYI"NING FAOLİYATI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston milliy universiteti axborot-resurs markazida tashkil etilgan "Nodir qo'lyozmalar muzeyi"da saqlanayotgan noyob qo'lyozma va toshbosma asarlar, ularni chuqur o'rganish, hali ilmiy jamoatchilikka to'la ma'lum bo'lmagan yangi malumotlar olish bilan birga ularni qiyosiy tahlil qilish zarurligi, fan taraqqiyoti uchun ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qo'lyozma, toshbosma, alfavit katalogi, tizimli katalog, umumiy fond, tarixiy usul, maorif, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, tarixiy-madaniy meros.

Kirish. Dunyo xalqlari tarixi va madaniyatini, milliy davlatchilik asoslarini tadqiq etishda nodir qo'lyozma asarlar alohida o'rin egallaydi. Ushbu manbalarni chuqur o'rganish hali ilmiy jamoatchilikka unchalik ma'lum bo'lmagan yangi ma'lumotlar olish bilan birga, ularni qiyosiy tahlil qilish va ob'ektiv xulosa chiqarish uchun ham zarurdir. Bu borada ilm uchoqlari bo'lmish axborot-kutubxona muassasalari, axborot-resurs markazlari bebaho xazina vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995-sonli farmoniga asosan xalqimiz tarixi va madaniyatiga oid manbalarni topish, o'rganish hamda ularni mahalliy tillarga tarjima qilish olimlar oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Ularni saralash, o'qib-o'rganish, keng jamoatchilikka tarqatish, ma'naviy boyliklarimizni kelajak avlodga yetkazish uchun muhim sa'y-harakat hisoblanadi. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarishda olimlar va tadqiqotchilarimiz nafaqat xorijiy davlatlar kutubxonalarga, balki mamlakatimizdagi yirik oliy o'quv yurtlari axborot-resurs markazlariga murojaat etishlari maqsadga muvofiqdir.

Shu jumladan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti axborot-resurs markazining fondida ham

ko'plab nodir qo'lyozmalar va toshbosma manbalar mavjuddir.

Arab, fors, tojik, turk, pushtu, urdu, hind, mongol, siam, sanskrit, eski o'zbek va boshqa Sharq tillarida bitilgan qo'lyozma va toshbosma kitoblar XIII-XX asrlarga taalluqli bo'lib, ular asosida 2006 yilda ilmiy-madaniy ob'ekt sifatida O'zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida "Nodir qo'lyozmalar muzeyi" tashkil etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu muzeyda uning asosini tashkil etuvchi Sharq kitoblari fondida 1465 nomdagi kitob mavjud bo'lib, bulardan 523 tasi qo'lyozma va 942 tasi toshbosmalardir. Aslida O'zMU (1918 yilda Turkiston Xalq universiteti, 1920 yilda Turkiston davlat universiteti, 1923 yilda O'rta Osiy davlat universiteti) Fundamental kutubxonasining Sharq kitoblari fondiga 1920 yilda barcha kitoblar jam'armasini tashkil etish bilan asos solingan. O'sha davrda mavjud bo'lgan maxsus kutubxona komissiyasining aholi qo'lida saqlanayotgan qadimiy noyob qo'lyozmalar, markaziy kutubxonaning asl nusxalar fondidagi mavjud asarlar nusxalarini ayriboshlash, aholidan sotib olish hisobidan universitet Sharq kitoblari fondi boyitib borilgan. Bundan tashqari, bir qator mahalliy tashkilotlar tugatilishi munosabati bilan ularga tegishli bo'lgan nodir qo'lyozmalar ham universitet fundamental kutubxonasi fondiga topshirilgan. 1924 yilda Turkiston Sharqshunoslik instituti O'rta Osiyo

davlat universitetining Sharqshunoslik fakultetiga birlashtirilishi munosabati bilan Sharq kitoblari fondi yanada boyitildi.

1929 yilga kelib O'rta Osiyo davlat universitetining Sharq tillari fakultetidagi Sharq kitoblari fondida Sharq qo'lyozma va toshbosma nashrlarning arab, fors, tojik, turk, pushtu va urdu tillaridagi muayyan to'plamlari ham paydo bo'la boshladi. 1930 yilga kelib esa, Sharq kitoblari fondi katta hajmda avval Buxoro amirligining Shahrisabz begi, sobiq general Jo'rabek tomonidan to'plangan qo'lyozma va toshbosma nashrlar hisobiga, qolgan qismi Turkiston o'qituvchilar seminariyasi qo'lyozmalari hisobiga to'ldirilgan. Shu yili O'rta Osiyo davlat universitetining Sharq tillari fakulteti yopilishi munosabati bilan uning barcha kitob fondlari, shu jumladan barcha qo'lyozma va toshbosma nashrlar universitet Fundamental kutubxonasining Sharq kitoblari fondiga topshirildi. Ushbu davrga kelib O'rta Osiyo davlat universiteti Fundamental kutubxonasining Sharq kitoblari fondi 4200 nusxaga yetdi.

Mavjud manbalarni yo'nalishiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Sharq tillaridagi adabiyotlar;

Sharq tilidan boshqa tillarga tarjima qilingan kitoblar;

Grammatik, filologik va lingvistik tadqiqotlar;

Sharq adabiyotlari tarixi;

Sharq tillaridagi davriy nashrlar.

Tadqiqot metodologiyasi. 1936 yilga qadar Sharq kitoblari fondi manbaning qaysi tilda yozilganligi bo'yicha ajratish mumkin bo'lgan faqat bitta tizimli katalogdan iborat edi. Shu yildan katalogni qayta ishlash boshlangan, hozirgi kunda barcha fond kataloglari alfavitli va tizimli tarzda shakllangan. Alfavitli katalog tillar bo'yicha, umumiy fond tizimli katalog bo'yicha aks ettirilgan. Ikki turdagi kataloglarda ham kartochkalar rus tilidagi kitoblar uchun lotincha va kirilcha, arab, fors va turkiy tillardagi kitoblar uchun esa arabcha yozuv bilan joylashtirilgan.

Bugungi kunda "Nodir qo'lyozmalar muzeyi"ning Sharq kitoblari fondida quyidagi turdagi adabiyotlar mavjuddir:

Sobiq Ittifoq va xorijiy mamlakatlarning sharq tillaridagi kitob va davriy nashrlari;

Sharq qo'lyozmalari va litografik (toshbosma) asarlar;

Sharq mantlarining Yevropa nashrlarini o'z ichiga olgan sharqshunoslik deb nomlanuvchi asarlar;

Lingvistika, sharq tillarini o'rganish bo'yicha dasturilamal (grammatika, lug'at, xristomatiya, so'zlagich)lar;

Sharq qo'lyozmalari va toshbosma nashrlarning tavsiflari;

Sharqshunoslik bo'yicha yozilgan asarlar va muayyan sharqshunoslarning tanlangan kitoblari.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Milliy universiteti axborot-resurs markazida tashkil etilgan "Nodir qo'lyozmalar muzeyi"ning Sharq kitoblari fondi aholida saqlanayotgan noyob qo'lyozma, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlarni xarid qilish yo'li bilan to'ldirilishi bugungi kunda ham davom etmoqda.

"Nodir qo'lyozmalar muzeyi" fondidagi eng qadimgi nodir kitoblar sifatida Abu Muhammad Ibn Abu Bakr Sobuniy (580/1184) ning fors tilida yaratilgan "Kitobul-kifoya fil-hidoya" (659/1261) asari qo'lyozmasi saqlanadi.

Abu Bakr Muhammad Ibn Zakariyo ar-Roziy (865-925yy)ning "Mirsod ul-Ibod Min al-Mabda' ila-l-maod" nomli qo'lyozma asari ham mavjud bo'lib, unda sufiylik ta'limoti va XII asrga oid tarixiy voqealar bayon etilgan. ar-Roziy o'zining ushbu asarida "Qur'oni karim"ning ko'plab oyatlari Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ning 260 ta hadislarini sharhlab bergan. Mazkur asarning barcha boblari orqali mo'tadillik haqidagi fikr-mulohazalar, aql-farosat, sahiylik, oliyjanoblik, himmatlilik, mo'minlik, adolatparvarlik,

rahmdillik, xotirjamlik kabi sifatlar mujassam bo'lgan g'oyalar aks ettirilgan.

Muhammad Yusuf Munshiy inb Xo'ja Baqoning 1697-1704 yillar orasida fors tilida yaratilgan "Tarixi Muqimxoniy" qo'lyozma asarida Baxl va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixiy bayon etilgan. "Tarixi Muqimxoniy" muqaddima va uch bobdan iborat bo'lib, muqaddimada turkiy xalqlarning afsonaviy onasi Alan Quva, Chingizxonning ota-bobolari, mo'g'ul qo'shinlari tomonidan Movarounnahr, Balx va Badaxshonning bosib olinishi tarixi qisqacha bayon etilgan. Asarning birinchi bobi Shayboniylar davrida Movarounnahrning umumiy ahvolidan tasviriga bag'ishlangan. Asarning ikkinchi bobida Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli yoritilgan. Uchinchi bobda esa 1702-1704-yillar voqealari, xususan, Buxoro va Balx o'rtasidagi qurolli kurash o'rin olgan. Shu bilan birga, asarda Ashtarxoniy hukmdorlarning turk sultonlari, eron shohlari, boburiy hukmdorlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari ham yoritib berilgan. Ko'pgina ma'lumotlar mazkur davrni yorituvchi boshqa manbalarda ham uchrasada "Tarixi Muhimxoniy"da berilganidek to'liq va mukammal emas. Asarning qiymati ham ana shundadir.

Abu Ja'far Muhammad inb Jarir Tarobiy (225/839-310/925)ning "Tarixi Tarobiy" qo'lyozma asarining 1021/1612 arabchadan fors tilida ko'chirilgan tarjima nusxasi. Umumiy tarixiy usulda yozilgan ushbu kitob mukammalligi va daliliy materiallar boyligi bilan boshqa asarlardan alohida ajralib turadi. Asarda olamning yaratilishidan to 912-913 yillarga qadar Arabiston, Rum (Kichik Osiyo), Eron va Arab xalifaligi asoratiga tushib qolgan mamlakatlarda, shuningdek, O'zbekiston hududida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar hikoya qilinadi. Asarda voqealar xronologik tarzda bayon etilganligi undan foydalanishda qulayliklar yaratadi. Mirxond (1433-1497)ning XVII asr boshida Hattot Muhammad ibn Nosuriddin tomonidan fors tilida ko'irilgan "Ravzati-s-safo" nomli asarining 1-jildi va Hatto ibn Muhammad-ash Sharif tomonidan 873/1468- yilda fors tilida ko'chirilgan "Ravzatu-s-safo fi siyratu-l-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa"(xalifalar, podshohlar, avliyolar hayotiga oid musaffolik bog'i) nomi bilan mashhur bo'lgan qo'lyozma asari. "Ravzat us-safo"("Safoli jannat") umumiy tarixga oid fors tilidagi mashhur kitoblardan biridir.

Ushbu asar temuriylarga bag'ishlangan bo'lib, muqaddima, yetti jild, xotimadan iborat:

Dunyoning "Yaratilishi"dan to Sosoniylar Yazdigard III davrigacha (632-65y);

Muhammad payg'ambar va Xalifa an Roshadin davri;

12 imon tarixi; Ummaviy va Abbosiylar xalifalari;

Abbosiylar bilan zamondosh sulolalar;

Chingizxon va uning avlodi;

Amir Temur va uning avlodi (to Sulton Abu Said vafotigacha (1469));

Sulton Husayn va uning avlodi tarixi (1523 yilgacha) bayon etilgan.

"Ravzatu-s-safo fi siyratu-l-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa (Xalifalar, podshohlar, avliyolar hayotiga oid musaffolik bog'i)" kompilyatsiya, ya'ni, ko'plab manbalardan foydalanish va boshqa asarlardagi ma'lumotlar asosida yaratilganligidan tashqari, unda muallif o'zi ko'rgan, bilgan va shohidi bo'lgan voqealarni bayon qilgan. Aslida, Mirxond ushbu mashhur asarini Alisher Navoiyning maslahati bilan yaratgan. Voqealarning rivojlanishiga muvofiq Mirxond Navoiy faoliyatiga oid ko'pgina holatlarni ham o'z asariga singdirib yuborgan. Aynan unda Navoiyning "Sohib tadbirkorligi", Yodgor Mirzoga qarshi "Mahorabalaridagi ishtiroki", amirlik mansabi, Astrobdoga borishi, ukasi Darvish Alining isyoni, Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishi, Mo'min Mirzoning

o'ldirilishi, hajga jo'nashi va ammo, Mashhaddan Sulton Husayn tomonidan chaqirtirib kelinishi haqida voqealar qilingan. Mahmud al-Koshoniy tomonidan yaratilgan as-Suhravardiyning XIX asr boshida qo'lyozma shaklidagi "Avorifu-l-maorif" ("Ilm-ma'rifat tuhfas") asarining arabchadan forschaga tarjimasi. Ushbu asarda ilm-fanga qanday munosabatda bo'lish, inson xulq-atvori, odob-axloqi, jamiyatda o'zini qanday tutishi, poklanish usullari, komil inson darajasiga erishish uchun maorifu ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat imkoniyatlaridan qanday foydalanish lozimligi tushuntirib beriladi. Mirzo Nizomiy Ganjaviy (1141-1209)ning Hattot Umid tomonidan hijriy 1196-1201 yillarda ko'chirilgan "Iskandarnoma" asarining qo'lyozmasi. "Iskandarnoma" asari Nizomiy Ganjaviyning so'nggi dostoni bo'lib, Nizomiy ushbu dostonni yozish orqali o'z oldiga ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlarini yakunlash va adolatli, ma'rifatparvar podshoning mukammal obrazini yaratish vazifasini qo'yan. "Iskandarnoma" ikkita: "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" jildlaridan iborat bo'lib, birinchi jildda Iskandarning Misr, Eron, Ozarbayjon, Xurosan, Hindistonga yurishlarini, ikkinchi jild "Iqbolnoma"da uning davlatni boshqarish usuli, olimlar suhbatini bayon qiladi.

Imom Rabboniy (971/1564-1034/1624)ning "Maktuboti imom Rabboniy"nomli XIX asrning ikkinchi yarmida fors tilida ko'chirilgan asari qo'lyozmasining I-jildi. "Maktuboti imom Rabboniy"da, shariat uch narsaga: ilm, amal va ixlosga bo'linishi, tariqat va haqiqat shariatning uchunchi bo'lagi bo'lgan ixlosni kamolga yetkazish uchun xizmat qilishligi to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, Soliq shariat ahkomlarini amalga oshirishda unga biror narsani qo'shib yoki kamaytirmasdan, ixlos va e'tiqod bilan bajarishi, qaytarilgan holatlardan o'zini tiyish lozimligini alohida uqtiradi. Mantiq ilmiga oid Al-Qazvinining "Ar risola ash-shamsiyya fi-l-kavaid al-mantiqiyya" asarining hijriy 1293 yilda yozib tugallangan qo'lyozmasi. Asar umumlashtirilgan tarzda bayon qilingan bo'lib, uning ichida yana bir necha kichik asarlar ilova qilingan.

Jaloliddin Rumiy (1207-1273)ning fors tilida qo'lyozma shaklida 1272/1273 yilda ko'chirilgan. "Masnaviyi ma'naviy" asari.Asarda falsafa, din va tasavvufga oid masalalar o'z aksini topgan bo'lib, unda ko'plab rivoyatlar hikoyatlar, masallar o'rin olgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning (vafoti 1454y) "Zafarnoma" asarining birinchi kirish qismi hisoblanmish "Muqaddimai Zafarnoma"nomli qo'lyozma asari, XVIII asr boshida fors tilida yaratilgan "Zafarnoma", ya'ni uchinchi qo'lyozma asari. Sharofiddin Ali Yazdiyning "Muqaddimai Zafarnoma" asari "Zafarnoma"asarining birinchi qismi bo'lib, XV asr adabiy uslubiya mukammal bilganlar uchun mo'ljallangan. Ushbu qismni Ali Yazdiyning o'zi "Tarixi Jahongir"deb nomlangan, lekin "Muqaddima" nomi bilan mashhur bo'lgan. Balki hajmi katta bo'lganligi tufayli bo'lsa kerak, qo'lyozma nusxalari alohida mustaqil asar sifatida ham keng tarqalgan. Ikkinchi qo'lyozma 1419-1425 yillarda Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan Sherozda fors tilida yozilgan.

Ta'kidlab o'tish zarurki, "Zafarnoma" ikki qismga: Temur shajarasi, turkiy qavmlar tarixi Chingizxon uluslari tarixini umumiy tarzda bayon etuvchi birinchi qism "Muqaddima" va Temur davri tarixini yorituvchi asosiy qism-"Zafarnoma"ga bo'linadi. "Zafarnoma" Amir Temurning tarjimai holi, uning davri va undan keyingi davr voqealariga bag'ishlangan tarixiy asardir. Asarning asosiy qismi muallifga ko'ra uchta maqoladan iborat bo'lishi rejalashtirilgan. Birinchi maqola Amir Temurga, ikkinchi maqola, uning o'g'li Shohruhga, uchinchi maqola Shohruhning o'g'li Ibrohim Sultonga bag'ishlanishi ko'zda tutilgan. Biroq "Zafarnoma"ning xozirda fanga ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida keyingi ikki maqola yo'q, ular yozilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan. Har qanday holatda ham

tarixnavislikning eng noyob yodgorliklaridan biri Amir Temur davri tarixining asosiy manbalaridan bo'lgan "Zafarnoma" uzoq vaqtdan buyon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Dalillarning to'liqligi va ishonchligi tufayli asar usha davr manbali orasida muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, Abu Muhammad... al Hanafiy (hijriy 958-1052/ milodiy 1551-1641)ning "Sharh safaru-saodat"("Saodat safari asarining sharhi")nomli qo'lyozma asari, Shayx Inoyatullohning 1257/1841yilda fors tilida ko'chirilgan "Bahori donish" nomli qo'lyozma asari, Alisher Navoiyning XIX asrning birinchi yarmida ko'chirilgan turkiy tildagi ikkita yirik qo'lyozmalari jamlangan "Lisonu-t-tayr" ("Qush tili"1498-1499)dostoni va "Xamsa"ning (1483-1485 y) 5ta dostoni va forsiy she'rlaridan tashkil topgan, 1209/1794 yilda ko'chirilgan "Devoni Foni"asari, Muhammad Sulaymon Fuzuliy (1498-1556)ning 1295/1888 yilda ko'chirilgan "Kulliyoti Fuzuliy" qo'lyozma asari, Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485-1554)ning 1303/1885 yili fors tilida ko'chirilgan "Badoe'u-l-vaqoe'" ("Nodir voqealar") qo'lyozma asari, Muhammad Fozilbekning XIX asrda ko'chirilgan "Mukammali tarixi Farg'ona"nomli fors tilidagi qo'lyozma asarining II jildi. Asarda 1560 yildan 1860 yilgacha bo'lgan Farg'ona tarixi, ya'ni rus istilosiga daxldor voqea-hodisalar to'la bayon etilgan. Mu'iniddin Natanziyning XIX asr ikkinchi yarmida ko'chirilgan "Tarixi avoil va avaxir"nomli eski o'zbek yozuvidagi qo'lyozma asari, Abulqosim Firdavsiy (934-1021)ning XVI asrda fors tilida yaratilgan "Shohnoma"nomli qo'lyozma asari, Abu Tolib Husayniyning "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") nomli qo'lyozma asari, Husayn Voiz Koshifiy (-vafoti 1505 y)ning XIX asr o'rtalarida Hattot Mulla Muhammad Sodiq Xo'qandiy tomonidan ko'chirilgan "Axloqi Muhsiniy" nomli qo'lyozma asari ham mavjuddir. Abdurahim Jomiy (1414-1492)ning 1483 yilda fors tilida yaratilgan "Yusuf va Zulayho"ning dostoni, 7dostondan iborat "Haft avrang" asari tarkibidagi uchinchi "Yusuf va Zulayho" nomli asarini ilk bor fors tojik tilidan o'zbek tiliga XVIII asr oxiri XIX asrning boshlarida Muhammad Rizo Ogahiy tarjima qilgan.Yusuf obrazi Sharq adabiyotida keng tarqalgan obrazdir. Bu obraz dastlab "Tavrot" va "Injil"da, so'ngra Qur'onda o'z ifodasini topgan. "Qur'onda "ahsan-ul-qisas" qissalarining sarasi" deb ta'riflangan Yusuf qissasi bayoniga bag'ishlangan asarning ildizi juda chuqurdir.

Abdurahmon Jomiyning ikkinchi kitobi XX asr boshida fors tilida ko'chirilgan "Silsilatu-z-zahab" ("Oltin zanjir") nomli qo'lyozma asari. Ushbu asarning asl qo'lyozmasi 1472 yilda yaratilgan bo'lib, Sulton Husayn Mirzoga bag'ishlangan "Haft avrang" to'plamining birinchi dostoni hisoblanadi. Abdurahmon Jomiyning uchinchi kitobi 1475-1476 yillarda Alisher Navoiyning maslahati bilan fors tilida yaratilgan Nafaxotu-l-uns ("Do'stlikning xush ishlari") nomli qo'lyozma asari bo'lib, unda 616 nafar tasavvuf ilmi namoyondalari haqida ma'lumot berilgan. Ular orasida Mansur Xalloy, Abusaid Abulxayr, Ali Hamadoni, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy va boshqalar tilga olingan.

Alisher Navoiy ushbu asardagi ma'lumotlarni qayta ishlab va to'ldirib, uni turkiy tilga "Nasoyim ul-muhabbat" nomi bilan tarjima qilgan. Ushbu asarga turkiy mashoyixlar haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan.

Abdurahmon al-Ahdariyning 941/1563 yili fors tilida yozilgan "Sharhu-r-risolati-l ilmi fi-l-mantiq" nomli qo'lyozma asari. Mazkur asar Ahmad ibn Abdul Mun'im ad-Damanhuriy al-Azhariy asariga Marh sifatida yaratilgan bo'lib, unda mantiq ilmi bosqichma-bosqich tushuntirib berilgan.

Xolmuhammad ibn Niyozmuhammadning hijriy 1271 yili (melodiy 1854 yil) Qo'qonda fors tilida yaratilgan

“Farhangi Shavariy” nomli qo'lyozma asari. Mazkur asar fors she'riyatidagi izohli lug'at hisoblanadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721y)ning XIX asrda fors tilida yaratilgan “Irfon” (“Bilim”) nomli qo'lyozma asari. Asarning asl qo'lyozmasi 1711-1712 yillarda yaratilgan bo'lib, unda falsafa, ilohiyot, jamiyat, tibbiyot, tarix va adabiyotga oid keng qamrovli fikrlar umimlashtirilgan. Mazkur asarda insonning bilish faoliyati, uning imkoniyatlarining cheksiz ekanligi, sezgi a'zolari, aql, ong unga ato etilgan buyuk ne'matlar ekanligi yoritib berilgan.

Muhammad Rizo Xoksoning 1798-1799 yillarda fors tojik tilida yaratilgan “Muntaxabu-l-lug'at” (“Saylanma lug'at”) nomli qo'lyozma asari. Asar arabcha-forscha izohli lug'at bo'lib, unda eski o'zbek adabiy tilida ishlatilgan arabcha, forscha va ayrim eskirgan o'zbekcha so'zlar ma'nolari eski o'zbek, ba'zan fors-tojik tilida tavsiflangan. Lug'atning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda so'zlarning to'g'ri (asosiy) ma'nosi bilan birga, ko'chma ma'nolariga ham izoh berib o'tilgan.

Bunadn tashqari, asarda o'zbek mumtoz adabiyotida ko'p uchraydigan astronomiya, adabiyot, musiqa, falsafa, geometriya, arxitektura, zoologiya, biologiya kabi qator fanlarga taalluqli, ko'pchilik yoshlar uchun tushunish murakkab bo'lgan arabcha, forscha so'zlarning ma'no va izohlari keltirilganligi bilan ham ilmiy-tadqiqot olib boruvchilar uchun qimmatlidir.

“Nodir qo'lyozmalar muzeyi”dagi toshbosma asarlar kolleksiyasida quyidagi asarlar mavjuddir: Najmiddin Ali ibn Umar al-Kotibiy al Qazvinining “Ajoyibu-l-maxluqot” nomli XVII asrda fors tilida toshbosma shaklida yaratilgan ensiklopedik asari. Asarda falsafa, din, jamiyat, tabiat kabi fanlarga oid masalalar yoritilgan bo'lib, metallar va minerallar, mevali daraxtlar, tabobatda ishlatiladigan o'simliklar, yovvoyi va uy hayvonlari hamda parrandalar xususiyatlari, tashqi ko'rinishdagi ayrim farqlar mufassal bayon qilingan.

Jaloliddin Rumiyning 1318/1900 yilda toshbosma shaklida nashr qilingan fors tilidagi “Masnaviyi ma'naviy” asari. “Masnaviyi ma'naviy” asari dunyo xalqlari uchu muhim ma'naviy boylik bo'lib, undagi eng muhim mavzu ishqdir. Ushbu mavzu musulmon sharqidagi deyarli barcha tasavvuf tariqatidagi muhim va dolzarbligiga ko'ra barcha zamonlardagi ilm ahllarining diqqatini o'ziga tortib kelmoqda.

Muhammad Sulaymon Fuzuliyning ikkinchi kitobi 1325/1907 yilda ko'chirilgan adabiyotga oid liro-epik harakterdagi “Layli va Majnun” nomli toshbosma asari. Ushbu dostonning asl qo'lyozmasi 1536-1537- yillarda yaratilgan bo'lib, an'anaviy syujet va obrazlar asosida yaratilgan hamda turkiyzabon xalqlar o'rtasida keng tarqalgan. Fuzuliyning mazkur badiiy yuksak asarining asosiy mavzusi ishq bo'lib, ilohiy muhabbat ulug'lanadi, insonni kamolotga yetkazuvchi fazilatlar tarannum etiladi, uni tubanlashtiradigan illatlar tanqid qilinadi.

Mirzo Ahmad Qosim ibn Mirzo Abduxoliq Buxoriyning XIX asrda fors tilida yaratilgan “Temurnoma” nomli toshbosma asari. Asar 1912-yilda Toshkentda “G'ulomiya” matbaasida chop etilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530y) ning XIX asr o'rtalarida fors tilida yaratilgan “Boburnoma” nomli toshbosma asari.

Asarda Movarounnahr, Xuroson, Hisdiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning birinchi yarmidagi tarixi aks ettirilgan. Ushbu davrda mazkur mamlakatlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, geografik

mavqei, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlarning yashash sharoitlari, urf-odatlar, muhim tarixiy inshooatlari, hindu va musulmonlarning ibodatxonalar, to'y va dafn marosimlari haqida nodir ma'lumotlarni o'ziga qamrab olgan shoh asar hisoblanadi. Muhammad Said Amir Umarxon (1787-1822y) ning XIX asr oxirida yaratilgan. “Devoni Amir Umarxon” nomli toshbosma asari. Fors-tojik tillaridagi she'rlar to'plab tartib berilgan ushbu devon g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she'rni o'z ichiga olgan. Is'hoqxon Ibrat (1861-1937y) ning 1330/1912 yili Namanganda fors tilida yaratilgan “Jome'u-l-Xutut” (“Xatlar mazmuni”) nomli toshbosma asari. Mazkur asar yozuvlar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, qadimgi finikiy, yahudiy, suryoniy, yunon slavyan, sanskrit, lotin, arman, gruzin va boshqa ko'plab yozuvlar haqida ma'lumotlar berishdan tashqari dunyoda mashhur bo'lgan 41 xil yozuv tizimi, jumladan, arab xatining suls, taq'e, rayhon, zulf, xumoyun, turra kabi shakllari yuzasidan fikr yuritadi va ilmiy xulosalar chiqaradi.

Abdurahim ibn Abdulkarim Safiy Puriyning hijriy 1315 yilda yaratilgan “Muntaha-l-adab” nomli toshbosma asarining I-II jildlari. Mazkur asar 1897 yili Pokistonning Lohur shahrida chop etilgan bo'lib, unda ikkita: “Muhtaha-l-adab” va “Saroh va Karoh” nomli asarlar jamlangan. Ular izohli lug'atlar seriyasiga kiruvchi arabcha-forscha lug'atlardir.

Abu Fadl Muhammad inb Umarning XIX asr oxirida fors tilida yaratilgan va Pokistonning Lohur shahri Matbaasida chop etilgan.

Asar majmuaviy bo'lib:

- 1.Suroh;
- 2.Karoh;
- 3.Tanmila;
- 4.Nuras-Saboh;
- 5.Zamimai Latifa;
- 6.Sahihi Nusxa kabi kichik asarlardan tashkil topgan.

Unda urdu va fors tilidagi ham matnlar mavjud bo'lsada, asosan arab tilidagi grammatik asar hisoblanadi.

Albatta, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti axborot-resurs markazi “Nodir qo'lyozmalar muzeyi” da fonga nisbatan katta bo'lmasada, boshqa oliy o'quv yurtlari axborot-resurs markazlarida mavjud bo'lmagan ko'pgina qo'lyozma va toshbosma asarlarning saqlanayotganligi ko'pgina tadqiqotchilar uchun qiziqish uyg'otishi tabiiydir.

Xulosa va takliflar. Ta'kidlab o'tish zarurki, o'tgan asrlar mobaynida samarali ijod orqali adabiyot olamida katta o'rin tutgan ajdodlarimiz hayoti va ijodi ko'p yillar davomida e'tibordan chetda bo'lib kelgan edi. So'nggi yillarda qadimiy nodir kitoblarni tadqiq qilish uchun keng yo'llar ochilib, mumtoz adabiyotimizning eng sara noyob asarlari jahon tillariga ham tarjima qilinayotganligi, keng yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotganligi quvonchli holdir. Shuning uchun ham xorijdan nimalarni o'rganishimiz kerakligi va o'z navbatida nimalarni taqdim etishimiz mumkin-ushbu masalalar xalqaro hamjamiyatda o'zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanligini yodda tutgan holda, tarixiy-madaniy merosimiz namunalarining jahon ilm-fan va sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini targ'ib etishga ijtimoiy-madaniy institutlar bo'lgan barcha kutubxonalar, jumladan, axborot-resurs markazlar ham burchli va mas'uldirlar.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022.- 440 bet.

2. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24-maydagi PQ-2995 sonli Farmoni./ Xalq so'zi, 2017 yil, 25 may.
3. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetida saqlanayotgan noyob qo'lyozmalar kolleksiyalari/ Salaeva M.S, Kislisyna I.L, Salaeva M.S..Mas'ul muharrir Shomusarov Sh.G'..-Toshkent; MVMTO3, 5022018-112 bet
4. Kormilisyn A.I.Nauchnaya biblioteka Tashkentskogo Gosudarstvennogo universiteta (1918-1993). Tashkent, 1996.- 98s
5. Mo'tabar ziyo maskani (1918-2008)-Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi NMIU, 2008.-152b.
6. ToshDU ilm va ma'rifat maskani.-T.: Universitet, 1995.-182b